



UDK:193.4(575.1)

*Qaxramon ALMANOV,*  
*GulDU "Tarix" kafedrası dotsenti*  
*E-mail: almanov20111988@gmail.com*

*O'z FA MAM katta ilmiy xodimi, t.f.d. G'.Boboyorov taqrizi asosida*

## HISTORIOGRAPHY OF STUDY AFTER THE OCCUPATION OF JIZZAKH OASIS BY THE RUSSIAN EMPIRE

Annotation

This article examines the historical and ethnic toponymy of the Jizzakh oasis in Uzbekistan, and also reviews research conducted during the Soviet era, particularly on the irrigation networks, archaeological sites, and geographical features of the oasis.

**Key words:** Jizzakh oasis, ethnotoponymy, Soviet research, irrigation networks, archaeological objects, geographical features.

## ИСТОРИОГРАФИЯ ИЗУЧЕНИЯ ПОСЛЕ ОККУПАЦИИ ДЖИЗАКСКОГО ОАЗИСА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается историческая и этническая топонимика Джизакского оазиса в Узбекистане, а также рассматриваются исследования, проведенные в советское время, в частности, по ирригационным сетям, археологическим объектам и географическим особенностям оазиса.

**Ключевые слова:** Джизакский оазис, этнотопонимика, советские исследования, ирригационные сети, археологические объекты, географические особенности.

## JIZZAX VOHASI ROSSIYA IMPERIYASI EGALLAGANDAN SO'NG O'RGANILISH TARIXSHUNOSLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistondagi Jizzax vohasining tarixiy va etnik toponimiyasi tadqiq etiladi, shuningdek, maqolada sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar, xususan voha sug'orish tarmoqlari, arxeologik ob'ektlar va geografik xususiyatlariga qaratilgan tadqiqotlarni ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Jizzax vohasi, etnotoponimiya, Sovet davri tadqiqotlari, sug'orish tarmoqlari, arxeologik ob'ektlar, geografik xususiyatlar.

**Kirish.** Jizzax vohasidagi dastlabki ilmiy izlanishlar o'lkani o'zlashtirish maqsadida olib borilgan bo'lib, bu davrga oid rus sayyohlari, harbiylari, geograflari, sharqshunoslari, tarixchilari hamda boshqa sohalar vakillarining bir qator asarlarida o'lkaning geografik joylashuvi o'lkada yashayotgan aholi soni, etnik tarkibi, yer-suv munosabatlari kabi masalalarga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ayniqsa Rossiya imperiyasi tamonidan Turkiston o'lkasining bosib olinishidan so'ng yaratilgan ko'plab tadqiqotlarda bu narsa yaqqol ko'zga tashlanadi[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar.** Rus tadqiqotchilaridan bo'lgan bir qator tadqiqotchilar[2] o'lkani ilmiy jihatdan tadqiq qilish asosida bir qator farazlarni ilgari suradi xususan, A.D. Grebenkin[3], A.I.Maksheev[4], G.Arandarenko[5], A.P.Xoroshxin[6], M.N.Rostislavov[7], D.G.Kolokoltsov[8], A.E. Snasareva[8], va L.N.Sobolyevlar[10] tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'lka aholisi va uning hududlarda joylashuvi etnik mansubligi kabi masalalarga qisqacha to'xtalib o'tilgan. Rus imperiyasi vakillarining o'lkani tadqiq qilish bilan bog'liq ma'lumotlari va materiallari doimiy "Turkestanskies vedomosti gazetasi" sonlarida e'lon qilib borilgan. Mintaqaga ilmiy ekspeditsiya bilan kelib tadqiq qilgan rus sharqshunos turkologi V.V.Radlov mahalliy aholining etnik tarkibi, til va lahja xususiyatlari masalalarini Zarafshon vohasi xususan, Samarqand okrugining turli uezdlariga tashrif buyurgan holda tadqiq etadi[11]. Jizzaxning qadimiy tarixi, aholisi va joy nomlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilardan, P.I.Lerx (1867), A.Kushakevich (1870- yy.), N.S.Likoshin (1890- yy.), V.V.Bartold (1894), P.S.Skvarskiyarlarning (1896) ishlari alohida ajratib ko'rsatib o'tishimiz mumkin[12].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologiyasi analiz va sintez, tadrijiylik, tarixiy-qiyosiy, ob'ektivlik, davriy-muammoviy va retrospektiv tahlil etishga asoslanadi. Bugungi kunda dunyo fanida tarixiy tadqiqotlar bo'yicha qo'lga kiritilayotgan yutuq va yangiliklardan, ayniqsa, ko'pchilik dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan tadqiqot usullari va yondashuvlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi. Tadqiqot yondashuvlariga asoslangan holda O'zbekistondagi Jizzax vohasining tarixiy va etnik toponimiyasi tadqiq etiladi,

shuningdek, maqolada sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar, xususan voha sug'orish tarmoqlari, arxeologik ob'ektlar va geografik xususiyatlariga qaratilgan tadqiqotlarni ko'rib chiqiladi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston respublikasining bugungi hududidagi joy nomlarining tarixini etnotoponimik jihatdan tadqiq etish jarayonida Jizzax vohasi etnotoponimiyasiga alohida etibor bilan ilmiy izlanishlar olib borilmaganligiga duch keldik. Sovet davri tadqiqotchilari asosan Zarafshon vohasi etnotoponimiyasiga e'tibor qaratib, Jizzax mintaqasiga shu voha tarkibidagi hududlardan biri sifatida qarab o'z tadqiqotlarini amalga oshirishgan. Xususan, bu davrdagi tadqiqotlarda Jizzax vohasining qadimiy davri tarixi, bu hududda bo'lgan qadimiy Ustrushona tarixi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib bu tadqiqotlarda Jizzax vohasidagi joy nomlariga ham birmuncha to'xtalib o'tilganligiga guvoh bo'lamiz[13]. Jizzax vohasining qadimiy tarixi bo'yicha sovet davri tarixshunosligida yaratilgan tadqiqotlar ancha sermahsul va salobatlidir. Mintaqa etnotoponimiyasini ilmiy jihatdan tadqiq qilishni birinchilardan bo'lib, V.V.Bartold, O.A.Suxareva, B.X.Karmisheva kabi tadqiqotchilar boshlab berdilar[14]. Shuningdek Jizzax vohasining tarixiy ildizlarini o'rgangan N.Negmatov, O.I.Smirnova, V.A.Livshits A.Babaxanov kabi tadqiqotchilarning ham bir qancha ilmiy farazlari o'lka tarixini o'rganishda salmoqli o'ringa ega bo'ldi[15]. Xususan, Zarafshon vohasidagi yirik markaziy hududlar Buxoro, Samarqand viloyatlari va O'zbekistonning janubiy hududlari etnik qiyofasini o'rgangan tadqiqotchilar bu hududlardagi tadqiqotlari orqali u yoki bu darajada Jizzax vohasiga, etnotoponimiyasiga ham qisqacha to'xtalib o'tganlar[16]. Garchi V.V.Bartold Jizzax vohasining aholisining etnik tarkibi, etnik tarixi yoki etnotoponimiyasiga maxsus to'xtalib o'tmagan bo'lsa ham qadimiy Ustrushona davlati tarixiga bag'ishlab yozilgan bir qator maqolalarida voha tarixi uchun muhim materiallarni keltirib o'tganligini etirof etishimiz o'rinlidir[17]. Jumladan, tadqiqotchi olim o'zining birinchi uy'gonish davri hisoblangan IX – XII asrlarga oid arab-fors geograflari asarlariga tayanib yaratilgan Movarounnahr tarixiy-geografiyasiga oid tadqiqotlarida Jizzax vohasi, xususan, qadimiy Ustrushona viloyatining aholi

maskanlari: shahar, rustoq va qishloqlariga, ularning geografik joylashuv o'rniga, to'xtalib o'tadi. Shuningdek hududning geografik o'rni, lokalizatsiyasi masalasida katta yutuqlarni qo'lga kiritganini ko'rishimiz mumkin. Akademik olim V.V.Bartoldning asosiy fikr va mulohazalarini qo'llagan holda ba'zi bir fikrlariga nazar solib biryozlama xulosalar chiqarganini aytib o'tmoqchimiz. Xususan, akedemik olim B.Bartoldning butun Movarounnahrda joy nomlarining katta qismini XII asrgacha asosan forsdiy nomlar tashkil etgan, turkiy nomlar esa mintaqamizda deyarli uchramaydi degan fikrlari o'z isbotini topmaganligini kuzatamiz[18]. Yurtimiz tarixini o'rgangan ba'zi tadqiqotchilar xususan G'.Boboyorov ta'kidlaganidek[19], nafaqat XII asrda, balki undan ancha asrlar avval ham Movarounnahrda joy nomlarining sezilarli katta bir qismini turkiycha nomlar tashkil etgan bo'lgan. Bu haqda shuningdek yana bir tarixchi va sharqshunos olim Z.To'g'on ham o'z fikr va mulohazalarini aytib o'tgan[20]. Vohaning qadimiy davrlardan beri yashab kelayotgan aholisi va uning etnik tarkibiga oid ba'zi bir fikrlarini berib o'tgan N.Negmatov hududda ko'proq sug'diy va turkiy elatlar vakillari yashaganligini shu xalqlarga xos tasvirlarning uchrashi yozma manbalarda voha aholisining etnik tarkibi to'g'risida berilgan ma'lumotlarni keltirib o'tganligi ham o'rganilayotgan davr to'g'risidagi ma'lumotlarni ancha to'ldiradi[21]. A.Ayubovning tadqiqotlarida ham bu haqda bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan[22]. G.Aminov esa o'z tadqiqotlarida asosiy diqqat-e'tiborni Jizzax vohasidagi aholi manzilgohlari va cho'l hududlariga ko'chib kelib yashagan aholi manzilgohlariga shuningdek mintaqaning topografiyasi va demografik jihatlari, shuningdek, mazkur hududlar aholisining etnik tarkibi, hunarmandchiligi, ijtimoiy-madaniy hayotiga e'tibor qaratgan bo'lib, ayniqsa bu masalada tadqiqotchining Jizzax vohasi cho'llariga va joy nomlariga ancha keng to'xtalgani diqqatga sazovordir[23]. V.G.Moshkova ham o'zining tadqiqotlarida o'lka aholisining etnik tarkibi to'g'risida o'zining qimmatli ma'lumotlarini keltirib o'tadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, XX asrning ilk choragida Jizzax vohasi hududlarida aholining tarkibi xilma xil bo'lgan hududda voha turkmanlarining o'rni katta bo'lganligini Nurato tog'lari atrofida ularning soni boshqa qabila va urug'larga nisbatan ko'proq ekanligini ta'kidlab o'tadi[24]. Yana bir tadqiqotchi M.S.Andreev ham Nurota tog'i atroflarida yashagan aholi to'g'risida fikr yuritib bu joylarda qoraqolpoqlar ham yashaganligini ta'kidlab o'tadi. Muallifning keltirib o'tgan ma'lumotlariga ko'ra 1920-yilgi aholini ro'yxatga olish ishida Jizzax uezdi bo'yicha 36 ta ovuldan faqatgina 17 tasida ro'yxatga olinganligini hisobga olib yuqoridagi ma'lumotlarni inkor qilmaydi, voha aholisining etnik tarkibi hilma-hillik kasb etgan deya ta'kidlaydi[25]. Jizzax vohasidagi shahar va ovullar aholisining asosiy ko'pchiligini o'zbeklar tashkil etganligini ular bilan bir qatorda turli tilli boshqa etnoslar ham o'zlarining hayot tarziga mos turli kasblar bilan shug'ullanishganligini tadqiqotchilar ham ta'kidlab o'tishgan. Shuningdek, voha aholisining sezilarli bir qismi tojiklar, qirg'izlar, qozoqlardan iborat bo'lgan va ular ham o'zbeklar kabi Jizzaxning mahalliy yerlik aholisi sifatida vohadagi ijtimoiy-madaniy hayotda faol ishtirok etganlar. Shuningdek vohada tojik tilli arablar, eroniylar, lo'lilar va yahudiylar (mahalliy aholi juxud, jugu, jo'gi, mo'ltoni ham deyishadi) tashkil etib, ijtimoiy-madaniy hayoti va xo'jalik tarzi bu yerning o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq aholisidan unchalik katta farq qilmagan bo'lgan. Vohaning russyabon aholisi esa asosan yangi shahar hududlari, va unumdor yerlarda bir qancha imtiyozlarga ega bo'lgan holda yashab o'zlarining turmush tarzi mahalliy aholidan katta farq qilgan holda yashashgan[26].

Zarafshon okrugining, tarkibiy bir qismi bo'lgan Samarqand, Buxoro, Jizzax kabi hududlari toponomiyasi, xususan, Zarafshon vohasining yuqori qismidagi joy nomlari tadqiqotchi A.L. Xromov boshchiligida keng ko'lamda o'rganilgan bo'lib, muallif asosan tog'lik hududlardagi bir qancha yuzlab joy nomlari (qishloq, mavze, gidronim, oronim va h.k.)ni

tarixiy va etimologik nuqtayi nazardan o'rgangan[27]. Zarafshon vohasi tevaragidagi hududlar yirik aholi manzilgohlarining katta qismi xususan, tog'lik joylardagi toponimlarning anchagina katta qismi sug'diy toponimlardan iborat bo'lgan deya ta'kidlab o'tadi. Ushbu tadqiqotchiga ko'ra, vohaning tog'lik hududlaridagi bir qancha joy nomlari turkiy negizda, xususan, qadimgi turkiy asosda tahlil qilinishi etiborga maolikkidir. Masalan "-on" affiksi orqali yasalgan joy nomlarining katta qismi O'zbekiston sharoitida aksari toponim yasaydi va kishilarning qandaydir sotsial guruhga, chunonchi: 1) muayyan millatga - Arabon (arablar), Qirg'izon (qirg'izlar), O'zbekon (o'zbeklar); 2) qandaydir urug'-aymoqqa - Minggon (ming urug'idan bolgan kishilar); va hokozo. "-on" affiksi Matcha (Mastchoh) shevalarida, shuningdek barcha tojik shevalarida kam ishlatiladi. Shu sababli bu affiks mavjud bo'lgan barcha joy nomlari tojikcha affiksli toponimlar xisoblanmasligini ta'kidlab o'tadi. Bu kabi holatlar vohada azaldan sug'diy va turkiy etnoslar o'zaro yakdil va hamfikr bo'lib o'zaro aralash qon qarindosh holatda yashaganliklaridandir[28].

Jizzax vohasining xususan, Ustrushonaning tarixiy toponimiyasi sug'dshunos olimlar V.A. Livshits, B.N. Bogolyubov, O.I. Smirnova kabi tadqiqotchilarning tadqiqotlarida ham chuqur tahlil asosida maxsus o'rganilgan[29]. Sug'dshunos olimlar voha tarixiga oid Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida uchraydigan joy nomlariga qisqacha to'xtalib, bu manbalarga tayanish asosida vohadagi joy nomlarini izchillik bilan o'rganib, toponimlarni etimologik jihatdan tahlil qilganlar[30].

Janubiy O'zbekiston mintaqasi va qo'shni respublika hisoblangan Tojikistonning katta qismida etnografik dala tadqiqotlarini olib borgan olim B.X. Karmisheva o'z ilmiy ishlarida Buxoro, Samarqandning Jizzaxga tutash hududlaridagi turli etnik holatlarga va etnomadaniy jarayonlarga ham to'xtalib o'tgan[31]. Shuningdek sovet davrida Jizzax vohasi aholisining shajara shevalarini til xususiyatlaridan kelib chiqib X.Doniyorovning olib borgan tadqiqotlarida vohadagi qirg, yuz kabi urug'larning joylashuv o'rni va turli to'plarga bo'linishi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar yozma manbalar va dala tadqiqotlari asosida olingan ma'lumotlar asosida dalillanadi[32]. Shuningdek Jizzax vohasidagi yana bir etnik gurux turklarning joylashuvi va turli tarmoqlarga bo'linishi xususida G.F. Blagova va X.D. Daniyarovning olib borgan tadqiqotlari xam o'lka tarixida turk etnografik guruxining tutgan o'ringi ko'rsatib berishda muhim ahamiyatga ega[33]. Sobiq sovet davrida yana bir qancha o'zbekistonlik tadqiqotchilar ham mintaq tarixi, tarixshunosligi, tarixiy toponomiyasiga oid ilmiy maqolalar bilan qisqacha to'xtalib o'tishgan. Xususan, manbashunos va arxeolog olim akademik A. Muhammadjonov Zarafshon vohasining sug'orilish tarixini yoritish mobaynida Jizzaxning tarixiy joy nomlariga ham qisqacha to'xtalib o'tgan bo'lib, bugungi kunda ham akademik olimning keltirib o'tgan fikrlari o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q[34]. Jumladan, akademik A.Muhammadjonovning "Buxoro amirligining aholi manzilgohlari" nomli tadqiqoti shu bugungi kunda ham olib borilayotgan ko'pgina ilmiy tadqiqotlar uchun muhim tarixiy manba vazifasini bajarib kelmoqda[35].

XX asrning 60-70 yillarda A.Muhammadjonov, B.Ahmedov, K.Shoniyozov, M.Ermatov, X.Doniyorov, A.Asqarov, X.Toshev kabi mahalliy olimlarning o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi bo'yicha bir qator fundamental monografiya va ilmiy maqolalari nashr etildi[36]. Shu bilan birgalikda yana bir qator tadqiqotchilarning ishlarida voha toponimikasiga u yoki bu darajada to'xtalib o'tilgani ko'zga tashlanadi[37].

**Xulosa va takliflar.** Sovetlar davrida olib borilgan tadqiqotlarning mazmun va mohiyati bilan qisqacha tanishib chiqish shundan darak beradiki, ilmiy izlanishlarda asosiy e'tibor mamlakatimizdagi, shu jumladan, Jizzax vohasidagi joy nomlarini yozma manbalar, etnografik va arxeologik tadqiqotlar asosida tahlil etilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Соболев Л.Н. Географическая и статистическая сведения о Зеравшанском округе с приложением списка населенных мест округа // Зап. Рус. геогр. общ.-ва. Отд. Статистики. Т. IV. – СПб., 1874. – 561 с.;
2. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 1-2. - СПб., 1911. - 340. 354 сс.;

3. Гребенкин А.Д. Таджики // Узбеки Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу политехнической выставки. Вып.2. – М., 1872. – С.1–3;
4. Макшеев А.И. «Географические, этнографические и статистические материалы о Туркестанском крае» - книга автора Макшеев А.И., 60 с. Издано: (1871).
5. Арандаренко Г. Скотоводство в Зарафшанской долине // Туркестанские ведомости. 1881. № 8.
6. Хорошкин А.П. “Кызылкумский дневник” В КН. Хорошкин А.П. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СПб, 1876, с 398-402;
7. Ростиславов М.Н. Очерк видов земельной собственности и поземельный вопрос в Туркестанском крае. – СПб., 1876. – 335 с.;
8. Колоколцов Д.Г. Экспедиция в Хиву в 1873 году: от Джизака до Хивы. (Походный дневник). - Санкт-Петербург, 1873. – С.383.
9. Снесарев А.Е. Индия как главный фактор в среднеазиатском вопросе. СПб., 1906. -183 е.;
10. Соболев Л.Н. Географическая и статистическая сведения о Зеравшанском округе с приложением списка населенных мест округа // Зап. Рус. геогр. общ-ва. Отд. Статистики. Т. IV. – СПб., 1874. – 561 с.;
11. Радлов В.В. Из Сибири. Страницы дневника. – М.: 1989. – С. 532-578.
12. Алманов Қ. Ғарбий турк ҳоконлиги даврида Уструшона. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати 2021 21-22 б
13. Алманов Қ.О. Илк ўрта асрлар Уструшона тарихининг ўрганилиши //Қадимий Жиззах воҳаси – тарих, маданият тараққиёт ва замонавий ўзгаришлар чорраҳасида”маърузисидаги республика илмий-амалий конференцияси -Жиззах 2021 –Б. 124-128
14. Бартольд В. В. Статьи из “Энциклопедии Ислама” / Сочинения. Т. II. Ч. 2. – М.: Наука, 1964. – С. 497. Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – М.: Наука, 1966;
15. Негматов Н.Н.Уструшана в борьбе с арабскимнашествием (конец VII - первая половина IXвв). // ИАН Тадж. ССР. ООН. Вып.5. 1954;
16. Бартольд В. В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии // Сочинения. Т. II. Ч. 2– М.: Наука, 1964. – С. 19–194;Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – М.: Наука, 1966; Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи историей кварталов). – М., Наука, 1976; Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва: Наука, 1976.
17. Бартольд В. В. Статьи из “Энциклопедии Ислама” / Сочинения. Т. II. Ч. 2. – М.: Наука, 1964. – С. 497.
18. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Сочинения. I. – М.: Наука, 1963. – С. 174.
19. Бобоёров Ф. Мовароуннахрдаги Қорахонийлардан олдинги туркий топонимлар ...
20. Ўша асар...
21. Негматов Н.Н. Уструшана в VII – X вв. (по письменных и археологических источников). Автореф. дисс. канд. ист. наук. – М.-Л., 1952;
22. Аюбов А.Р.История сложения и трансформации топонимов Уструшаны эпохи древности и средневековья. Научная библиотека диссертаций и авторефератов disser Cat <http://www.dissercat.com/content/istoriya-slozheniya-i-transformatsii-toponimov-st+rushany-epokhi-drevnosti-i-srednevekovyaxixzz5SICM8PM7>.
23. Аминов Г.А. Джизако-Чиназская Голодная степь и памятники бывшей в ней оседлости // Голодная степь,1867-1917: История края в документах. – Москва, 1981. – С. 6.
24. Библиографию о нуратинских туркменах см.: В. Г. М о ш к о в а , Некоторые общие элементы в родоплеменном составе узбеков, каракалпаков и туркмен. «Материалы по археологии и этнографии Узбекистана», Труды Ин-та истории и археологии АН УзССР, т. II, Ташкент, 1950, стр. 135—158.
25. Зарубин И.И. Население Самаркандской области, его численность, этнографический состав и территориальное распределение (с этнографической картой). – Ленинград, 1926. – С.12.
26. Mirzaeva N.J.XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Mirzacho'l vohasida rus qishloqlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Tarix.fan.nom.diss.avtoref.T.2011.
27. Хромов А.Л. Очерки топонимии и микропонимии Таджикистана. Вып. 1. Душанбе:Ирфон, 1975; Хромов А.Л. Тюркские названия в микропонимии Ягноба // Известия АН ТаджССР.ООН. Душанбе, 1967, № 3 (49). С. 78-81.
28. Хромов А.Л. Тюркские названия в микропонимии Ягноба // Известия АН ТаджССР.ООН. Душанбе, 1967, № 3 (49). С. 78-81.
29. Смирнова О. И. Очерки из истории Согда. – М.: Наука, 1970;
30. Алманов Қ.Ғарбий турк ҳоконлиги даврида Уструшона тарих фанлари фалсафа доктори даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати Қ.2021 21-22 б
31. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва: Наука, 1976.
32. Дониёров Х. Ўзбек халқи шажара ва шевалари. – Т.: Фан, 1968; Ўша муалл. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалекти. – Т., 1976;
33. Благова Г.А., Х.Д.Данияров «говоры Тюрков» Узбекистана в их отношениях к языку староузбекской литературы В настоящей статье использованы отдельные положения нашего доклада, прочитанного на V региональном совещании по вопросам диалектологии тюркских языков (Баку, октябрь 1965 г)Академия наук СССР институт языказнания вопросы языказнания год издания XV.М.1966.
34. Мухаммеджанов А. История орошения Бухарского оазиса (с древнейших времен до начала XX в. – Т., 1978.
35. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - начало XXв.) / Материалы к историческойгеографии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. –Т.: Университет, 2001.
36. Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965;
37. Алманов Қ. XIX аср охири - XX аср бошларида Самарқанд вилояти Жиззах уездининг демографик манзараси <https://science.nuu.uz/O'zbekiston-Milliy-universiteti-xabarлари>, 2022, [1/6] ISSN 2181-7324



UDK: 94:334.73(575.121)

*Gulchexra DADAMIRZAYEVA,*  
*Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD*  
*E-mail: gulichexrad@gmail.com*

*Tarix fanlar nomzodi, dotsent A.Erqa'ziyev taqrizi asosida*

## FORMATION OF COOPERATIONS IN THE CONDITIONS OF THE CONSTRUCTION OF THE SOVIET STATE

Annotation

This article analyzes the significance, as well as the historical experience of studying the formation and activities of cooperatives that operated in Soviet times in the context of the growing role of cooperatives in the economies of countries with developing market relations. It is analyzed that socialist transformations in the handicraft industry could not be carried out by the same methods as in the factory industry, that cooperation became one of the main forms of management in the Soviet state in the 20s of the XX century, that the cooperative movement played a special role in agriculture, that when transferring artisans to socialist construction, they used separate forms of management, i.e. the voluntary way of cooperation.

**Key words:** Cooperative, cooperative, artel, production, producers cooperative, consumer goods, policy of "war communism", new economic policy, cooperation, producers cooperation.

## СТАНОВЛЕНИЕ КООПЕРАЦИИ В УСЛОВИЯХ СТРОИТЕЛЬСТВА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА

Аннотация

В данной статье анализируется значимость, а также исторический опыт исследования становления и деятельности кооперативов, действовавших в советское время в условиях растущей роли кооперативов в экономике стран с развивающимися рыночными отношениями. Анализируется, что социалистические преобразования в ремесленной промышленности не могли осуществляться теми же методами, что и в фабрично-заводской промышленности, что кооперация стала одной из основных форм хозяйствования в советском государстве в 20-е годы XX века, что кооперативное движение играло особую роль в сельском хозяйстве, что при переводе ремесленников в социалистическое строительство использовались отдельные формы хозяйствования, т. е. добровольный путь кооперации.

**Ключевые слова:** Кооператив, кооперация, артель, производство, промысловый кооператив, товары широкого потребления, политика «военного коммунизма», новая экономическая политика, кооперация, промысловая кооперация.

## SOVET DAVLATI QURILISHI SHAROITIDA KOOPERATSIYALARNING SHAKLLANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada bozor munosabatlari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida kooperativlarning o'rni o'sib borayotganligi sharoitida Sovet davrida faoliyat olib borgan kooperativlarning shakllanishi va faoliyati tadqiq etishning ahamiyati hamda tarixiy tajribasi tahlil qilingan. Hunarmandchilik sanoatida sotsialistik o'zgarishlarni zavod va fabrika sanoatidagi kabi usullar orqali amalga oshirib bo'lmaganligi, XX asrning 20-yillarida sovet davlatida kooperatsiya asosiy xo'jalik shakllaridan biriga aylangani, kooperativ harakatning qishloq xo'jaligida o'ziga xos o'rni bo'lib, hunarmandlarni sotsialistik qurilishga o'tkazishda xo'jalik yuritishning alohida shakllari, ya'ni ko'ngilli ravishda kooperativlashtirish yo'lidan foydalanilganligi tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Kooperativ, kooperatsiya, artel, ishlab chiqarish, hunarmandchilik kooperativi, keng iste'mol mollari, «Harbiy kommunizm» siyosati, Yangi iqtisodiy siyosat, kooperativlashtirish, hunarmandchilik kooperatsiyasi.

**Kirish.** Bugungi globallashuv asrida iqtisodiy integratsiyalashuv mamlakatlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini tarixiy tajriba va ijtimoiy resurslar hisobiga kengaytirishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda dunyo aholisini 12 foizini qamrab olgan iqtisodiyotning uchinchi sektori hisoblangan kooperativ harakatlar muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Kooperativlarda mehnatni rag'batlantirish pirovard ish natijalariga bog'liq bo'lib, ular o'zini-o'zi moliyalashtiradi. Shuning uchun 2016 yilda YuNESKO «Kooperativlarda umumiy manfaatlarni tashkil etish g'oyasi va amaliyoti»ni Insoniyat nomoddiy madaniy merosining ro'yxatiga kiritdi[1]. Bu esa bozor munosabatlari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida kooperativlarning o'rni o'sib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Sovet davrida faoliyat olib borgan kooperativlarning aniq maqsad va vazifalari, mustaqil matbuot organi hamda boshqaruv tizimiga ega bo'lganligi, o'z a'zolarining moddiy ahvolini yaxshilash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish kabi muammolarni hal qilishdagi ahamiyatining o'rganilishi aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya muammolarini hal qilishga yordam berish hamda jamiyatda o'rta qatlarni shakllantirishning ilmiy nazariy asoslarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Shu o'rinda qayd etish kerakki, XX asrning 70-yillarigacha ishlab chiqarish kooperativlari faoliyati tarixchilar tomonidan alohida ob'ekt

sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da, iqtisodchilar tomonidan ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlarda hunarmandchilik kooperatsiyasi ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy tuzilishi, ularning iqtisodiy ahvoli va xom-ashyo ta'minoti kabi masalalar yoritilgan. Mazkur jarayonda tadqiqotchilar tomonidan o'rganilayotgan davrda ko'plab iqtisodiy reja ko'rsatkichlari tahlil qilindi[2], shuningdek, keng iste'mol mollari ishlab chiqarishda hunarmandchilik kooperativlarining rolini oshirib borish zaruriyati ko'rsatib berildi[3]. Umuman olganda ushbu izlanishlarda masalalar hukmron tuzum nuqtai nazaridan tadqiq qilinib, kooperativ ishlab chiqarishga yirik davlat ishlab chiqarishining yordamchisi sifatida qaralgan edi.

Tarixchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda[5] sovet davlatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, kooperatsiyaning turli shakllari, xunarmandchilikning ahvoli, qishloq xo'jaligini kooperativlashtirish kabi masalalar ochib berilgan. Masalan, S.Karimovning nomzodlik dissertatsiyasida[6] asosan ishlab chiqarish artellari faoliyati yoritilgan bo'lib, unda sovet davrining dastlabki yillarida shahar va qishloqlarning proletar bo'lmagan qatlami, shu jumladan, kosib va hunarmandlarni xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotini kooperativlashtirish orqali ularni sotsialistik jamiyatning faol quruvchilariga aylantirilishida kommunistik partiya va O'zbekiston hukumatining tajribasini o'rganish hamda ularni umumlashtirish maqsad qilib qo'yilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sovet davlatining ishlab chiqarish artellari va kooperatsiyalariga bo'lgan munosabati, artellarning iqtisodiy taraqqiyotga qo'shgan hissasi hamda ishlab chiqarish kooperativlarining aholini keng iste'mol mollari bilan ta'minlash va xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyati tarixiylik va xolislik tamoyillari hamda tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, tizimli tahlil kabi usullar yordamida yoritib berilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ishlab chiqarish kooperativlari Yevropa ishchilari tomonidan XIX asrning o'rtalarida tuzila boshlagan. Turkiston o'lkasidagi dastlabki kooperatsiyalar esa xo'jalik yuritish shakli sifatida matlubot va kredit kooperatsiyalari bo'lib, XX asr boshlarida vujudga kelgan edi. Turkiston mahalliy aholisi o'rtasida eng keng tarqalgani kredit kooperatsiyasi bo'lib, o'zida jamiyatning turli qatlamlarini birlashtirgan edi. Garchi, dastlabki shirkat rasman 1907 yil 6 mayda Qo'qonda o'z faoliyatini boshlagan bo'lsa-da, kooperativ harakatning ommaviy boshlanishi 1909 yilga to'g'ri keladi. Xuddi shu yili rasman ro'yxatdan o'tgan shirkatlar soni 10 taga yetdi. Matlubot kooperatsiyasi Rossiyaning Yevropa qismidan Turkistonga ko'chib kelgan shahar amaldorlari, ofitserlar va o'rta qatlam vakillari hamda Yettisuv dehqonlari orasida keng tarqalib, ushbu turdagi matlubot shirkatlarini asosiy maqsadi ehtiyoj mollari ulgurji narxlarda sotib olib, o'z a'zolariga imkon qadar arzon narxlarda sotish bo'lgan[7].

1917 yil Oktyabr to'ntarishidan keyin sovet hukumati matlubot kooperatsiyasidan davlat kapitalizmi shakllaridan biri sifatida foydalanish zaruratini inobatga olib, 1918 yil bahorda Matlubot kooperatsiyasi rahbariyati bilan kelishuvga erishgan edi. Ayniqsa, yangi iqtisodiy siyosatga o'tish davrida Matlubot kooperatsiyasi sezilarli darajada rivojlandi. Turkistonda yirik zavod-fabrika ishlab chiqarishining nisbatan yaxshi rivojlanmaganligi aholining keng iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini kosibchilik ishlab chiqarishi tomonidan qondirilishiga imkoniyat yaratgan. 1917 yilga kelib Turkiston o'lkasida aynan ushbu sohada 108 mingdan ortiq kishi, ya'ni ishlab chiqarishda band aholining 80 foizi mehnat qilgan[8].

O'lkada sovet hokimiyati o'rnatilganidan so'ng, kooperativning barcha turlarini rivojlantirish va undan sotsialistik qurilishda keng foydalanish g'oyasi ilgari surildi. 1919 yil martda «harbiy kommunizm» siyosati va talablariga asosan, Markaziy uyushma (Tsentrsoyuz[9]) qayta tashkil etildi[10]. 1918 yil sentyabrda bo'lib o'tgan kooperativlar va matlubot jamiyatlarining o'lka s'ezdi «Turkiston Respublikasida kooperativ tashkilotlari huquqlarini kengaytirish to'g'risida» qabul qilgan rezolyutsiyasida o'z faoliyatini iqtisodiy masalalarga qaratib, yangi hukumatga to'liq sodiqligini ko'rsatgan edi[11]. Shu o'rinda qayd etish kerakki, proletariat diktaturasi sharoitida mehnatkashlar tashkilotining kooperativ shakli g'olib kuchlar qo'lida keng xalq ommasini sotsialistik qurilishga jalb etishning mustahkam quroli bo'lgan edi. Xususan, o'sha davrdagi «Bizda haqiqatan ham davlat hokimiyati ishchi sinfining qo'lida ekan, bu hukumatga barcha ishlab chiqarish vositalari tegishli ekan, bizda faqat aholini kooperativlashtirish masalasi qoldi xolos»[12] - degan tamoyil asosida Turkiston o'lkasidagi mayda ishlab chiqaruvchi kosib va hunarmandlarning ham keyingi taqdiri hal etilgan.

«Harbiy kommunizm» siyosati o'z mohiyatiga ko'ra faqat yirik sanoatnigina emas, balki o'rta korxonalar va hatto mayda korxonalarni ham davlat qo'lida umumlashtirishni taqozo qilardi[13]. Shuni ta'kidlash kerakki, hunarmandchilik sanoatida sotsialistik o'zgarishlarni zavod va fabrika sanoatidagi kabi usullar orqali amalga oshirib bo'lmagan. Turkiston iqtisodiyotining ushbu tarmog'i o'lkadagi ishlab chiqarish ob'ektlarining 90 foizini tashkil etib, u barcha sanoat mahsulotlarining ¼ qismini ishlab chiqargan.

Bu davrda hunarmandlar o'lkaning nafaqat xo'jalik, shu bilan birga ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muhim rol o'ynagan. Hunarmandlarning o'lka ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini hisobga olgan holda hamda uning keng iste'mol mollari, mudofaa mahsulotlari tayyorlashda sanoatning mayda tovar ishlab chiqarish sektoriga bo'lgan ehtiyojini o'sib borishini inobatga olib, hukumat hunarmandchilik ishlab chiqarishini milliyalashtirishdan butunlay voz kechmagan. Bu paytga kelib asosiy e'tibor mayda

ishlab chiqarishni davlat tomonidan boshqarilishini kuchaytirishga qaratilgan edi.

Ma'lumki, 1918 yil iyuldayoq Turkiston Respublikasi Sanoat xalq komissarligida hunarmandchilik ishlab chiqarish bo'limi, 1919 yil yoziga kelib esa Turkiston Respublikasi Xalq xo'jaligi kengashida maxsus hunarmandchilik kooperativ bo'limi tashkil etilgan edi. Uning rahbarligida 1919 yilning kuziga kelib 33 ming, ya'ni o'lkadagi hunarmandlarning ¼ qismi davlat buyurtmalarini bajargan[14]. Ushbu raqamlarga tayanib, Turkiston hunarmandlari orasida kooperativ harakatning o'sishidagi yana bir muhim omil sifatida «harbiy kommunizm» siyosati davridagi mavjud boshqaruv tizimining ta'sirini ko'rsatish mumkin.

XX asrning 20-yillarida sovet davlatida kooperatsiya asosiy xo'jalik shakllaridan biriga aylandi. Yangi iqtisodiy siyosatdan keyingi davrlarda kooperativ siyosat asosan qishloq xo'jaligiga qaratilgan bo'lsa-da, aynan 1918 – 1920 yillarda matlubot kooperatsiyasining asosiy faoliyati savdo-sotiq sohasi bilan bog'liq bo'lgani uchun ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynagan edi. Shu bilan birga, 1919 yil 20 martdagi dekretga binoan, Matlubot kooperatsiyasining barcha tizimi aholi o'rtasida oziq-ovqatning rejali taqsimotini amalga oshiradigan organga aylangan edi. 1920 yil 20 yanvardagi dekretga asosan, qishloq xo'jaligi va kosib-hunarmandchilik kooperatsiyasi matlubot tizimiga alohida tarmoq sifatida qo'shib yuborildi.

Sovet davlati dastlab oziq-ovqatni taqsimlash vazifasini bajarayotgan matlubot kooperatsiyasiga e'tiborni kuchaytirdi. Ishlab chiqarish kooperatsiyasiga esa boshqacharoq yondashildi. O'sha paytda «kooperatsiya kapitalistik tuzum sharoitida vujudga keldi va kapitalizmni o'sishi bilan u ham rivojlanib bordi. Shu sababli u ham kapitalizm bilan birga barham topadi, kooperatsiya endi o'z umrining so'nggi kunlarini yashashga va xo'jalik yuritishining yagona umumxalq mulkchiligiga asoslangan yangi shakllariga yo'l bo'shatib berishi kerak», - degan fikrlar hukmron edi. Yangi iqtisodiy siyosatning eng muhim o'zgarishlaridan biri bu – kooperativ harakatning faollashuvi edi. Unda kooperativ qurilishi masalasida davlat siyosatining ikkita tendentsiyasi mavjud edi. Bir tomondan, shaxsiy va jamoat manfaatlarini uyg'unlashtirish shakli sifatida kooperatsiyaga mayda tovar xo'jaligini jalb qilish vositasi sifatida qaralgan bo'lsa, boshqa tomondan, uning roli asosan, iqtisodiy maqsadga muvofiq bo'lishiga qaramay, xususiy sektorni kooperativ tuzilmalardan foydalanishga majbur qilishning ijtimoiy vositasiga aylangan edi[17].

Tadqiq etilayotgan yillarda barcha ishlab chiqarish, mulklar va sohalarida milliyalashtirish siyosati amalga oshirilgan bo'lsa-da, lekin, kosib va hunarmandlarni sotsialistik qurilishga o'tkazishda xo'jalik yuritishning alohida shakllari, ya'ni mahsulot ishlab chiqaruvchilarni ko'ngilli ravishda kooperativlashtirish yo'lidan foydalanildi.

Yangi iqtisodiy siyosatning ilk davri (1921 – 1923 yillar)da davlatning tartibga solish va nazorat qilish vazifasi birmuncha bo'shashtirilgani kuzatiladi. Aynan ushbu davrda kooperativ sektorda xo'jalik hisobi munosabatlari, kooperativlarda a'zolikning ixtiyoriyligi hamda o'zini-o'zi boshqarish tamoyillari tiklangan edi. RKP(b) MQning 1921 yil 9 maydagi «Kooperatsiya to'g'risida»gi xatida «kooperatsiyaning siyosiy roli nafaqat millionlab xalq ommasini birlashtirish, shu bilan birga firibgarlik va alohida mayda tovar ishlab chiqaruvchilarning davlatga qarshi anarxistik harakatiga qarshi hisobga olish, nazorat qilish va javobgarlikni ijtimoiy shaklini qarama-qarshi qo'yish bilan kurashish yo'li» ekanligi ko'rsatildi[18]. Shu o'rinda qayd etish kerakki, 1924 yildan 1927 yilgacha kooperativ sektorda ijobiy natijalar kuzatildi. Sababi bu davrda kooperatsiya eng arzon va tejimli ishlaydigan xo'jalik apparati bo'lib qoldi. Kooperatsiya ishlab chiqarishining samaradorligi davlat sanoatining samaradorligidan ikki hissa yuqori bo'lib, bu mehnatning erkinroq tashkil etilishi hamda shaxsiy va jamoat manfaatlarining o'zaro muvofiqligi bilan izohlanar edi[19].

Kooperativ harakatning qishloq xo'jaligida o'ziga xos o'rni bo'lib, dastlabki yillarda Turkiston Avtonom respublikasida kredit kooperatsiyasi ancha kengroq ommalashgan edi. Ushbu kooperatsiyaning shakllaridan biri kredit va ssuda-omonat shirkatlari edi. 1923 yilda ularning soni 275 taga yetgan edi[20].

Umuman olganda, Ittifoq miqyosida hunarmandchilik kooperatsiyasi alohida bir tizim sifatida faoliyat ko'rsatib, u mayda tovar ishlab chiqaruvchilarni hunarmandchilik artellariga birlashtira boshlagan edi. Turkiston Markaziy Ijroiya komitetining 1921 yil 9 iyuldagi dekretiga muvofiq, mehnatkashlarga birgalikda ishlash, o'z a'zolarining mehnatini tashkil etish, xom ashyo bilan ta'minlash hamda o'z mahsulotini sotish uchun hunarmandchilik-kooperativ shirkatlari va artellari tuzish huquqi berilgan[21]. Unda hunarmandchilik kooperativlari korxonalarida va uyda ishlash orqali artel a'zolari o'z mehnatlari bilan ishtirok etishi hamda yollanma ishchilar soni artel a'zolarining 20 foizidan ortiq bo'lmashligi belgilab qo'yilgan. Ishlab chiqarish kooperativlarida boshqaruvning saylanishi va a'zolikni ko'ngilli tarzda ixtiyoriy bo'lishi ta'minlangan.

Hunarmand-kosiblarni kooperativlashtirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida hukumat kooperativlarni kerakli bino va uskunalar bilan ta'minlagan hamda davlat buyurtmalari uchun avans berib, mayda korxonalarini ijaraga bergan. Turkiston hududida dastlab Toshkent shahri va Toshkent uezdida artellar uyushmalari tashkil etilgan bo'lib, ular 1921 yil iyulda o'z faoliyatini boshlagan[22].

1925 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, mazkur uyushma 5 mingga yaqin kosib va hunarmandlarni birlashtirgan bo'lsa, 1945 yilda O'zbekiston hunarmandchilik kooperatsiyasi artellaridagi a'zolar soni 41 566 nafar kishini tashkil etgan. Shahar va qishloqning mayda burjua qatlami, jumladan, kosib va hunarmandlarni sotsialistik qurilishga jalb etish dastlabki ikkita besh yillikning eng muhim muammolaridan biri bo'lgan. Lekin, aslini olganda kooperativlashtirilayotgan mayda mulkdor va ishlab chiqaruvchilar o'z mulklari bilan birga sotsializm qurilishining ishchilariga aylantirilgan. Oqibatda mulkka egalik hissining sekin-astalik bilan kamayib borishi, har bir jarayonga davlatning keskin aralashuvi, ishlab chiqarish natijalaridan manfaatdorlikning so'nib borishi, hunarmandchilik kooperatsiyasining keyingi taraqqiyotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Bu davrda O'zbekiston xalq xo'jaligiga doir rejalarni bajarishda hunarmandchilik kooperatsiyasi sanoat quyi tizimining tizimini bo'lib xizmat qilgan edi. O'zbekiston hunarmandchilik

uyushmasining ma'lumotlariga ko'ra, 1926/1927 xo'jalik yilida 17 415 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1928 yilning oktyabr oyiga kelganda ushbu ko'rsatkich 30 729 mingga yetgan. Keyingi yillarda bu ishlar yanada jadallashtirilib, jumladan, 1928 – 1931 yillarda hunarmandchilik kooperatsiyasi artellariga 20 ming nafardan ortiq hunarmandlar qo'shilib, natijada hunarmandlarni kooperativlashtirish 18 foizdan 34,3 foizga yetkazildi. Endilikda bu sohani nazorat qilish uchun O'zbekiston SSR XKSning qaroriga asosan (1938 yili) O'zbekiston hunarmandchilik kooperatsiyasi Soveti tashkil etildi[23]. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, tashkil etilganidan to tugatilgunga qadar hunarmandchilik kooperatsiyasi ishlab chiqarish kooperativ uyushmalariga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi markaz vazifasini bajargan.

Kommunal xizmat ko'rsatish sohasi, savdo, turar-joy va kapital qurilish hamda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bevosita ularning faoliyatiga bog'liq edi. Lekin O'zbekistonning asosan paxta tolasi, xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi keng iste'mol mollari ishlab chiqarishni oxirgi o'ringa siqib chiqargan[24]. Oqibatda hukmron mafkura tomonidan hunarmandchilik tarmog'i sekin-astalik bilan mulkchilikning davlat shakliga singdirilgan va o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotib borgan.

**Xulosa va takliflar.** Sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonda ham kooperatsiyaning turli shakllari faoliyat ko'rsatdi. Lekin, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida ayrim kooperatsiyalar faoliyati tugatildi hamda faqat matlubot va qishloq xo'jaligi kooperatsiyalari partiya-davlat apparati ta'sirida o'z faoliyatini davom ettirdi. Har bir masalaga sinfiy nuqtai-nazardan yondashish, partiyaning yakka hukmronligi, xo'jalik yuritish mexanizmlarining iqtisodiy qonunlar emas, balki davlat rejaları va nazoratida bo'lishi kooperativ harakatning keng tarqalishi hamda rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. O'rganilayotgan davrda kooperatsiyaning keng tarqalgan shakllaridan biri nogironlar kooperatsiyasi bo'lib, aynan mehnatga jalb qilishning kooperativ shakli nogironlar uchun qulayligi va jamiyat uchun foydali bo'lganligi, daromad topishning eng maqbul yo'li ekanligini nazarda tutgan sovet hukumati nogironlarni kooperativlashtirish siyosatiga alohida e'tibor qaratdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Idea and practice of organizing shared interests in cooperatives. <https://ich.unesco.org/en/RL/idea-and-practice-of-organizing-shared-interests-in-cooperatives-01200>
2. Цыпкина М. А. Сырьевая база промкооперации Узбекистана. Дисс. ... канд. эконом. наук. – Ташкент, 1948.
3. Цыпкина М. А. Развитие промысловой кооперации Узбекистана. Дисс. ... канд. эконом. наук. – Ташкент, 1953.
4. Евенко И.А. Кооперативная промышленность СССР и ее роль в производстве товаров народного потребления. – Москва, 1954; Киселев А.И. Трудовые права членов артелей промысловой кооперации. – Москва, 1955; Кадников И.А. Финансирование и кредитование организации промысловой кооперации. – Москва: Всесоюзное кооперативное издательство, 1958;
5. Ибрагимов А.Ю. Осуществление ленинского кооперативного плана (1927 – 1939 гг). Автореф. Дисс. ... док. ист. наук. – Ташкент, 1971; Тураев Х. Развитие потребительской кооперации Узбекистана в период строительства коммунистического общества (1959 – 1970 гг). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1974.
6. Каримов С. История кооперирования трудовых кустарей и ремесленников в период строительства социализма в Узбекистане. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1979.
7. Мирзаев Ж. Развитие кооперативной формы хозяйствования... – С. 35–51.
8. Цыпкина М. А. Развитие промысловой кооперации Узбекистана... – С. 29.
9. Центросоюз – Центральный союз потребительских обществ СССР. [https://abbr\\_rus.academic.ru/23973/Центросоюз](https://abbr_rus.academic.ru/23973/Центросоюз)
10. Большая советская энциклопедия. Т. 34. – Москва, 1937. – С. 211. Маълумот учун қайд этиш керакки, 1916 йилдан Туркистонда фаолият кўрсатган Москва матлубот жамияти уюшмаси 1917 йил май ойида Марказий уюшма деб қайта номланган эди.
11. Мирзаев Ж. Развитие кооперативной формы хозяйствования... – С. 54–56.
12. В.И.Ленин. О кооперации. Соч. т. 27. 3 изд. – Ленинград: Москва, 1930. – С. 405.
13. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. Масьул муҳаррирлар: Абдуллаев Р., Рахимов М., Ражабов Қ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 247.
14. Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости. / Коллектив авт.: Р.М.Абдуллаев, С.С.Агзамходжаев, И.А.Алимов и др. – Ташкент: Шарк, 2000. – С. 256–257.
15. Минбаев Б. Кооперация: ўтмишда ва hozir. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – Б. 8.



UDK: 94:323(575.146)

Zuxriddin JUNAYEV,  
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD  
E-mail: junayev\_zuhriddin@mail.ru

NavDPI dotsenti, PhD M.Raxmatov taqrizi asosida

## ACTIVITY OF POLITICAL AND PUBLIC ORGANIZATIONS IN THE BUKHARA PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC

Annotation

This article examines the organizational structure, objectives, and activities of political and public organizations in the Bukhara People's Soviet Republic (BPSR), which was established in 1920-1924 following the overthrow of the Emirate in Bukhara. The study relies on primary sources such as archival materials, periodicals, and scholarly literature. The article analyzes the impact of these organizations on socio-political life in the BPSR and draws conclusions based on the findings.

**Key words:** Young Bukharians Party, All-Bukhara Revolutionary Committee, Bukhara Communist Party (BKP), People's Commissariat Council, BSSR Constitution, Komsomol, trade unions, Young Pioneers movement, Russification and Sovietization, women's organizations, revolution, congress, "Qoshchi" association.

## ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПОЛИТИЧЕСКИХ И ОБЩЕСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В БУХАРСКОЙ НАРОДНОЙ СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ

Аннотация

В данной статье на основе первичных источников – архивных материалов, периодических изданий, научной литературы – освещается организационная структура, цели и деятельность политических и общественных организаций Бухарской Народной Советской Республики (БНСР), функционировавшей в 1920-1924 гг. после свержения эмирата в Бухаре. Также анализируется влияние этих организаций на социально-политическую жизнь, делаются выводы.

**Ключевые слова:** Партия молодых бухарцев, Всебухарский революционный комитет, Коммунистическая партия Бухары (КПБ), Совет народных инспекторов, Конституция БНСР, комсомол, профсоюзы, движение юных пионеров, русификация и советизация, женские организации, революция, съезд, объединение «Кушчи».

## БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ RESPUBLIKASIDA SIYOSIY VA JAMOAT TASHKILOTLARINING FAOLIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoroda amirlik tuzumi ag'darilishi oqibatida tashkil topib, 1920 – 1924-yillarda faoliyat yuritgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR)dagi siyosiy va jamoat tashkilotlarining tashkiliy tuzilmasi, maqsadlari, faoliyati birlamchi manbalar – arxiv materiallari, davriy nashrlar, ilmiy adabiyotlar asosida yoritiladi. Shuningdek, ushbu tashkilotlarning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri tahlil qilinib, xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yosh buxoroliklar partiyasi, Butunbuxoro inqilobiy qo'mitasi, Buxoro Kommunistik partiyasi (BKP), Xalq Nozirlar Sho'rosi, BXSR Konstitutsiyasi, komsomol, kasaba uyushmalari, Yosh izchilar harakati, ruslashtirish va sovetlashtirish, xotin-qizlar tashkilotlari, inqilob, s'yezd, "Qo'shchi" uyushmasi.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida tarixiy jarayonlarni xolis va haqqoniy yoritish uchun qulay sharoit yuzaga keldi. Mustabid sovet tuzumining yemirilishi, milliy ma'naviyatning tiklanishi natijasida O'zbekiston tarixining ajralmas qismi bo'lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tarixini yoritishda sinfiy va partiyaviy yondashuvlar inkor qilinib, muammoni faqat ilmiy asosda chuqur o'rganishga kirishildi. Darhaqiqat, 1920-yilda tashkil etilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Markaziy Osiyodagi mustaqil davlat bo'lib, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, xususan, sovetlar tuzumiga o'tish, yangi jamiyat qurishga qaratilgan keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdi. Bu jarayonda siyosiy va jamoat tashkilotlari muhim rol o'ynadi. Maqolada BXSRda faoliyat ko'rsatgan siyosiy va jamoat tashkilotlarining tashkiliy tuzilmasi, maqsadlari, faoliyati va ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzuda yozilgan tarixiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ularni metodologik yondashuv va ilmiy xususiyatga ko'ra uchta asosiy guruh: birinchi guruh – sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar bo'lib, bularga O.Eshonov[1], L.K.Sheh[2], A.Gordiyenko[3], M.Vahobov[4], A.A'zamxo'jayev[5] kabi ko'plab mualliflarning asarlarini keltirish mumkin. Ammo ushbu guruhga xos adabiyotlarning umumiy xususiyati shundan iboratki, ularda xolislik tamoyillari buzilgan, sinfiy yondashuv ustunlik qilgan, tarix kommunistik mafkuraning avvaldan belgilangan va qotib qolgan ma'lum bir qolipi asosida yozilgan hamda birlamchi manbalar ushbu g'arazli maqsadga xizmat qildirilgan. Shu boisdan BXSRdagi siyosiy va jamoat tashkilotlarining ayrim

jihatlari to'g'risida sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar bugungi kun talablariga javob bera olmaydi. Ikkinchi guruh – O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng R.Radjapova[3], F.Qosimov[7], U.Rashidov[8], M.Jo'rayev[9]ning ilmiy muharrirligida nashr etilgan kitoblar, R.Abdullayev va boshqalar[10], Q.Rajabov[11]larning tarixiy tadqiqotlarini ta'kidlash o'rinlidir. Uchinchi guruh esa – xorijiy tadqiqotlar hisoblanib, ular sirasiga Ahmad Zaki Validiy To'g'on[12], Boymirza Hayit[13], Adib Halid[14], Temur Xo'ja o'g'li[15] asarlarini keltirish mumkin. Biroq bu tadqiqotlarda BXSRda siyosiy va jamoat tashkilotlarning faoliyati jiddiy tadqiq etilmagan. Muammoning bu jihatlari ushbu mavzuning alohida tadqiqot ob'yekti sifatida tanlab olinishiga imkon yaratdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, haqqoniylik va xolislik kabi metod va tamoyillari asosida yoritilib, unda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topganidan so'ng, yangi va yosh respublikadagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, xususan, sovetlar tuzumiga o'tish, yangi jamiyat qurishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganligi, bu jarayonda siyosiy va jamoat tashkilotlarining muhim roli, ularning tashkiliy tuzilmasi, maqsadlari, faoliyati keng yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Buxoroda XX asr boshlarida asosiy siyosiy kuch mahalliy taraqqiyparvarlarning Yosh buxoroliklar partiyasi bo'lgan. Bu holat tarixiy tadqiqotlar va zamonaviy adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlangan. Yosh buxorolik jadidlar Buxoroda amirlik hokimiyatiga qarshi murosasiz kurash olib bordilar. Buxorodagi jadidchilik harakati hamda Yosh

buxoroliklar partiyasiga turli davrlarda ko'plab shaxslar rahbarlik qildilar. Fitrat, Usmon Xo'ja, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Muhiddin Mansurov, Abdulqodir Muhitdinov singari Yosh buxoroliklarning siyosiy yetakchilari qatorida mashhur davlat arbobi Fayzulla Xo'jayevning o'ziga xos o'rni bor. 1917 – 1920-yillarda Buxoro siyosiy maydonida boshqa bir kuch – so'l eserlar hamda Buxoro Kommunistik partiyasi ham paydo bo'lgan edi.

Qizil armiya tomonidan amirlik hokimiyati bosib olingandan keyin hokimiyat Butunbuxoro Muvaqqat inqilobiy qo'mitasi ixtiyoriga o'tgan edi. 1920-yil 11-sentyabrda Yosh buxoroliklar partiyasi tarqatib yuborildi, uning ko'pchilik a'zolari Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi Buxoro Kommunistik partiyasi saflariga qabul qilindi. 1920-yil 14-sentyabrda bo'lgan Butunbuxoro Muvaqqat inqilobiy qo'mitasi, Xalq Nozirlar Sho'rosi hamda Buxoro Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining qo'shma yig'ilishida Abdulqodir Muhitdinov boshchiligidagi Butunbuxoro Markaziy Inqilobiy Qo'mitasi (qonun chiqaruvchi oliy organ) va Fayzulla Xo'jayev raisligida Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi (ijro qiluvchi yuqori organ) tashkil qilindi[16]. 1920-yil 6 – 8-oktyabrda Buxoro amirining sobiq yozgi saroyi – Sitorai Moxi Xosada bo'lgan Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil qilinganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. Unda Butunbuxoro Markaziy Inqilobiy Qo'mitasi hamda BXS R Xalq Nozirlar Sho'rosining tarkibi uzil-kesil va qat'iy shakllantirildi[17].

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilishi arafasida va undan keyin ham Buxoro Kommunistik partiyasining “eski” kommunistlardan iborat bir guruh rahbariyati mamlakatda darhol “revolyusiyani chuqurlashtirish” hamda demokratik islohotlarni zudlik bilan to'xtatib, o'rniga “sotsialistik o'zgartirishlar”ni joriy qilish iddaosi bilan maydonga chiqishdi. Buxoro Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1920-yil 1-oktyabrda bo'lgan kengaytirilgan majlisida partiyaning rahbari Najib Husainov va uning faol tarafdorlari Olimjon Akchurin, Hasan Aliyev, I.Axmedov, Mirzo Bahrom va boshqalar bunday qaltis fikrlar bilan maydonga chiqishdi[18]. “So'l” kommunistlarning bunday zararli va xato qarashlarini Fayzulla Xo'jayev hamda Markaziy Komitet a'zosi bo'lgan sobiq Yosh buxoroliklar qattiq tanqid qilishdi.

1921-yil 18-23-sentyabrda bo'lgan Butunbuxoro xalq vakillarining II qurultoyida BXS R Konstitutsiyasi, Bayrog'i va Gerbi qabul qilingan edi. “Buxoro Sho'rolar Jumhuriyatining Qonuni asosiy (Konstitutsiya)” deb nomlangan BXS R Konstitutsiyasi matni o'zbek tilida (arab imlosida) O'zbekiston milliy arxivida saqlanadi[19]. Bugungi kunda BXS R Konstitutsiyasi matni o'zbek krill alifbosida tadqiqotchi O.Rashidov tomonidan e'lon qilingan[20]. Buxoroda keyin o'tkazilgan qurultoylarda ham BXS R Konstitutsiyasi matniga ayrim o'zgartirishlar kiritildi.

1921-yil 23-27-fevralda Buxoro shahrida bo'lib o'tgan Buxoro Kompartiyasining I (V) s'yezdida keskin g'oyaviy kurash va to'qnashuvlar qizib ketdi. Buxoro hukumati, xususan, Buxoro Kompartiyasi ichida bu davrda “o'nglar” (Butunbuxoro Markaziy Revkomi raisi Abdulqodir Muhitdinov, uning otasi Mirzo Muhiddin Mansurov, akasi Mirzo Isom Muhitdinov va b.), “so'llar” (Najib Husainov, Olimjon Akchurin, Mirza G'ulom, Hasan Aliyev va b.) hamda “markazchilar” (BXS R Xalq Nozirlar Sho'rosi raisi Fayzulla Xo'jayev, xalq nozirlari Muxtorjon Saidjonov, Muinjon Aminov, Abdurashid Mukomilov, Usmon Xo'ja, Otulla Xo'jayev va b.) o'rtasidagi ichki kurash, Markazning Buxorodagi siyosiy kuchlarga o'tkazayotgan bosimi, siyosiy hokimiyat uchun kurash avj olib ketdi[21]. Xususan, “so'l” kommunistlar Buxoroni yana qonli urush girdobiga tortish, butun-butun tabaqalarni jismoniy mahv etishga chaqirdilar.

Mazkur s'yezdida “so'l” kommunistlar va “o'nglar” qattiq mag'lubiyatga uchrashdi. Buxoro Kompartiyasi Markaziy Komiteti tarkibiga qayta saylovlar natijasida Fayzulla Xo'jayev, Abdulhamid Oripov, Muxtorjon Saidjonov, Hoji Hasan Ibragimov, Qosim Qoriyev, Muinjon Aminov, Sa'dulla Tursunxo'jayev (mas'ul sekretar), Mirbobo Mirmuhsinov, Anna Geldi Amanov, Abdurashid Mukomilov, Otullaxo'ja Po'latxo'jayev va boshqalar a'zo qilib, Muhitdin Maxsumxo'jayev, Usmon Xo'ja Po'latxo'jayev, Mirzag'ulom

Abdurahmonov, Najib Qurbonov, Qulmuhamedov kandidat qilib saylandilar. Buxoro Kompartiyasi Reviziya komissiyasiga Shayx Hasan Aliyev, Shamsutdin Qilichzoda, Sodiq Muxammadiyev va boshqalar a'zo qilib kiritildi.

1921-yil 15 – 20-dekabrda Buxoro Kompartiyasining II (VI) s'yezdi o'tkazildi. Bu s'yezdida Fayzulla Xo'jayev raislik qilgan komissiya ishlab chiqqan Buxoro Kommunistik partiyasining Dasturi qabul qilindi. Buxoro Kompartiyasi Markaziy Komiteti mas'ul sekretari qilib BXS Rning Moskvadagi muxtor vakili Muxtorjon Saidjonov saylandi (u Buxoroga kelguncha bu vazifani vaqtincha bajarib turish Muqum Karimovga yuklatildi) [22]. 1921-yil dekabrda BKP Markaziy Komitetining Sharqiy Buxoro bo'yicha byurosi tashkil qilinib, unga Olimjon Akchurin, Nosir Hakimov va A.Kamolov (barchasi tatarlar) a'zo qilib kiritildi[23].

1922-yil noyabrda Buxoro Kompartiyasining III (VII) s'yezdi bo'lib o'tdi. Bu payt Markaz BXS R hukumatining mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritishiga, mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni to'xtatishga harakat qilardi. Shuning uchun RKP(b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosining 1923-yil 12-iyunda “Buxoro masalasi yuzasidan” qabul qilgan qarorida Buxoro hukumatini sovetlashtirish va BXS Rni ruslashtirish masalalari qo'yildi. Moskva Siyosiy byuroning qarorlarini amalga oshirish uchun Buxoroga RKP(b) Markaziy Komiteti sekretari hamda O'rta Osiyo byurosi a'zosi Ya.Rudzutakni yubordi[24]. U 1923-yil 23-iyunda o'tkazilgan BKP Markaziy Komitetining kengaytirilgan yopiq plenumida keskin ma'ruza qilib, Buxoroda xalq noziri sifatida ishlayotgan Fitrat, Otulla Xo'jayev, Muinjon Aminov, Muxtorjon Saidjonov, Sattor Xo'jayev, Naim Yoqubzoda va boshqa taraqqiyparvarlarni keskin qoraladi hamda ularni BXS R hukumati tarkibidan chiqartirishga muvaffaq bo'ldi[25]. Plenumning o'zida BKP MK sekretari Muxametdinov o'rniga Toshkentdan yuborilgan Abdulla Rahimboyev Buxoro Kompartiyasi MK mas'ul sekretari qilib saylandi[26]. Toshkentdan kelgan turkman kommunisti Qayg'isiz Otaboyev esa Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi raisining birinchi o'rinbosari qilib tayinlandi.

1924-yil 15 – 20-yanvarda bo'lib o'tgan Buxoro Kompartiyasi IV (VIII) s'yezdida 17 nafar a'zo va 6 nafar nomzoddan iborat Markaziy Komitetning yangi tarkibi saylandi. MK tarkibiga A.M.Mavlonbekov, A.N.Pozdnishev, Fayzulla Xo'jayev, Abbas Aliyev, Olimjon Akchurin, Qori Yo'ldosh Po'latov, A.Hakimboyev va boshqalar kiritildi. BKP MK sekretarlari qilib Ahmadbek Mavlonbekov va A.Pozdnishev saylandi[27].

Bu paytda BXS Rda Buxoro Kompartiyasidan keyin turadigan eng ommabop jamoat tashkilotlaridan biri Buxoro kommunistik yoshlar ittifoqi (komsomol) hisoblangan. 1921-yil 12-mayda Buxoro kommunistik yoshlar ittifoqining I s'yezdi bo'lib, unda komsomolga tashkiliy jihatdan asos solindi. Unda Buxoro komsomolining Ustavi va Programmasi qabul qilindi[28]. Bu hujjatlar Rossiya kommunistik yoshlar ittifoqining xuddi shunday hujjatlari asosida tayyorlangan edi. Buxorodagi komsomol yoshlar tashkiloti bolsheviklar siyosatini yuritib, jadidlar va taraqqiyparvarlarga nisbatan dushmanlik munosabatida bo'lgan. Markazning komsomol yoshlarni yagona tashkilotga uyushtirishdan maqsadi sovet davlati va bolsheviklar siyosati aholi o'rtasida barqaror turishini ta'minlash, yoshlar ongiga kommunistik g'oya va mafkurani singdirishdan iborat bo'lgan. Sh.Qilichzoda, S.Shneyderman, Aminov, Fayzullayev, Yunusov, Muqimov, F.Muhitdinov, X.Majidov, Itin va boshqalar Buxoroda dastlabki komsomol tashkilotlarini tuzishgan[29].

Buxoroda inqilobni yanada chuqurlashtirish, respublikada yuz berayotgan chuqur o'zgarish va yangilanish jarayonlarida o'zining faol harakatlari bilan hissa qo'shgan yana bir jamoat tashkiloti – “Yosh izchilar” tashkiloti edi. Bu tashkilot haqida bizdan oldingi tadqiqotlarda ma'lumotlar uchramaydi. “Buxoro axbori” gazetasida aytilganidek: “Izchi” o'zlarining amallariga erishmak uchun har qanday kurashga qo'rqqmasdan, kurashga fidokorlik bilan borg'on kishilarga aytiladur... Yosh izchilar inqilobiy kurash vaqtlarida charchagan aka va otalarig'a yordamg'a tayyor turg'on va o'zlarini kelgusi turmushg'a va kurashga tayyorlag'on ishchi bolaladur. Yosh izchilar – butun bolalardan o'zlariga boshliqlar saylab, dastalar tuzdilar va



ularning oldig'a saflarida bormoqqa tayyorlash boshladilar[30]. Yosh izchilarning Markaziy shtabi Buxoroda Po'latov degan kishi qo'l ostida musulmon bolalaridan "yosh izchilar firqasi" nomi bilan tashkil etilgan.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasida bu paytda kasaba tashkilotlari (profsoyuz)ning faoliyati ham tashkil qilinib, u asta-sekin jonlangan. Kasaba uyushmalariga BXSР kasaba uyushmalarining Markaziy soveti boshchilik qilgan. Uyushmaga asosan hunarmand va kosiblar a'zo bo'lgan. Dehqonlardan 10 000 kishi uyushmaga kirgan bo'lsa, hunarmandlar miqdori 22 000 kishidan iborat bo'lgan[31].

1922-yil 8-oktyabrda kasaba tashkilotlarining I Butunbuxoro qurultoyi Buxoro shahrida bo'lib o'tgan. 1924-yil martda II qurultoyi o'tkazilib, hunarmand va dehqonlar BXSР hukumati faoliyatini ma'qullashgan[32]. Keyinchalik profsoyuzga uyushgan kishilar soni kamaytirilgan. 1924-yil 1-iyulda Buxoro profsoyuzi saflarida 14 027 nafar kishi, jumladan, 6 819 nafar yollanma ishchi, 7 118 nafar yakka hunarmand bo'lgan. Ularning

saflarida 839 nafar ayol bo'lgan, 11 088 nafari esa mahalliy aholi vakillari edi[33].

Buxoro qishloqlarida asosiy rolni dehqonlar o'ynagan. Tuman va kentlarda, yirik qishloqlarda dehqon komitetlari tuzilgan. Keyinchalik ular "Qo'shchi" uyushmasiga aylantirilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, 1920 – 1924-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasida turli davlat, siyosat va jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatgan. Ular o'rtasida davlat va hukumat tashkilotlari bo'lgan BXSР Xalq Nozirlar Sho'rosi va Butunbuxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi alohida ajralib turadi. BXSР hukumati 10 ta xalq nozirligidan iborat bo'lib, har bir nozirlik davlat va xalq hayotidagi muhim bir sohaga rahbarlik qilgan. Biroq Markazdan yuborilgan siyosiy kuchlar, favqulodda va muxtor vakillar turli byuro, komissiya va boshqa organlar orqali BXSР mustaqilligini cheklashga muvaffaq bo'lgan. Bolsheviklar bundan tashqari Buxoro Kommunistik partiyasi, yoshlar ittifoqi (komsomol), kasaba uyushmalari (profsoyuz) va "Qo'shchi" uyushmasi orqali o'z siyosatini yuritishga, Buxoro aholisini sovetlashtirish va ruslashtirishga harakat qilganlar.

#### ADABIYOTLAR

1. Ишанов А.И. Создание Бухарской Народной Советской Республики (1920–1920 гг.). –Ташкент: «Изд. АН УзССР», 1955; Ўша муаллиф: Победа Народной Советской Революции в Бухаре. –Ташкент: «Изд. АН УзССР», 1957; Ўша муаллиф. Бухарская Народная Советская Республика. –Ташкент: «Узбекистан», 1969.
2. Шек Л.К. Победа народной советской революции в Бухаре. –Ташкент: «Госиздат УзССР», 1956.
3. Гордиенко А.А. Создание народно-советское государства и права и их революционно-преобразующая роль в Хорезме и Бухаре. – Т.: Издательство САГУ, 1959.
4. Вахобов М. Ўзбек социалистик миллати. –Тошкент: Ўзбекистон, 1960.
5. Агзамходжаев А. История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик –Москва: «Наука», 1971.
6. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор: Р.Я Раджапова. –Т.: "Шарк", 2000; Р.Я Раджапова. ва б. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 й.). –Т.: "Ўқитувчи", 1994.
7. Касымов Ф. Драма революции и правда истории. –Бухара, 1996; Ўша муаллиф: Бухоро республикаси тарихшунослиги. –Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 1996.
8. Рашидов У. Бухоро Халк Республикаси (1920–1924 йй.). –Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2003.
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий мухаррир М.Жўраев. – Т.: Шарк, 2000.
10. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917–1939 йиллар. Масъул мухаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. –Т.: "O'zbekiston", 2019.
11. Ражабов Қ. Бухоро ва Хоразм Халк Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Масъул мухаррирлар: Д.А. Алимова, Э. В. Ртвеладзе. –Т.: "Шарк", 2001. –Б. 186-187; Ражабов Қ. Бухоро ва Хоразм Халк Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли // Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Масъул мухаррирлар: Д.А. Алимова, Э. В. Ртвеладзе. –Т.: "Шарк", 2001. –Б. 186-187; Ражабов Қ. Ёш хиваликлар // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том.3. –Т.: ЎЗМЭ нашриёти, 2002. –Б. 498-500.
12. Zeki Velidi Togan. Bugunku Turkili (Turkistan) va Yakin tarihi. –Istanbul, 1942–1947.
13. Ваумирза Наёт. Milli Türkistan hüriyet davası. –Ankara: Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı yayınları, 2004.
14. Khalid, Adeb. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. –London: Cornell University Press Ithaca and London, 2015.
15. Туркистанда Yenilik Hareketleri ve Ihtilaller: 1900–1924.Osman Hoca Anisina incelemeler. Hazirlayan: Temur Kocaogli: –Haarlem, 2001.
16. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Б.130.
17. Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган олтинчи нашр. –Тошкент: "O'zbekiston", 2015. –Б. 163-164.
18. Турсунов Х., Макашов А. Образование и деятельность Бухарской коммунистической партии. –С.97-98.
19. Ўзбекистон миллий архиви, 47-фонд, 1-рўйхат, 13-йиғма жилд, 1–14-варақлар.
20. Рашидов О. Файзулла Хўжаев миллий манфаатлар ва сиёсий курашлар майдонида. –Тошкент: "Muharrir", 2021. –Б.174-193.
21. Турсунов Х., Макашов А. Образование и деятельность Бухарской коммунистической партии. –С.97-98.
22. Ўрта Осиё коммунистик ташкilotларининг тарихи. –Б.735
23. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920–1924 й.). –Тошкент: "Маънавият", 2002. –Б.120.
24. Ўзбекистон миллий архиви, 47-фонд, 1-рўйхат, 425-йиғма жилд, 309-варақ.
25. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 й.). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917–1939 йиллар. Масъул мухаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. –Тошкент: "O'zbekiston", 2019. –Б.160.
26. Турсунов Х., Макашов А. Образование и деятельность Бухарской коммунистической партии. –С.184-186.
27. Ўрта Осиё коммунистик ташкilotларининг тарихи. –Б.814-815.
28. "Известия" (Ташкент), 21 мая 1921 г.
29. История Бухарской Народной Советской Республики (1920–1924 гг.). Сборник документов. –С.80-83.
30. "Бухоро ахбори", № 211. 1923 йил 7 октябрь.
31. Ўзбекистон миллий архиви, 48-фонд, 1-рўйхат, 25-йиғма жилд, 17-варақ.
32. История Бухары с древнейших времён до наших дней. –Ташкент: «Фан», 1976. –С.209.
33. «Туркестанская правда» (Ташкент), 18 сентября 1924 г.; История Бухарской Народной Советской Республики (1920–1924 гг.). Сборник документов. –С.414.



UDK:94(575.1):711.4(09)(575.1)

Zafar KARIMOV,  
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail: temurmali154@gmail.com

Urganch innovatsion universiteti dotsenti, t.f.n R.Abdirimov taqrizi asosida

THE DEVELOPMENT OF CULTURAL AND ECONOMIC MICRO-OASES ON THE LEFT BANK OF THE AMU DARYA  
(4TH CENTURY BC - 4TH CENTURY AD) IV BC - IV CENTURIES AD)

Annotation

The article analyzes cultural and economic micro-oases that depict the geographical landscape of the left bank of the Amu Darya.

**Key words:** Khorezm oasis, micro-oases, Charmanyap, Sariqamish, Khazarasp, Tuyamoyun, Yormish, Zamakhshar, Davdon, Xheykanik, Qal'ajiq, Kaparas, Voyangan.

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНО-ХОЗЯЙСТВЕННЫХ МИКРООАЗИСОВ ЛЕВОГО БЕРЕГА АМУДАРЬИ (IV В. ДО Н.Э. - IV В. Н.Э.) IV В. ДО Н.Э. - IV В. Н.Э.).

Аннотация

В статье проанализированы культурно-хозяйственные микрооазисы, характеризующие географическую картину территории левого берега Амударьи.

**Ключевые слова:** Хорезмский оазис, микрооазисы, Чарманьяп, Сарыкамыш, Хазарасп, Туямуюн, Ёрмиш, Замахшар, Давдон, Хейканик, Кальджик, Капарас, Воянган.

AMUDARYO SO'L SOHILI MADANIY-XO'JALIK MIKROVOHALARI RIVOJLANISHI (MIL. AVV IV – MILODIY IV ASRLAR)

Аннотация

Maqolada Amudaryo so'l sohili hududi geografik manzarasini tasvir etgan madaniy-xo'jalik mikrovoahalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm vohasi, mikrovoahalar, Charmanyop, Sariqamish, Xazorasp, Tuyamo'yin, Yormish, Zamaxshar, Davdon, Xeykanik, Qal'ajiq, Kaparas, Voyangan.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyoti davriga qadam qo'yimoqda va bosqichma-bosqich ravishda jadal rivojlanmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar tariximizni o'rganishni ham o'z ichiga oladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "biz haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'sir bo'lmaydi" [1].

Vatanimiz tarixida Amudaryo tabiiy faoliyati natijasida shakllangan va rivojlangan Xorazm vohasi Amudaryo o'ng sohil va so'l sohil hududlariga ajratilgan bo'lib, ularning geografik manzarasidagi farqlanish holatini voha xaritasidan kuzatish qiyin emas. Amudaryo so'l sohil hududi geografik manzarasining cheklanish holati o'ng sohil hududlarida kuzatilmaydi, hududning gidrografik tuzilishi Davdon va Daryoliq irmoqlari, ulardan ikki yon tomon chiqarilgan sug'orilish tarmoqlari geografik kenglik manzarasini namoyon qilgan. Ikkinchi xususiyati temir davri so'ngi bosqichida Amudaryo Toshsoqasidan janubi-g'arbga chiqarilgan sug'orish tarmoqlari boshi, o'rtasi va oxirida qad ko'tarilgan hajmi kichik, o'rtamiyona va miqdoriy jihatidan farqlangan turar-joylar geografik kenglikni namoyon qilgan. Amudaryo o'ng sohili hududiga ulangan tekislik (Katqal'a), balandlikda (Gaurqal'a) yodgorliklari joylashgan bo'lsa, so'l sohilda turar-joylar joylashishi ko'pchilikni tashkil qilgan (Sadvar, Qalajiq, Elxaras, Darg'on, Jigarband, Qushqal'a, Odoytepa). Mazkur maqolada so'l sohil hududi geografik manzarasini hosil qilgan ajdodlarimizning mil. avv IV – milodiy IV asrlarda hayot va ijod uyg'unligi bo'lgan hamda markazlashgan Xorazm davlatining turar-joylarini bunyod qilish ichki siyosatida ustuvor yo'nalishi natijalarini yoritish maqsad qilingan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xorazm vohasi (Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Turkmaniston respublikasi Toshhovuz viloyati, Lebap viloyati)da qadimshunoslarning aholi turar-joylarida olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolarni asos qilib olgan adabiyotlarda

qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar antik davr jamiyatining barcha jabhalari taraqqiyoti mezonini bo'lgan shaharlar, madaniy-xo'jalik mikrovoahalari va ularning markazlari tarixi tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola obyektivlik (reallashtirish), tarixiylik, qiyosiy - mantiqiy tahlil, xronologik izchillik, umumlashtirish, asoslash, arxeologiya, etnografiya, geografiya fanlari natijalaridan foydalanish tamoyillari asosida yoritilgan va O'zbekiston hududida tashkil topgan qadimgi shaharlar, qal'alar, madaniy-xo'jalik mikrovoahalari markazlari to'g'risida muhim ma'lumotlar asosida to'plangan.

**Tahlil va natijalar.** Mil. avv IV – milodiy IV asrlarda Amudaryoning so'l sohil hududida jami 34 ta madaniy xo'jalik mikrovoahasi va ularning markazlari shakllangan bo'lib, ular aholining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy munosabatlarida muhim rol o'ynagan.

Amudaryo so'l sohili sarhadlari madaniy-xo'jalik mikrovoahalari:

1. Sariqamish havzasi Gaurqir madaniy-xo'jalik mikrovoahasi bosh shahri Gaurqal'a-1 [2].
2. Charmanyop sug'orilish inshooti oxiri madaniy-xo'jalik mikrovoahasi bosh shahri Gaurqal'a-2 [3].
3. Shohobod kanali adog'i atrofini qamrab olgan madaniy-xo'jalik mikrovoahasi bosh shahri Kandimqal'a [4].
4. Taxiotosh shahri janubi-g'arbiy hududi atrofini qamrab olgan madaniy-xo'jalik mikrovoahasi bosh shahri Ketmonchi [5].
5. Xorazm vohasining shimoli-g'arbiy hududi atrofini qamrab olgan madaniy-xo'jalik mikrovoahasi bosh shahri Oqchugul [6].
6. Charmanyop sug'orilish tizimi madaniy-xo'jalik mikrovoahasi bosh shahri Ko'narliqal'a [7].
7. Sariqamish ko'li shimoliy hududi atrofi madaniy-xo'jalik mikrovoahasi bosh shahri Oqchagelin [8].
8. Darg'on madaniy-xo'jalik mikrovoahasi bosh shahri Darg'on [9].
9. Jigarband madaniy-xo'jalik mikrovoahasi bosh shahri Jigarband [10].

10. Tuyamo'yin hududi madaniy xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Kaparas [11].

11. Tuyamo'yin madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Sadvar [12].

12. Xazorasp madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Sandiqlitepa [13].

13. Xazorasp madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Qal'ajiq [14].

14. Saukan sug'orilish tizimi madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Olmaotishgan-1 [15].

15. Olmaotishgan-1 madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Olmaotishgan-2 [16].

16. Ichanqal'a madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Tuproqqal'a [17].

17. Yormish sug'orilish tizimi madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Katqal'a (Shovot) [18].

18. Manoq madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Voyangan [19].

19. Zamaxshar madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Zamaxshar [20].

20. Zamaxshar madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Tuproqqal'a [21].

21. Tunudaryo janubiy balandlik atrofini qamrab olgan mikrovoha markazi Quysoy qal'a [22].

22. Charmanyop magistral kanali janubi-g'arbiy hudud madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Shohsanam [23].

23. Charmanyop sug'orilish inshooti janubi-g'arbidagi madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Gaurqal'a [24].

24. Gaurqir balandligi janubiy atrofini qamrab olgan madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi mikrovohasi Gaur-3 [25].

25. Yassiqir balandligi g'arbiy hudud atrofini qamrab olgan madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Qal'aliqir-2 [26]. Qal'aliqir-2 manzilgohi Amudaryoning qadimgi Sariqamish deltasi hududida, kichik tepalikda, Charmanyop kanali qirg'og'ida joylashgan [27].

26. Davdon irmog'i madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Ko'hna Uaz [28].

27. Davdon sug'orilish tarmog'i atrofini qamrab olgan madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Yorbekirqal'a [29].

28. Toshhovuz viloyati Ko'hna Urganch tumani madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Gurganch [30].

29. Davdon irmog'ining shimoliy tarmog'i madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Mang'irqal'a [31].

30. Daryolik irmog'i quyi irmog'i atrofini qamrab olgan mikrovoha bosh shahri Devkesgan (Vazir) [32].

31. Mizdahkon madaniy-xo'jalik mikrovohasi bosh shahri Gaurqal'a-1 [33].

32. Xeykanik sug'orilish inshooti adog'i mikrovoha markazi Ichanqal'a birinchi va ikkinchi qurilish davrida faoliyati davom etgan [34].

33. Xeykanik sug'orilish inshooti madaniy-xo'jalik mikrovohasi markazi Xazoraspning ikkinchi va uchinchi qurilish davrlarida madaniy hayot davom etgan [35].

34. Ustyurt Chinki balandligiga ulangan Oybuyir ko'li sohili atroflarini qamrab olgan madaniy-xo'jalik mikrovoha markazi Oybuyirqal'a [36].

**Xulosa va takliflar.** Maqola yuzasidan Ahamoniylar ta'siridan mustaqil bo'lgan Xorazm davlatining ichki siyosatida Amudaryoning so'l sohil hududlarini keng miqyosda o'zlashtirish, daryodan sug'orilish inshootlari chiqarilishi, daryolar sohili bo'ylab aholi tomon qal'alar bunyod qilinishi, ular o'z navbatida ma'muriy-hududiy va diniy-mafkuraviy markazlar vazifasini bajaradiganligi, ichki va tashqi vaziyatning tinch ekanligi xulosa qilindi.

Maqola yuzasidan takliflar quyidagicha:

Birinchi taklif: Amudaryoning so'l sohil hududining o'ng sohil hududiga qarganda geografik jihatdan kengligi, uning sernam va serunum bo'lishida Amudaryoning Davdon va Daryoliq irmoqlaridan chiqarilgan sug'orilish tarmoqlari ko'pligi, ajdodlarimiz tomonidan turar-joylarning qad ko'tarishlari natijasida shakllangan dehqonchilik mikrovoahalarini alohida qayd qilish lozim. Shu jihatdan ochiq osmon ostidagi muzeylar vazifasini bajaradigan mazkur arxeologik yodgorliklarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixini chuqurroq o'rganish (Xazorasp, Qalajiq).

Ikkinchi taklif: Aholi turar-joylarini ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarning rivojlanishida Amudaryoning tarixiy ahamiyatini izohlash.

Uchinchi taklif: Ajdodlarimiz tomonidan qad ko'tarilgan arxeologik yodgorliklarga ichki va tashqi turizm bilan bog'liq ravishda sayyohlik ekspeditsiyalarini tashkil etish (Xiva – Qal'ajiq – Xazorasp yo'nalishida).

#### ADABIYOTLAR

- Mirziyoyev Sh Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik//Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning roydevoridir. Toshkent, 2023, "O'zbekiston". 5-jild. 277 b.
- Толстов С.П. Древний Хорезм-М.; МГУ, 1948-С 116.
- Кальали-кир-2 культовый центр в древнем Хорезме/IV век до.н.э – II век в.н.э/ответ ред Б.И.Вайнберг-М, Наука, Восст-лит, 2004-С 12-19.
- Ғуламов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. –Тошкент.; "Фан". 1959. – Б 39.
- Ходжаниязов Г.К. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Тошкент. 2007.-Б 5-6.
- Ходжаниязов Г.К.Акчунгул-Новый памятник эпоха античности севера-западного Хорезма//Археология Приаралья-Ташкент.; Фан, 1982, Вып-1, С 81-85.
- Толстов С.П. Древний Хорезм-М.; МГУ, 1948-С 101.
- Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 г.-М.; "Наука", 1958. Вып-2 – С 27.
- Ершов С.А. Археология Туркменистана за 20 лет//Известия АН Туркменистан ССР. № 2-3. 1944.-С 29-30.
- Вишневская О.А. Раскопки городище Джигербенд//АО 1975-М, "Наука", 1976 – С 522-523.
- Воробьева М.Г. Капарас//Древности Южного Хорезма-М, Наука, 1991. Т XVI. –С 45-56.
- Вактурская Н.Н. Новые данные на городище Садвар. АО.-1975.М.:Наука,1976. С. 530-542.
- Абдримов Р, Саъдуллаев Б. Сандиклибобо ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар//Марказий Осиё тарихи ва археологияси: анъаналар, инновациялар ва истиқболлар.-Тошкент, 2021.-Б.28-30.
- Ғуломоў Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи-Тошкент. Фан, 1959-Б. 87-88.
- Мамбетуллаев М. Городище Олмаотишган-1//Вестник ККАН, У з,-Нукус. 1982. Вып-4 – С. 32-39.
- Матрасулов Ш; Сабиоров К. Олмаотишган ёдгорлигидаги археологик тадқиқотлар//Археологические исследования в Узбекистане в 2001 г.-Самарканд, 2002-С 104-107.
- Лапиров-Скобля М.С. Новый памятник фортификации древнего Хорезма//АО. 1968-М: "Наука", 1969-С 414-415.
- Мамбетуллаев М. Тупраккала Шаватская//Археология Приаралья-Ташкент, Фан, 1982, Вып-1 – С 12-15.
- Мамбетуллаев М; Кыдырниязов М.Ш. Городище Воянган//Археология Приаралья-Ташкент. Фан. 1982. Вып-2 – С 90-91.
- Ершов С.А, Вактурская Н.Н; Воробьева М.Г. Хроника работ Хорезмской экспедиции//ТХЭЭ-Москва, "Наука", 1952, Том-1 – С 619-622.
- Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения IV в.до.н.э – IV в.н.э): Автореф. дисс.-докт. ист.наук.-Ташкент, 1994. -С. 10
- Историко-культурное наследия Туркменистана-Ашхабад.; "Ылым"-1986 – С 184-185.
- Рапорт Ю.А. Раскопки городища Шах-Санем в 1952 г//ТрХАЭЭ.-М, Наука. 1958-Т 2. – С.

24. Собиров Қ. Хоразм кишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари.-Тошкент,: “Фан”. 2009. –Б 66.
25. Вайнберг Б.И. Основные итоги раскопок круглого здания на Гаур-кале – 3//Кальали-кир-2 культовый центр в древнем Хорезме/IV век до.н.э – II век в.н.э/Ответ ред Б.И.Вайнберг-М, Наука, Вост-лит, 2004-С 243-247.
26. Кальали-кир-2 культовый центр в древнем Хорезме/IV век до.н.э – II век в.н.э/ответ ред Б.И.Вайнберг-М, Наука, Вост-лит, 2004-С 6-11.
27. Болелов С.Б, Мкртычев Т.К. Религии и культы домусульманской Средней Азии (IV в.до.н.э – IV в.н.э). Москва, 2013. С 18-19.
28. Неразик Е.Е.Археологическое исследование городище Куня Уз в 1952 г.-М, Наука, 1953 – С 368.
29. Вактурская Н. О средневековых городах Хорезма. МХЭ-М, Наука, 1963. вып-6 – С 41-42.
30. Вактурская Н.Н. Раскопки городище Ургенч в 1952//ТрХАЭЭ-М, Наука, 1958. Том-2 – С 474.
31. Юсупов Х. Выдающиеся архитектурные памятники древнего Гургенча//Приаралья в древности и средневековье//М, Наука, 1998 – С 213.
32. Ходжаниязов Г.К, Хакимиязов Ж. Городище Девкесген – Вазир-Нукус,: “Билим”, 1997 – С 3-76.
33. Турабеков М. Исследование цитадели Гауркалы городище Миздахкан//Археологические исследования 2001-Ташкент 2002 – С 153-155.
34. Аскарлов А. Хива шаҳар маданиятининг шаклланиши ва унинг асосий босқичлари//Инсониятнинг илмий ва маданий мероси – 3 минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари-Тошкент, Ўзбекистон, 1997 – Б 167.
35. Собиров Қ. Хива ва Ҳазорасп шаҳарлари мудофаа иншоотлари қурилишининг асосий босқичлари (Ўша тезисда) – Б 171-174.
36. Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в до.н.э – IV н.э)//Автореф док ист, Ташкент, 1984 – С 13-14.



UDK:0:9(58)338:297.930.(584.4)

*Xamdam MATYAKUBOV,*  
*Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD*  
*E-mail: hamdamtarix@gmail.com*

*Urganch davlat universiteti professori, t.f.n Q.Sobirov taqrizi asosida*

### NEOLIT DAVRI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI MASALASI: JOYTUN HAMDA KALTAMINOR MADANIYATLARI ASOSIDA

Аннотация

Xorazm vohasida neolit davri urug'chilik jamoasi madaniyatini o'rganishning birinchi bosqichi XX asr 30-yillari oxiri – 40-yillarining ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Tadqiqotlar natijalari C.P.Tolstovning ishlarida, shu jumladan xoriyda e'lon qilingan maqolasida yoritilgan. Maqolada Joytun hamda Kaltaminor madaniyatlarining neolit davri tarixshunosligi masalasiga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Joytun madaniyati, Kaltaminor madaniyati, neolit, urug' jamoalari, geografik joylashuv, paleoekologiya.

### ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА ИСТОРИИ ПЕРИОДА НЕОЛИТА: НА ОСНОВЕ ДЖОЙТУНСКОЙ И КАЛТАМИНОРСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

Первый этап изучения культуры неолитической родоплеменной общины Хорезмского оазиса соответствует концу 30-х - второй половине 40-х годов XX века. Результаты исследования отражены в работах С.П. Толстова, в том числе в статье, опубликованной за рубежом. Статья посвящена историографии джойтунской и калтаминорской культур периода неолита.

**Ключевые слова:** Джойтунская культура, Кальтаминорская культура, неолит, родовые общины, географическое положение, палеоэкология.

### HISTORICAL PROBLEM OF THE HISTORY OF THE NEOLITHIC PERIOD: BASED ON THE JOYTUN AND KALTAMINOR CULTURE

Annotation

The first stage of studying the culture of the Neolithic tribal community of the Khorezm oasis corresponds to the end of the 30s - the second half of the 40s of the twentieth century. The results of the study are reflected in the works of S.P. Tolstov, including an article published abroad. In the article is devoted to the historiography of the Joytun and Kaltaminor cultures of the Neolithic period.

**Key words:** Joytun culture, Kaltaminor culture, Neolithic, tribal communities, geographical location, paleoecology.

**Kirish.** Qadimgi davrlarda Amudaryoning migratsiyasi, ya'ni yo'nalishi o'zgarib turgani tufayli, daryo o'zanlarining atrofida ko'p sonli kichik ko'llar va suv havzalari hosil bo'lgan. Shu boisdan eng qadimgi davrlarda Orolbo'yi paleogeografiyasi va paleoekologiyasi zamonaviy geografik sharoitdan farq qilgan. Hozirda Orolbo'yi va Sariqamishbo'yi hamda qurib qolgan Uzboy o'zani atroflaridagi cho'l hududlari, tarixning eng qadimgi davrlarda ichimlik suvi bilan yetarlicha ta'minlangan edi. Bunday sharoit inson tomonidan bosqichma-bosqich turli hududlarni o'zlashtirish, tabiiy resurslardan foydalanish va madaniy (antropogen) landshaftning taraqqiyotiga qulay imkon yaratgan.

Xorazm vohasida 1938 yilda izlanishlar boshlangan Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari (S. P. Tolstov, Ya. G'. G'ulomov, Ye.A. Polyakov), xususan, ushbu jihatlarga e'tibor berishgan. S.P.Tolstovning yozishicha Quyi Amudaryo o'zanlarining yo'nalishlari va havzalarini inson tomonidan o'zlashtirilishi tarixi murakkab muammo bo'lib, "Amudaryo tarixi buyuk xorazmlik qomusiy olim Abu Rayxon Al-Beruniy tomonidan dastlab to'g'ri yoritilgan"[1]. Ushbu masala Ya.G'ulomovning maxsus maqolasida ochib berilgan[2].

1939 yilda Amudaryoning Oqchadaryo o'zani havzasidagi qum pasttekisligida Jonbos 4 deb atalgan neolit davriga oid makon kashf etildi. Undan keyingi yillarda topib tekshirilgan shunday makonlar guruhi "Kaltaminor madaniyati" degan umumiy nom ostida birlashtirildi[3]. Tadqiqotlar natijasida, eng avvalo Janubiy Orolbo'yidagi zamonaviy tabiiy qiyofasidan qadimda mutlaqo farq qilgan atrof-muhitning manzarasi aniqlandi. S.P.Tolstovning aytishicha, Oqchadaryo deltasi "qamish va chakalak o'rmonlar o'sib yotgan, juda ko'p daryo irmoqlari va ko'llari bo'lgan sernam bir o'lka edi, bu yerda neolit davridagi Xorazm baliqchilari va ovchilari o'zlarining turarjoylarini qurgan"[4]. Keyinroq S.P.Tolstov, A.S.Kes, Ya.G'.G'ulomov, A.V.Vinogradov, M.A.Itina va E.D.Mamedovlar tomonidan, qadimgi insonning cho'lda

joylashishi, tabiiy resurslardan foydalanishi xususiyatlari, xo'jaligini rivojlantirishida tabiiy-geografik sharoitning ahamiyati, inson va atrof muhitning o'zaro ta'siri hamda paleoekologiya masalalari bo'yicha Markaziy Osiyo miqyosida dastlab muhim ilmiy ma'lumotlar qo'lga kiritildi [5].

**Tadqiqotning asosiy natijalari.** Xorazm vohasi neolit davri arxeologik yodgorliklarni tadqiq etishga A.V.Vinogradov katta xissa qo'shgan. Buni nafaqat shu davr ko'p sonli makonlarini kashf etish va yodgorliklar xaritalarini tuzishda, shuningdek, ularni qazib ochish va yangi materiallarni qo'lga kiritishda ko'rish mumkin [6].

XX asrning 60-70-yillarida A.V.Vinogradov, Ye.B.Bijanov va V.N.Yagodinlar Orolbo'yi janubi-g'arbiy qismidagi Ustyurt hududlarida arxeologik ishlarni olib borishdi. Ular natijasida paleolit, mezolit va mezolit davrlariga oid mavsumiy makonlarning izlari va tosh qurollar topildi [7]. Mazkur kashfiyotlar Orolbo'yi hududlarini inson tomonidan o'zlashtirish jarayonlarini ilk marotaba so'nggi paleolit davri bilan bog'lashga imkon berdi. Bu ovchilar jamoalari cho'l sharoitiga moslab yashashning yuzaga kelganidan dalolat beradi.

A.V.Vinogradov o'z monografiyasining "Neolit davri ovchilari va baliqchilari" deb nomlangan bobida mil. avv. VI-V ming yilliklarida Turkmanistonning janubi-g'arbidagi, dexqonchilik va xonaki chorvachilik asosida rivojlangan Joytun madaniyatiga nisbatan Markaziy Osiyoning boshqa yerlarida, shu jumladan, dasht va tog'li hududlarida, neolit davri jamoalarining ishlab chiqaruvchi xo'jalik sohasiga o'tish vaqtini aniqlash uchun ilmiy ma'lumotlar cheklanganligini qayd etib, ushbu muammolarni alohida ko'rib chiqdi. Tadqiqotchining aytishicha, arxeologik materiallariga ko'ra, ishlab chiqaruvchi xo'jalik tarmoqlari Xorazm vohasida mil. avv. II ming yilliklarning o'rtalarida va quyi Zarafshon havzasida mil. avv III-II ming yilliklar chegarasida vujudga kelgan[8].

Ushbu fikr dastlab tadqiqotchining maqolasida o'tgan asrning 50-yillarida ilgari surilgan va monografiyasining chop etilishiga qadar o'zgartirilmagan ekan[9]. Bundan keyin, xorijda nashr qilingan va Markaziy Osiyo arxeologiyasining paleolit – ilk temir davrlarini o'z ichiga olgan monografiyaning “Xorazm va Qizilqumda Kaltaminor madaniyati” sarlavhadagi qismida kaltaminorliklarning yetakchi xo'jaliklar xususida fikr bildirilmagan. Kitobda Xorazm va Qizilqumning tabiiy geografik sharoit makonlarning tarifi va xronologiyasi kabi muammolarga asosiy e'tibor berilgan[10].

O'z paytida S.P.Tolstov neolit davrining so'nggi bosqichlarida Xorazm vohasi urug'chilik jamoalari chorvachilik sohasiga o'tganligi to'g'risida fikr yuritgan[11]. G.F.Korobkova bu g'oyani tarafdori bo'lib, Janubiy Orolbo'yi va Qizilqum sarhadlarida yashagan qadimiy jamoalar neolitning ilk bosqichlaridan avval chorvachilik va so'nggi davridan ziroatkorlik bilan mashg'ul bo'lganlar deb yozgan[12].

XX asr 80-90 yillarda Quyi Amudaryo havzasi va Ustyurtda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida Orolbo'yi tosh davri moddiy madaniyati bo'yicha ma'lumotlar kengayib bordi, yangi yodgorliklar tekshirildi[13]. “Tolstov makoni” deb nomlangan manzilgohida neolit davriga oid ikkita turarjoyning qoldiqlari aniqlandi[14] hamda Janubiy Xorazmdan topilgan materiallar e'lon qilindi[15]. Shuningdek, ilk bor Xorazm vohasida Amudaryoning o'ng sohilidagi Sulton Uvays tog'ining g'arbiy yon bag'irlaridan so'nggi paleolit davriga mansub mehnat qurollari topilgan[16].

Shu kashfiyotlar tufayli, Xorazm vohasini urug'doshlik jamoalari tomonidan o'zlashtirish jarayonlarini davriy jihatdan aniqlash, vohadagi tabiiy-geografik muhim va insonning o'zaro ta'sirini hamda madaniy lanshaftining rivojlanishi bosqichlarini o'rganish imkoni yaratildi.

Shuni aytish kerakki, 2005 yilda O'zbekiston-Fransiya, O'zbekiston-Polsha xalqaro arxeologik ekspeditsiyalari tomonidan (M.Xo'janazarov, F.Brunet, Q.Shimchak) Qizilqum hududlarida tadqiqotlar amalga oshirildi. Shuningdek, Sulton Uvays tog'ining janubiy etaklaridan qadimgi tosh davriga oid ashyolarni olishga erishildi[17]. Tadqiqotlarning keyingi bosqichida B.K.Sayfullaev, M.M.Xo'janazarov va D.M.Jo'raqulovlar tomonidan Xorazm vohasidagi Ko'kcha makonidan va Sulton Uvays tog'ining janubiy yon bag'irlaridan so'nggi paleolit davriga oid mehnat qurollari olingan[18].

XXI asrning birinchi choragida, Janubiy Orolbo'yi, Qizilqum va Quyi Zarafshon vohasida Kaltaminor madaniyatiga doir ilmiy ma'lumotlarning ancha kengayib borishi natijasida, N.O.Xolmatovning ishida Quyi Zarafshon makonlaridan topilgan materiallarining davrlashtirish va xronologiyasi, urug'chilik jamoalar xo'jaligi va turmush tarzi alohida bo'lim sifatida o'rganilib, vohadagi Kaltaminor madaniyatining rivojlanishi mil.avv. VII ming yillikning oxirlari - IV ming yillikning o'rtalari bilan belgilangan[19].

Xorazm tarixi va madaniyatiga bag'ishlab, hammualliflikda yozilgan asarda V.N.Yagodin tosh davri Janubiy Orolbo'yida eng qadimgi odamlarning yoyilishi jarayonlarning vaqti va yo'llari, urug'doshlik jamoalarning xo'jalik faoliyati va shu soha shakllari haqida fikr yuritgan[20].

U.I.Abdullayevning tadqiqotida Markaziy Osiyoda ibtidoiy tuzumi manbalari va tarixshunosligi tosh davrida xo'jalik-madaniy tiplar, mintaqadagi ilk ziroatkorlar-chorvadorlarning hududiy joylashuvi va iqtisodiy rivojlanishi hamda urug' qabila uyushmasi va ijtimoiy boshqaruv kabi muhim masalalar taxlil qilingan[21].

X.O.Matkarimovning ishida Janubiy Orolbo'yi hududlarida antropogen landshaft va tarixiy-madaniy jarayonlarning rivojlanishi, neolit davri tarixiy rekonstruksiya muammolari ko'rib chiqilgan[22]. Shuningdek, hammualliflikda tayyorlangan monografiyadagi U.I.Abdullayev va X.O.Matkarimovlar tomonidan yozilgan qismida, Markaziy Osiyo mintaqasi, shu jumladan, Xorazm vohasida neolit davri ijtimoiy-iqtisodiy tizimining qayta tiklash jarayonida tabiiy muhit va geografik sharoit, makonlarning hududiy joylashuvi xususiyatlari, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlari, turarjoylarning katta-kichikligi, paleofauna va flora qoldiqlari muhim ahamiyat kasb

etishi haqida fikr yuritib, bu omillarning mazmun-mohiyati ochib berilgan[23].

Yuqorida qayd etilgan ishning boshqa bandida, N.O'.Xolmatov Kaltaminor madaniyati ovchi-baliqchilari va termachilar jamoalari nafaqat Janubiy Orolbo'yida, balki qo'shni Ustyurt, Uzboy qadimiy o'zani sohillari, Sharqiy Kaspiybo'yi, G'arbiy Qozog'iston hududi, Ichki Qizilqum va Quyi Zarafshon vohasi sarhadlariga tarqalishib yashaganligini aytib, ushbu madaniyatining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor beradi[24].

Xorazm vohasida urug'chilik tuzumi tarixini o'rganish yo'nalishi izchil ravishda rivojlanib borgan. Tadqiqotlar natijalaridan ilmiy ishlar qatorida yangi o'quv adabiyotlarida va keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan kitoblarda ham foydalanilgan[25].

Kaltaminor madaniyatining kelib chiqishi masalasi adabiyotlarda Sharqiy Kaspiybo'yi mezolit davri madaniyati bilan bog'lanadi. Shu davrda Kaspiybo'yi tekisliklarida va Balxon yassi tog'larida ovchilar, baliqchilar va termachilarning urug' jamoalari yashaganligi aniqlangan. Ular o'zlarining turarjoylari sifatida ochiq joylar va tabiiy g'orlaridan foydalanishgan. Shunday g'or-makonlari (Damdachashma, Qayli, Jebel) A.P.Okladnikov tomonidan o'rganildi[26].

Hozirda Kaspiybo'yidagi suvsiz cho'lga aylangan pasttekisliklar mezolit davrida ichimlik suvi bilan yetarlicha ta'minlagan edi. O'sha davrda Amudaryo, qadimiy Uzbek o'zani orqali Kaspiy dengiziga quyilgan, ya'ni doimiy harakatdagi daryo o'zanida chuchuk suv oqib, uning sohillari atroflarida buloqlar bo'lgan. Yana bir muhim dalil shundan iboratki, bu yerdagi mezolit davri makonlaridan dasht hayvonlarning suyaklari qatorida, oqar chuchuk suvda yashovchi cho'rton va sazan kabi baliqlarning suyaklari topilgan[27].

V.M.Massonning asarida, Turkmanistonning janubiy-g'arbidagi Kopetdog' yon bag'irlarida mil.avv. VII ming yillikning oxirlarida, dehqonchilik-chorvachilik xo'jaligi sohalariga asoslangan Joytun madaniyatining paydo bo'lishini Sharqiy Kaspiybo'yidan urug'doshlik jamoalarning ko'chib kelishi bilan bog'lanib talqin qilindi. Kopetdog' yon bag'irlari tekisligida ishlab chiqaruvchi xo'jalikning vujudga kelishi sabablari ichida, birinchida – Damdachashma g'orida xonakilashtirilgan qo'y-echkilarning suyaklari topilganligi, ikkinchidan, dehqonchilik-chorvachilikning yuqori darajada rivoj topgan ovchi-termachilarning xo'jaligidan kelib chiqqanligi qayd etilgan[28].

**Xulosa.** A.V.Vinogradov ham Ustyurt Janubiy Orolbo'yi va Qizilqum sarhadlarida Kaltaminor madaniyatini shakllanishida Sharqiy Kaspiybo'yidan qabilalarning migratsiyalariga katta ahamiyat bergan[29]. Biroq Joytun madaniyatiga nisbatan Markaziy Osiyoning shimoli-sharqida, shu jumladan, Xorazm vohasida, neolit davrida ziroatkorlik ma'lum bo'lmagan.

Ye.B.Bijanov Ustyurt neolit davri madaniyatining shakllanishini mahalliy mezolit davri ovchilar jamoalari an'analari bilan bog'laydi.

N.O'.Xolmatov ham masalaga oydinlik kiritib, Quyi Zarafshon vohasida neolit madaniyatining paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixiy ildizlari mahalliy mezolit jamoalari madaniyati negizida ro'y bergan deb hisoblaydi.[30] Shuningdek, tadqiqotchi turlicha hududlarni o'zlashtirilishi sabablari, inson faoliyati va turmush tarziga tabiiy - geografik sharoitning ta'siri kabi masalalariga alohida diqqatni jalb etdi. N.O'.Xolmatovning aytishicha, tabiiy landshaft va sharoit, atrof-muhit ta'sirida insonning xo'jalik mashg'ulotlari, turmush tarzi va moddiy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari shakllanadi, shu tariqa odamzod yashashi uchun imkon beruvchi tabiiy-geografik sharoit katta ahamiyat kasb etadi.

Bu xulosaga qo'shilib, uni quvvatlash mumkin. Xususan, Joytun va Kaltaminor madaniyatlarining xo'jalik mashg'ulotlarini muvofiq ravishda ishlab chiqaruvchi va o'zlashtiruv-sohalarini, turlicha atrof-muhit, tabiiy-geografik sharoit belgilab bergan. Ishlab chiqaruvchi va o'zlashtiruvchi xo'jalik sohalariga asoslangan urug'chilik jamoalari taraqqiyotida ancha farqlar vujudga kelib, ular o'rtasida notekis iqtisodiy va madaniy rivojlanish boshlanadi.

## ADABIYOTLAR

1. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ, 1962. – С.21.
2. Гулямов Я. Беруни об исторической гидрогеографии Амударьи // Беруни – великий ученый средневековья. – Ташкент, 1950. – С. 85-92.
3. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – С.59.; o'sha muallif. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: “Фан”, 1964. – Б. 74-75.
4. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб... Б. 73,75.
5. Толстов С.П., Кесь А.С. История первобытных поселений на протоках дельт Амударьи и Сырдарьи // Сборник статей для XVIII международного географического конгресса. – М. – Л., 1956. – С.327-336.; Кесь А.С. Природные факторы, обуславливающие расселение древнего человека в пустыне Средней Азии // КСИЭ. Вып. XXX. – М., 1958. – С.170-176.; Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: “Фан”, 1959. – Б.50-56.; Виноградов А.В., Итина М.А., Кесь А.С., Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения человека в пустынях Средней Азии // Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. – М., 1974. – С.290-295.
6. Виноградов А.В. К вопросу о южных связях кельтеминарской культуры // СЭ. – М., 1957. № 1. – С. 25-45.; o'sha muallif. Неолитические памятники Хорезма // МХЭ. – М., 1968. Вып.8. – 178 с.; o'sha muallif. О распространении наконечников стрел кельтеминарского типа // Этнография и археология Средней Азии. – М.: “Наука”, 1979. – С. 3-10.
7. Бижанов Е., Виноградов А.В. Неолитические памятники каракалпакского Устюрта // Вестник ККФ АН Уз ССР. – Нукус, 1965. – № 3. – С. 63-70.; Ягодин В.Н., Бижанов Е.Б. Археологические работы на Устюрте // АО 1973. – М.: “Наука”, 1974. – С. 493-494.; Виноградов А.В., Бижанов Е. Первые палеолитические находки с юго – восточного Устюрта // АО 1977. – М.: “Наука”, 1978. – С. 522.
8. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья // Тр. ХАЭЭ. – М., 1981. Т. XII. – С.135-147.
9. Виноградов А.В. К вопросу о южных связях кельтеминарской культуры .. С. 44-45.
10. Kohl P. Central Asia Paleolithic beginning to the Iron Age. – Paris, 1984. – Pp. 57-64.
11. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации... С. 77.
12. Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйство неолитических племен Средней Азии // МИА. – М., 1981. № 158. – С. 180-181.
13. Бижанов Е.Б. Открытие памятников мезолита на юго-восточном Устюрте // Вестник ККФ АН Уз ССР. – Нукус, 1982. № 3. – С. 61-65.; o'sha muallif. Памятники каменного века впадины Шахпаты // Археология Приаралья. – Тошкент: “Фан”, 1984. Вып.4. – С.8-20.; o'sha muallif. Каменный век Устюрта: автореф... дисс... докт. истор. наук. – Тошкент. 1996. – 47 с.
14. Виноградов А.В. Исследование стоянки Толстова // АО 1980. – М.: “Наука”, 1981. – С. 447.
15. Виноградов А.В., Итина М.А. Памятники эпохи неолита и бронзы // Древности Южного Хорезма. – М., 1991. Т. XVI. – С. 51-79.
16. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге // Приаралье в древности и в средневековье. – М.: Ивл, 1998. – С. 75-77.
17. Хужаназаров М.Ф., Брунет Ф., Шимчак К. Археологические исследования Узбекско-французской экспедиции на памятниках Кызылкумов // Археологические исследования в Узбекистане, 2004-2005 гг. – Ташкент: Фан, 2006. – С. 244-247.; Brunet F. Pour une e'tude de la culture neolithique de Keltiminar. Uzbekistan // Paleorient. Vol. 37/2. 2005. – Pp. 87-106.
18. Сайфуллаев Б.К., Хужаназаров М.М., Джуракулова Д. М. Новые данные по палеолиту Кызылкумов // История и археология Турана. – Самарканд, 2017. – № 3. – С. 31-36.
19. Холматов Н.У. Мезолит и неолит нижнего Зарафшана. – Тошкент: “Фан”, 2007. – С.124-138.
20. Кдырнязов М.Ш., Ягодин В.Н., Мамбетуллаев М.М. и др. История цивилизации Хорезма. – Нукус: “Qaraqalpaqstan”, 2017. – С. 39-48.
21. Ў. И. Абдуллаев. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. – Тошкент: “Lesson press”, 2019. – Б. 6-160.
22. Маткаримов Х.О. Хоразм воҳасида археологик тадқиқотлар тарихи (қадимги даврга оид тарихий реконструкция муаммолари) : Тарих фан. фалсафа доктор. (PhD) дисс... автореферат. – Нукус: Қорақалпоқ давлат университети, 2021. – 23 б.
23. Сағдуллаев А.С., Холматов Н. Ў., Абдуллаев Ў. И. ва бошқ. Марказий Осиёда тарихий-маданият вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. – Тошкент: “Университет”, 2020. – Б. 10 - 25.
24. Сағдуллаев А.С., Холматов Н. Ў., Абдуллаев Ў. И. ва бошқ. Марказий Осиёда... Б. 36-39.
25. Ўзбекистон тарихи (Хоразм тарихи). XI жилд // Масъул муҳаррир А.С. Сағдуллаев. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2023. – Б. 8-31.
26. Окладников А.П. Древнейшие археологические памятники Краснодарского полуострова // Тр. ЮТАКЭ. – Ашхабад, 1953. Т. II. – С. 96-104.
27. Окладников А.П. Верхнепалеолитическое и мезолитическое время // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: “Наука”, 1966. – С.
28. Массон В.М. Поселение Джейтун (проблема становления производящей экономики) // МИА. – Л., 1971. № 180. – С. 62-34, 111.
29. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья... С. 134.
30. Холматов Н.У. Происхождение и судьба неолитических культур Средней Азии // Формирование историко-культурных областей в Центральной Азии и проблемы этнической географии. – Ташкент. 2018. – С. 29-31.; o'sha muallif. Сазағ'он маданияти ва унинг Ўзбекистон неолит даврида тутган ўрни: Тарих фанлари доктори. (DSc) дисс... автореф. – Самарқанд: Археологик тадқиқотлар институти, 2019. – Б. 31-32.



UDK: 94(470)"1941/1945":536.3

**Ra'no MAXKAMOVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*  
E-mail: [ranomaxkamova0823@gmail.com](mailto:ranomaxkamova0823@gmail.com)

*Dotsent X. Babajanov taqrizi asosida*

## BEHIND THE FRONT ACTIVITY OF WOMEN IN TASHKENT CITY AND TASHKENT REGION DURING WORLD WAR II

Annotation

During the Second World War, Uzbekistan made a great contribution to the victory. It was not easy to achieve the victory, only because of the work of women in all fields of the country, the assignments given by the Center were completed on time and in addition. The following article discusses the women of Uzbekistan who showed courage with their selfless work during the Second World War. During the war years, during the period of reconstruction of the country to adapt to the war, the participation of women, how big it was, you can see their courage in the fact that they have to work for the front as well as the family. Their courage is proven by numbers.

**Key word:** Brigadier, unit leaders, women, personnel problem, Komsomol organizations.

## ЗА ФРОНТОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН ГОРОДА ТАШКЕНТА И ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация

В годы Второй мировой войны Узбекистан внес большой вклад в победу. Добиться победы было непросто, только благодаря работе женщин во всех сферах страны, задания, данные Центром, были выполнены в срок и дополнительно. В следующей статье речь пойдет о женщинах Узбекистана, проявивших мужество своим самоотверженным трудом в годы Второй мировой войны. В годы войны, в период восстановления страны, чтобы адаптироваться к войне, участие женщин, насколько оно было велико, можно увидеть в том, что им приходится работать не только для семьи, но и для фронта. Их смелость подтверждается цифрами.

**Ключевые слова:** Бригадир, командиры звено, женщины, кадровая проблема, комсомольские организации.

## IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATIDAGI AYOLLARNING FRONT ORTIDAGI JASORATLARI

Аннотация

Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston g'alabaga katta hissa qo'shdi. G'alabaga erishish oson bo'lmadi mamlakatda barcha sohalarda ayollarning mehnati tufayliga Markaz tomonidan berilgan topshiriqlar o'z vaqtida va qo'shimchasiga ortig'i bilan bajarildi. Quyidagi maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zining fidokorona mehnati bilan jasorat ko'rsatgan o'zbekistonlik ayollar haqida fikr yuritiladi. Urush yillarida mamlakatni urushga moslab qayta qurish davrida ayollarning ishtiroki, naqadar katta bo'lganligi ularning zimmalariga ham oila ham front uchun mehnat qilish zarurligida ularning jasoratlarini ko'rishingiz mumkin. Ularning jasoratlari raqamlar orqali o'z isbotini topgan.

**Kalit so'zlar:** Brigadir, zveno rahbarlari, xotin-qizlar, kadrlar muammosi, komsomol tashkilotlar.

**Kirish.** Ikkinchi jahon urushi MDH nafaqat davlatlari orasida balki, butun dunyo tarixidagi eng dahshatli va keng ko'lamlil mojarolardan biri bo'lib, uning kuchi dunyoning barcha burchaklaridan aks sado berdi. Bu davrda urush girdobiga tortilgan O'zbekiston ham urushning og'ir yukini his qildi, ayniqsa, front ortida qolgan xotin-qizlar uchun bu sinovli yillar edi. O'zbekiston ayollari barcha sohalarga kirib bordi, endi ular nafaqat oilalarini boqish balki, urushga ketgan otasi, erlari va akularining ham o'rniga ishlashlariga to'g'ri keldi. Mamlakat iqtisodiyotini saqlab qolish, qolaversa, frontni kerakli oziq-ovqat, kiyim-kechak va qurol aslaha bilan ta'minlashda ham ayollarning o'zni muhim bo'ldi. Zavod, fabrikada ishlash bo'ladimi, yoki qishloq xo'jaligi-yu, og'ir sanoat sohasimi barcha saohada yetakchi ayollar paydo bo'ldi.

Ushbu maqolada, O'zbekiston ayollarining ikkinchi jahon urushi yillaridagi front orti mehnati, ularning jamiyatdagi o'zgarishi va bu o'zgarishlarning kelajak avlodlar uchun qanday o'rnak bo'lganligi haqida so'z yuritiladi. Ayollar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy sohalarda ham o'zlarining muhim o'rnini mustahkamlab, urushdan keyingi davrda yangi imkoniyatlar eshigini ochdilar.

**Adabiyotlar tahlili.** Sobiq SSSR fashistlarga qarshi urush e'lon qilingandan so'ng Kommunistik partiya tashkilotlariga ixtiyoriy ravishda frontga ketish uchun arizalar kelib tusha boshladi. Masalan, 1941-yil 22-iyundan 8-iyulga qadar Samarqand oblastidagi partiya tashkilotlari va xarbiy komissarliklarning o'zidagina ko'ngillilardan 1316 ariza tushdi.

Bunday arizalarning soni 1941-yil 4 avgustga qadar 2988 taga yetdi, shu arizalarning 613 tasi xotin-qizlardan edi. Mamlakat hayotida ham fashistlar ustidan g'alabaga erishish uchun aholi orasida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. 1941-yil 22 iyunda Toshkent to'qimachilik kombinatining ishchilari mitingga to'planib, shu daqiqadan boshlab o'zlarini Vatanni himoya qilishga safarbar etilgan deb hisoblashga qaror qilganliklarini aytdilar[1], 23-24-iyun kunlari Samarqand Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona va boshqa hududlarda ham mitinglar bo'lib o'tdi[2]. Urush mamlakat hayotini urushga moslab mobilizatsiyalash, qayta harbiy izga solishni talab etardi. Bu esa Markaziy Komitet VKP ning 1941-yil 29-iyunda chiqarilgan direktivasida o'z aksini topdi. Dasturda ko'rsatilgan "Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!" shiori sovet mehnatkashlarining hayotiy mezoniga aylandi.

Albatta dushmanni tor-mor keltirishda front askarlari katta ahamiyatga ega shu bilan birqatorda frontni kerakli ta'minot bilan ta'minlash g'alaba omillaridan eng asosiysi hisoblanadi. Mehnatga yaroqli erkaklarning asosiy qismi frontga ketganligi bois respublikada malakali quruvchi, injenr, brigadirlar, mashinistlar yetisgmasligi muammosi vujudga keldi. Bu esa O'zbekiston SSR partiya tashkilotlari oldiga sanoat korxonalarini, qurilishlarni, transportni, kolxoz va sovxozlarni malakali ishchi kuchi bilan ta'minlash vazifasi ko'ngdalang qilib qo'ydi. Kadrlar muammosi fabrika-zavod ta'limi makatablarida, hunar bilim yurtlarida, qisqa muddatli turli kurslarda, shuningdek, oliy o'quv yurtlari va texnikumlarda kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash



ixtisoslarni o'rgatish orqali hal qilinadigan bo'ldi. Mamlakat ichkarisidagi ishlarning asosiy og'irligi xotin-qizlar va yoshlarning ustiga tushdi. Xotin qizlarning o'z ixtiyorlari bilan ishlab chiqarishga borib ishlab, ilgari faqat erkaklargagina xos bo'lgan kasblarni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirib oldilar. 1941-yilning noyabrgacha Toshkentda ishlab chiqarish korxonalarida 7620 ta xotin-qizlar tezkor tayyorlov kurslarida o'qitilgan[3]. 1942-yillarda mexanizatsiya maktablari, MTSlar huzuridagi kurslarning o'zidagina va yakka tartibda o'rgatish yo'li bilan 41 435 kishi tayyorlandi[4]. 1941-yilning avgust-sentabr oylarida MTS va mexanizatsiya maktablarida troktochilar tayyorlaydigan kurs ochildi. 1941-yilning avgust oyining o'zida 16,5 ming ayollar, 1942-yilning oxirida esa 21 ming ayollar traktor haydashni o'rganib oldi. 1943 yilning o'zida mexanizatorlikning turli yo'nalishida gi 12 ming ayollar xunar o'rganib oldi[5]. Ayollarni ishlab chiqarishga jalb etish va ularning o'qitish bilan partiya xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi shug'ullangan. Shu kabi, xotin-qizlar qo'mitasi yordami bilan Partiyaning Toshkent shahar bo'limi 1942-yilning iyunidan 1944-yilning may oyigacha ishlab chiqarish zavodlariga 15 270 nafar ayollarni ishga qabul qilgan, ulardan 700 nafari o'qish uchun jo'natilgan. Urush davrida har kuni yangi ijtimoiy talb tug'iladigan front ortidagi hayotda ikkiyuz, uchyuzlab odamlar zavod va fabrikalarda Na faqat o'zing uchun, balki, sherigining, urishga ketganlar uchun ham ishlashing kerak" shiori ostida yashashardi[6]. jamiyatda o'ziga hos sotsiologik musobaqa vujudga keldi. Bu nima degani? har bir sohada kunlik bajariladigan normaning ortig'i bilan bajarish demakdir, xalq orasida yuzchilar, ikkiyuzchilar kabi guruhlarning paydo bo'ilishi ham shu musobaqadab kelib chiqan. Bunday musobaqalar ayollar orasida ham kuzatilgan.

1941-yil 5-iyulda Toshkentning Oktabr rayonida 15 ming xotin-qizlar ishtirokida miting bo'lib o'tdi[7]. Mitingda quyoshli O'zbekiston ayollarining urushga ketgan otasi, aka-ukalari va erlarining bo'sh qolgan traktorlari, stanoklari va mashinalarini egallab dushmanni tor mor etishda birdamlik bilan harakat qilishga chaqirildi. Umuman olganda bunday mitinglar respublika bo'ylab ko'plab bo'lib turgan[8]. Ayollar, keksalar va bolalar urushga ketgan erlari, farzandlari va aka-ukalarining o'miga ham ishlay boshladi. Bunday mitinglar o'z samarasini bermay qolmadi, urushning dastlabki birinchi oyida Toshkentdagi zavod, fabrika va boshqa ishlab chiqaruvchi korxonalariga 20 ming xotin-qizlar ishga kirdi[9]. Urush yillarida ishlab chiqarishda ayollarning ishtiroki qariyb 29% oshdi. 1941-yilda 40.7% ni tashkil etgan bo'lsa, 1943-yilga kelib ularning salmog'i 63.5% ga yetdi[10].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Toshkentning o'zidagina urushning dastlabki, oylarida zavodlar, fabrika va boshqa sanoat korxonalarida 20 mingdan ko'proq xotin-qiz kelib ishlay boshladi. Ursatevskaya(hozirgi Xovos tumanidagi) stansiyasidagi ro'zg'or ishida band bo'lgan ayollardan 300 kishi yo'l obxodchiligi, stansiya navbatchiligi kasblarini o'rganib olishga kirishdi. Samarqanddagi harbiy xizmatchilarning xotinlaridan 2500 kishi ishlab chiqarish kasblarini egalladi. Ayollar barcha sohalarga kirib bordi qishloq xo'jaligidan tashqari yana konmetallurgiya, temiryo'l transporti va b. Qo'qondagi temir yo'l uzulida esa 82 nafar xotin qiz mashinist, chilangar va boshqa sohalarni egallash istagini bildirib murojaat qilgan. 1942-yilda Respublikada jami hisobda 8599 nafar ayollar (shulardan Toshkentda 5774, Qo'qonda – 283 nafar) temir yo'l sohasida mehnat qilar edi[11].

Urush yillarida O'zbekistonda energatika bazalarini kengaytirish ishlari amalga oshirildi. Ayollar elektrosaniyalari qurilishida jonbozlik ko'rsatdi. Respublikadagi eng yirik qurilishlardan biri hisoblangan Farhod GES da ham ular faol qatnashdilar. Ularning say harakati bilan bunyod etilgan elektrostansiyag 8-mart nomi berilishi buning isboti[12]. Yuqorida ta'kidlanganidek, ayollar barcha sohalarda front uchun, g'alaba uchun kun-u tun mehnat qilgan V.P.Chkalov nomidagi zavodda urush yillarida 3800 nafar ishchi ishlagan ularning 95% ayollar tashkil qilgan. 1942-yilning birinchi yarmida Chirchiq elektrokimyo kombinatida 10 ta brigadalar tuzilgan[13]. "Bolshevik" nomli to'quv-yigiruv kombinatida front uchun 4 ta brigada jo'natilgan.

Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekiston xo'jaligining qishloq mehnatkashlarining mehnatga yaroqli va malakali eng yaxshi qismi urush yillarida frontga jo'nab ketdi. Qishloq aholisining anchagina qismi sanoatning turli tarmoqlarida va qurilishda ishlashga safarbar qilindi va ishchilar sinfi safiga qo'shildi. Kolxozlarda mehnatga yaroqli ishchilar sini urushning birinchi yilidayoq 32% ga kamaydi. Xotin-qizlar va o'smirlar frontga ketga erkaklarning o'rnida ishlab, yangi kasblarni muvaffaqiyatli egalladilar. Chunonchi, 1941-yil 20-avgustdayoq MTSlar qoshida ochilgan ikki oylik kurslarda va O'zbekiston SSR Yer ishlari ministrligi huzurida ochilgan qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash maktablarida o'qib turgan 13 776 kishidan 12 478 tasi (82,4%) xotin-qizlar edi[14]. Ayol mexanizatorlar ko'paya bordi. Xotin-qizlardan maxsus traktor brigadalari tuzildi. 1942-yilgi bahorgi ekish davrida O'zbekistonda mana shunday brigadalar 75 taga yetdi. Hammasi bo'lib, 38000 ming ayol traktor ishlarida band bo'ldi. Xotin-qizlardan tuzilgan eng yaxshi traktor brigadalari mehnat unumdorligini yuksak darajaga yetkazishni ta'minladi.

1941-yil 16-avgustdagi SSSR hukumati 1941-yilning IV kvartali va 1942-yil Volgabo'yi,Ural, G'arbiy Sibir, Qozog'iston, O'rta Osiyoning xarbiy xo'jalik plani to'g'risidagi qarori qabul qilindi[15]. Bu planda sharqiy rayonlarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligini yuksaltirish, mudofaa sanoatining yangi qurilishlarini rivojlantirish, gitlerchi bosqinchilarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borishni ta'minlay oladigan harbiy ekanomikani vujudga keltirish vazifalari ko'rsatilgan edi. "Pravda Vastoka" va "Qizil O'zbekiston" gazetalarining 1941-yil12-sentabr sonida Toshkent viloyatining Yangi yo'l rayoni kolxozchi dehqonlarining murojaatida qishloq xo'jalik mehnatkashlarini dushmanni tor-mor qilgunga qadar harbiy vahtada turib ishlashga, temirdek mehnat intizomini saqlashga paxtadan mo'l hosil olish uchun staxanovchasi mehnat qilishga, front, sanoat uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetkazib berishda jonbozlik ko'rsatishga chaqirildi. Front uchun oziq ovqat xususan, paxta donli mahsulotlar yetkazib berish O'zbekiston yelkasiga yuklatildi. "Politodel" kolxozining temirchisi S.Xolmatovakundalik normani 5-6 marta ortig'i bilan bajardi[16]. Respublika qishloq xotin-qizlarining paxta dalalarida ko'rsatgan ommaviy mehnat jasoratlari, vatanparvarlik tashabbuslari o'z samarasini berdi. O'zbekiston SSR 1941-yil 15 dekabrghacha paxta tayyolash davlat planini ortig'i bilan bajardi. Davlatga 1657,2 ming tonna paxta topshirildi.

**Tahlil va natijalar.** Kolxozchi dehqonlarni, ayniqsa, ayollarni kolxoz ishlab chiqarishga maksimal darajada jalb etish, ularning mehnat unumdorligini ko'tarish maqsadida dala shiyonlarida issiq ovqatlar, bolalar yaslisi va bog'chalar tashkil qilingan.

Vatanimiz urushda 30% ga yaqin milliy boyligidan ajraldi. Bosib olingan hududlarda 31,8 ming sanoat korxonalari, 98 ming kolxoz, 1,9 ming sovxoz 2,9 ming MTS, 39 ming medetsina muassasalari, 82 ming maktab, 4,7 mingdan ortiq- uy-joy butunlay yoki qisman vayron qilingan edi[17] KPPS va Sovet hukumati 1943- yil avgust oyida dushman okkupatsiyasidan ozod bo'lgan rayonlarda xalq xo'jaligini qayta tiklash to'g'risida qaror qabulqildi. Shunga ko'ra ekin maydonlari 1943-yilda 1941-yilga nisbatan 13.6 % ga kengaytirildi. G'o'za qator oralarini ishlashda, kultivatsiya qilishda, sug'orish, chopiq qilish ishlarida kolxozchi ayollar har galgidek namuna ko'rsatib ishlashdi. O'zbekiston partiya va qishloq xo'jalik organlari bu yillarda kolxozchi dehqonlarni, xotin-qizlarni bir yilda minimum 250-300 mehnat kuni, yoshlarni esa 100-200 mehnat kuni ishlashga chaqirdi. Bu chaqiriq Respublika qishloq ayollari tomonidan keng ma'qullandi. Bu chaqiriqdan ruhlangan kolxozchi xotin-qizlar Respublika dalalarida zarbdor mehnat frontini avj oldirib yuborishdi. Mehnat frontida, ayniqsa, Komsomol yoshlar, kolxozchi qizlar jonbozlik ko'rsatishdi.

1943-yilda 214 mingdan ziyod xotin-qizlar 200-300 mehnat kuni, 107 mingga yaqini kolxozchi xotin-qizlar 300-400, 40 mingga yaqini esa 400 dan ko'p mehnat kuni ishladi. Shunga qaramay, O'zbekiston paxta tayyorlash planini bajara olmadi. Davlatga 504 ming tonna paxta topshirildi xolos. Ammo o'zbekiston qishloq ayollarining urushni og'ir damlarida

mehnatda, qishloq xo'jaligining barcha sohalarida ko'rsatgan jasoratlari sovet xalqining fashist bosqinchilari ustidan erishilgan buyuk g'labani yaqinlashtirishda muhim hissa bo'ldi. 1944-yilda Toshkent sanoat korxonalari MTS lar uchun 300 ming tractor qismlari, qishloq xo'jalik mashinalri uchun 600 ming ehtiyot qismlari va 15 ming turli xil asbob anjomlarni yetkazib berdi. Bu albatta Respublika qishloq xo'jaligining texnik bazisini mustahkamlashda muhim ahamaiyatga ega bo'ldi[19].

Respublika paxta dalalarida yuqori hosil olish uchun kurash kolxoz dalalarida, brigadr, zveno va dala shiyponlarida, qishloq mehnatkashlari orasida ommaviy-siyosiy, partiyaviy targ'ibot va tashviqot ishlarini keng ko'lamda olib boorish bilan uzviy bog'landi. 1944-yil birinchi yarmida Farg'ona oblast kolxozlarida 2960 marta leksiya, dokladlar o'qildi. Toshkent oblastida esa agitatorlar va siyosiy axborotchilar tomonidan 3769 leksiya, suxbat va dokladlar o'qildi. Leksiya, suhbat va dokladlarni eshitishda 425 ming kishi ishtirok etdi[20].

Respublikamizda mehnatga layoqatli kolxizchilar 1944-yilda o'rta hisobda 311 ish kunidan ishlashdi. Qishloq xo'jaligi ishlarida Respublika bo'yicha 634 ,imgga yaqin xotin-qizlar mehnat qildi. Shundan 200 mingdan ortig'i bir yilda 200-300 ish kuni, 132 mingga yaqini 300-400, 61 mingdan ziyod ayollar esa 400 dan ortiq ish kuni ishladi[21]. Bu raqamalar O'zbekiston paxtakor ayollarning mehnat frontida, paxta uchun umumxalq kurashida ommaviy jasorat ko'rsatganliklaridan darak beradi. 1945-yil 18-20-yanvarda chaqirilgan Respublika paxtakorlarining ikkinchi qurultoyida mamlakatga bir million tonna paxta topshirish haqida majburiyat qabul qilindi. O'zbekiston partiya va sovet tashkilotlarining rahbarligida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish uchun kurash avj olib ketdi.

Respublika bo'yicha paxtadan yuqori hosil olish uchun kurashda 5 693 brigada va 9 620 zveno qatnashdi.

Yangiyo'l tumanidagi "Frunze" nomli kolxozdan M.O'rozboyeva boshliq zveno a'zolari 1945-yilda gektaridan 120 sentinerdan "oq oltin" olish uchun kurashdi. O'z K(b) P Markaziy Komiteti va Respublika Xalq Komissarlari Soveti 1945-yil 17-avgustda "1945-yilda paxta yeg'im terimi va uni tayayyorlash to'g'risida qabul qilingan qaror"ida Respublika partiya, sovet tashkilotlari, qishloq xo'jalik mutaxassislari oldiga yetishtirilgan paxta hosilini o'z vaqtida terib davlatga topshirish sohasida konkret vazifalar qo'ydi.

Respublika paxtakorlarining 1945-yilda erishgan yutuqlari munosabat bilan SSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoniga ko'ra 2 620 dan ortiq Respublika qishloq xo'jaligi ilg'orlari Sovet Ittifoqining orden va medallari bilan mukofotlandi.

**Xulosa.** Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki og'zaki suhbat orqali qilingan tadqiqotlarim natijasida yuqorida ta'kidlanganidek dalalarda hosilni nes-nobud qilmasdan terib olish uchun barcha sharoitlar yaratildi,yasli bog'chalari va uch mahal issiq ovqat bilan ta'minlandi kabi ma'lumotlar haqiqatdan yiroq chunki urush yillari oziq-ovqat muammosi tufayli kuniga bir mahal issiq ovqat berilsa ham ishchilar hursand bo'lishgan, endi bog'cha haqida bir og'iz so'z bolalarni bir xo'jalikdan bir ayol o'z zimmasiga olgan, qolganlar dalalarga ketishgan har 10-15 kunda ular uyiga kelib farzandlaridan xabar olib turishgan u ham brigadier ruhsati bilan qilingan. Ba'zan uyiga o'z ixtiyori bilan ketmoqchi bo'lganlarni kaltaklash holarlari ham kuzatilgan. Ammo shunday sharoitga qaramasdan ayollar fidokorona mehnat qilishda davom etishgan. Mana biz kimlarning avlodlarimiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Aminova R. H., Oxunova M. O., Inoyatov H. Sh., O'zbekiston SSR tarixi: 4 tomlik. T. 4. Sotsializm qurishni tugallash davri va mmunizmga o'tish (1938 - 1965 y.)/O'zSSR Fanlar akademiyasi, Tarix va Arxeologiya Instituti.82-84 b.
2. Ибрагимова А. Ю., Женщины Узбекистана в годы великой отечественной войны в помощь лектору. Ташкент. 1987 г. 10 с.
3. Aminova R. H., Oxunova M. O., Inoyatov H. Sh., O'zbekiston SSR tarixi: 4 tomlik. T. 4. Sotsializm qurishni tugallash davri va mmunizmga o'tish (1938 - 1965 y.)/O'zSSR Fanlar akademiyasi, Tarix va Arxeologiya Instituti.88 b
4. Ибрагимова А. Ю., Женщины Узбекистана в годы великой отечественной войны в помощь лектору. Ташкент. 1987 г.15 с.
5. Ибрагимова А. Ю., Женщины Узбекистана в годы великой отечественной войны в помощь лектору. Ташкент. 1987 г. 12 с.
6. Ибрагимова А. Ю., Женщины Узбекистана в годы великой отечественной войны в помощь лектору. Ташкент. 1987 г
7. 1941-yil 22 iyunda Toshkent to'qimachilik kombinatining ishchilari mitingga to'planib, shu daqiqadan boshlab o'zlarini Vatanni himoya qilishga safarbar etilgan deb hisoblashga qaror qilganliklarini aytdilar. "Tashselmash" zavodi ishchilari 1941-yil 23-iyundagi mitingda qabul qilingan rezolyutsiyasida aggressor ustidan tezroq g'alaba qozonmoq uchun har qanday topshiriqni sharaf bilan bajarishga, har qanday qutrbonlarni berishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.
8. Узбекская ССР.1981.-116. b.
9. Ибрагимова А. Ю., Женщины Узбекистана в годы великой отечественной войны в помощь лектору. Ташкент. 1987 г. 13 с.
10. Aminova R. H., Oxunova M. O., Inoyatov H. Sh., O'zbekiston SSR tarixi: 4 tomlik. T. 4. Sotsializm qurishni tugallash davri va mmunizmga o'tish (1938 - 1965 y.)/O'zSSR Fanlar akademiyasi, Tarix va Arxeologiya Instituti.119b.
11. Toshxo'jayeva N. O'zbekiston qishloq xotin-qizlari urush yillarida (1941-1945) Toshkent. Fan. 1985. 8 b.
12. O'sha kitob.10 b.
13. Папанов В., Экономика СССР в годы Великий Отечественной войны – Политическое самобразование. 1984, №8, с. 55
14. Toshxo'jayeva N. O'zbekiston qishloq xotin-qizlari urush yillarida (1941-1945) Toshkent. Fan. 1985.15 b.
15. O'sha kitob.17 b.
16. Правда востока 1944 г.,28 июня.
17. Toshxo'jayeva N. O'zbekiston qishloq xotin-qizlari urush yillarida (1941-1945) Toshkent. Fan. 1985.21 b.



UDK: 930.1:913.1

*Abduqaxxor MAXMUDOV,*  
*Namangan muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchisi*  
*E-mail: abduqaxxormaxmudov.2018@mail.com*

*NamDU dotsenti, PhD Y.Ortiqov taqrizi asosida*

### O‘ZBEKISTONDA TURIZM TARAQQIYOTIDA FARG‘ONA VODIYSI PICHQOQCHILIK MARKAZLARI TUTGAN O‘RNI

Аннотация

Mazkur maqolada turizm taraqqiyotida Farg‘ona vodiysining Chust, Shahrixon, Qo‘qon, Andijon kabi pichoq milliy pichoqchilik markazlari faoliyati, ustalar tomonidan sayyohlar ehtiyojiga qarab tayyorlanadigan pichoq turlari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek milliy pichoqlarga talabni oshirish maqsadida qadimda mavjud bo‘lgan va keyinchalik yo‘qolib ketgan uslublar qayta tiklangani xususida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** milliy pichoqchilik, dudama, dandon sopli, kerki sopli, qayqi, tol bargi, mardona, to‘g‘ri, kezik, qozoqcha, rufta pichoq, suviner pichoqlar.

### THE ROLE OF FERGANA VALLEY KNIFEMAKING CENTERS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN

Annotation

This article provides information on the activities of the national knife-making centers of the Fergana Valley, such as Chust, Shahrikhan, Koqan, Andijan, and the types of knives prepared by the masters according to the needs of tourists. Also, in order to increase the demand for national knives, there was talk about the restoration of styles that existed in ancient times and then disappeared.

**Key words:** national knives, dudama, tooth-handled, kerky-handled, kyqi, willow leaf, mardona, straight, kezik, Kazakh, rufta knife, souvenir knives.

### РОЛЬ ЦЕНТРОВ НОЖЕСТРОЕНИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье представлена информация о деятельности национальных центров ножевого изготовления Ферганской долины, таких как Чуст, Шахрихан, Кокан, Андижан, а также виды ножей, изготавливаемых мастерами в соответствии с потребностями туристов. Также с целью повышения спроса на национальные ножи заговорили о реставрации стилей, существовавших в древности, а затем исчезнувших.

**Ключевые слова:** национальные ножи, дудам, зубчатая рукоять, керкийская рукоятка, кыки, ивовый лист, мardona, прямой, кезлик, казахский, нож руфта, сувенирные ножи.

**Kirish.** Bugungi kunda xorijiy sayyohlarning yurtimizga qiziqishi yuqori darajada bo‘lib, o‘z o‘rnida turizmning muhim yo‘nalishlari hisoblangan ziyorat turizmi va etnoturizmning yanada rivojlantirishni talab etadi. “O‘zbekiston dunyo xalqlari uchun ochiq” shiori asosida qadimiy shaharlarimizda “ochiq eshiklar siyosati” olib borilayotganligi xalqaro turizmning taraqqiy etishiga sabab bo‘lmoqda[1]. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda e‘tibor beradigan jihatlari mavjud. Bunda birinchi navbatda xorijiy davlatlardan keluvchi sayyohlarning yoshi va jinsiga qarab ularni dam olishi hamda sayohatini tashkilining oqilona tizimining zarurligidir. Sababi, yosh sayyohlar vaqtlarini mazmuni o‘tkazishda dam olish maskanlariga, tarixiy shahar va arxeologik obidalar bo‘ylab sayohat xush ko‘rsa, katta yoshdagi sayyohlarga esa tabiat qo‘ynida dam olish hamda arxeologik yodgorliklarni ko‘rish, milliy hunarmandchilik mahsulotlarni xarid qilish, ulardan zavq olishga e‘tibor qaratadi[2]. Odatda, milliy qadriyatlar va an‘analarga targ‘ibotida etnoturizmning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan hunarmandchilik turizmi muhim ahamiyatga ega. Chunki, hunarmandchilik sohasini yuksaltiray turib, turizm sohasini to‘laqonli rivojlantirish mumkin emas [3].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekistonda xususan Farg‘ona vodiysida turizm rivojlanishi tarixiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan T.Safarov, G. Haydarov, M.Ortiqova, M.Mansurovlar o‘zlarining asarlarida turizm tarixi va uning rivojlanishida milliy hunarmandchilikning tutgan o‘rni xususida fikrlar berib o‘tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xalqimiz o‘zlarining pichoqchilik san‘ati tarixida yirik bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, har bosqich o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlar bilan farqlangan [4]. Har bir hududda mavjud pichoqchilik turlari o‘ziga xos uslublar bilan ajralib turgan. Shu orqali nom qozonib, odamlarda

qiziqish uyg‘otadi. Masalan, Chust, Shahrixon, Qorasuv, Qo‘qon va Andijon pichoqlari mashhur bo‘lib, tayyorlangan mahsulotlarini zamon talabiga moslab, milliylik ruhini aks ettirib, mahalliy hamda xorijiy fuqarolarga taqdim etilmoqda.

Hunarmandchilik turizmining o‘ziga xos taraflaridan biri shundaki, O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar hunarmandchilik markazlariga tashrif buyurganda tayyor mahsulotlarni emas, balki ushbu mahsulotlarning tayyorlanish uslubini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish, qo‘l mehnati jarayonini kuzatishga ham qiziqadilar. Shuni inobatga olib, Farg‘ona vodiysining Rishton, Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon, Chust va Shahrixon kabi hunarmandchilik markazlarida usta hunarmandlar xonadonida uy muzeylari tashkil etilgan[5]. Masalan, hozirgi kunda vodiydagi pichoqchilik markazlarida ham 10 ga yaqin uy muzeylari tashkil etilgan bo‘lib, bu yerga tashrif buyurgan mehmonlar uchun pichoq tayyorlash bo‘yicha master-klasslar ko‘rsatib berish yo‘lga qo‘yilgan.

Tahlil va natijalar. Turizmni rivojlanishida milliy pichoqchilikning ahamiyatini orttirish maqsadida sayyohlar talabiga moslab mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bunda ustalar pichoqlarni 4 turga ajratib tayyorlash maqsadga muvofiq deb qaraydi:

1. Uy-ro‘zg‘orda ishlatiladigan pichoq turlari. Bularga “to‘g‘ri pichoq”, “kezik pichoq”, “mardona pichoq”, “qayqi”, “tol bargi”, “qozoqcha”, “rufta pichoq”lar kiradi;

2. Sovg‘a sifatida tayyorlanadigan noyob pichoqlar turlarini yasash. Bularga eng qadimdan yasab kelingan “kerka sopli” va “dandon sopli” pichoqlar, “damashq pichoq”, “dudama pichoq”lar kiradi;

3. Suvenir sifatida tayyorlanadigan pichoqlar. Odatda, bunday pichoqlarning tig‘ qismi charxlanmay tayyorlanadi.

Suvenir pichoqlar tayyorlashda ustalar tomonidan milliy pichoqlar bilan birga qadimiy qilich va xanjarlar ham tayyorlanadi;

4. Tabiat turizmi davomida foydalaniladigan maxsus pichoqlar. Ushbu turdagi mahsulotlar milliy pichoqchilikdagi yangi yo'nalish hisoblanadi. Ushbu turdagi pichoqlar tog' yonbag'irlari, shahar va qishloqlardan chekka hududlarga dam olishga chiqqan sayyohlar uchun qulaydir. Maxsus teri qinlar tikilib, bir vaqtning o'zida ov pichog'i, chopqi, maxsus sixlar joylanadi. Bu esa sayyohlar o'rtasida eng xaridorgir mahsulot hisoblanadi[6].

Vodiyda turizmni rivojlanishida milliy pichoqchilikning o'rni orttirishda qinning ahamiyatiga katta e'tibor berilgan. Qadimdan qinning poynagi kumush, tilla kabi metallardan tayyorlangan va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Bu kabi pichoq qinlari istalgan odamni o'ziga jalb etishi mumkin. Hozirgi kunda ham sayyohlarga tayyorlanadigan souvenir pichoqlar uchun maxsus qin va pichoqdonlar yasash yo'lga qo'yilgan. Chunki, bunday mahsulotlarga bo'lgan talab doimo yuqoridir[7]. Tayyorlangan qinlar va pichoqdonlar tashqi tomonini bezatishda milliy naqshlardan keng foydalanish xaridorlarning o'ziga jalb qiladi. Shuningdek, pichoq qinlariga rangli toshlar qadalishi natijasida xaridorning unga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi, bu esa o'ziga xos marketingdir[8].

Bugungi kunda sayyohlarni aksessuar buyum sifatida qadrlanadigan pichoqchilikning vodiya Chust, Shahrixon, Qorasuv, Andijon va Qo'qon markazlari mavjud. Qorasuv pichoqchilik maktabi peshqadam ustasi Hamidullo Asqarov tomonidan yasalgan milliy pichoqlar xorijiy mamlakatlar, xususan, Rossiya, Ispaniya, Fransiya, Angliya, Isroil va Malayziyaga eksport qilinmoqda. Bundan tashqari vodiya pichoqchilik markazlarida tayyorlangan milliy pichoqlar turizm markazlari sanalgan Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm hududlariga ham aksessuar sifatida hunarmandchilik majmualarida sotish yo'lga qo'yilgan[9].

Pichoqchilik markazlarida tayyorlangan milliy pichoqlarga yoziladigan maxsus yozuvlar sayyohlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Milliy pichoqlarga "CHUST", Shahrixon yozuvlari bilan birga "CHUSTdan esdalik" yoki "Shahrixondan sovg'a" kabi yozuvlar ham yozish orqali pichoqlarni xaridorgirliги ta'minlanmoqda. Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy sayyohlar ismi hamda sharifini yozib berish yo'lga qo'yilgan. Sovg'a sifatida olingan pichoqlarga xorijiy, xususan, sayyohlar tashrif buyurgan davlatlarning rasmiy tillarida yozib berish orqali mehmonlarni mahsulotga bo'lgan talablarini orttirmoqda.

Bugungi kunda turizmni rivojlanishida pichoqchilik maktablarining o'rni ortib bormoqda. Farg'ona vodiysi pichoqchilik markazlari, xususan, Chust va Shahrixon sifat belgisi ostida 100 dan ortiq pichoq turlari mavjud. Masalan, Shahrixon pichoqchilik maktabining vakili Rahmatxo'ja Alixo'jayev sohani rivojlantirib, yangi bosqichga olib chiqdi. Peshqadam usta "yorma kumush sardasta", "suqma chelmexa" dastali, "qozoqcha", "damashq", "tolbargi", "qayqi"[10] kabi milliy pichoqlari bilan Isroil, Chexiya, Fransiya hamda Tojikistonda tashkil etilgan xalqaro tanlovlarda qatnashib faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Shuningdek, 2014-yilda ustaning xonadonida uy mehmonxonasi va muzey tashkil etilishi natijasida sayyohlar uchun mahsulot tayyorlash bo'yicha master-klasslar o'tib berish yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, Chust pichoqchilik maktabining peshqadam pichoqchi ustalaridan biri Rahimjon Ubaydulluyev ham uy muzeyi tashkil etgan bo'lib, bugungi kunda ko'plab mahalliy va xorijiy sayyohlarga milliy pichoqlar tayyorlab berish bilan birga AQSH, Angliya, BAA, Saudiya Arabistoni, Xitoy va Yaponiyaga eksport qilib kelmoqda[11].

Shahrixon pichoqchilik maktabi vakili, usta Rahmatxo'ja Alixo'jayev tomonidan tayyorlangan mahsulotlar Rossiya, Angliya, Isroil, Malayziya, AQSHga eksport qilinmoqda. Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm kabi turistik markazlarda ham aksessuar sifatida hunarmandchilik majmualarida sotish yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, shahrixonlik hunarmand Bahodir Aliyev uy muzeyi va sayyohlar uchun mehmonxonada tashkil etish natijasida

usta tayyorlagan milliy pichoqlar, souvenir xanjar, qilich hamda qinlar tayyorlash jarayonlari bilan sayyohlarni tanishtirish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, usta maktabi vakillari tomonidan "Damashq po'lati"ni qayta ishlash texnologiyasining o'zlashtirishi natijasida usta mahsulotlari va ish jarayonini ko'rish maqsadida xorijiy davlatlardan ham muntazam sayyohlar kelmoqda. Sayyoh va soha vakillarini "Damashq qilichi" nomi bilan mashhur asli qadimiy Axsikentda tayyorlangan qilichlarni qanday yasalishi jarayonlari qiziqtirib kelmoqda.

So'ngi yillarda turizmga sayyohlarni mumkin qadar O'zbekistonning diqqatga sazovor joylariga olib borish yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston, xususan Farg'ona vodiysiga tashrif buyurgan sayyohlar pichoqchilik markazlari faoliyati, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarining yasalish jarayoni bilan qiziqadi. Sayyohlik tashkilotlari tomonidan Chust - Shahrixon - Qorasuv - Qo'qon shaharlari bo'ylab 3 kunlik turpaketlar tashkil etilgan. Buning natijasida vodiya pichoqchilik ustalarining faoliyati bilan sayyohlarni tanishtirish yo'lga qo'yilgan[12].

Chust shahri "Ochiq osmon ostidagi temirchilik muzeyi" sifatida milliy pichoqlari bilan mashhur bo'lib, bu yerda tayyorlangan mahsulotlar xorijga, xususan Hindiston, AQSH, Turkiya, Polsha, Arab davlatlarida o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmalarida namoyish etilgan. "Chust" va "Shahrixon" tamg'asi souvenir sifatida har oy 100-150 ming dona pichoq ishlab chiqariladi. Dandon sopli, kerka sopli, kumush gubandli pichoqlar sayyohlar tomonidan sovg'a sifatida xarid qilinmoqda.

Masalan, chustlik usta Sodiq Mamajonov tomonidan milliy uslublarga tayangan holda 30 xil pichoq, souvenir qilich va xanjar tayyorlanib, hunarmandchilik turizmining yorqin brendi sifatida ham e'tirof etilmoqda. Sodiq Mamajonov va uning shogirdlari tomonidan Chust pichoqchilik maktabi an'alarini targ'ib qilish maqsadida uy muzeyi tashkil etilganligi sayyohlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Ustaxonada usta tomonidan sayyohlar uchun muntazam master-klasslar tashkil etib kelinmoqda[13].

Hozirgi kunda turizmni rivojlantirishda milliy pichoqchilik san'atini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Chunki, sanoat mahsulotlari mahalliy hunarmandlar faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Pichoqchilik hunarmandchiligini tarixiy an'alarini tiklash, uning barqarorligini saqlash uchun birinchi navbatda, turizmni sohasini rivojlantirish lozim. Turizm taraqqiyoti natijasida uzoq yillik milliy madaniy meros an'alarini va qadriyatlarini saqlab qolish hamda taraqqiyotga zamin yaratish mumkin. Hunarmandchilik turizmni rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad, turistik resurs sifatida milliy pichoqchilik san'atini kelajak avlod manfaatlarini ko'zlangan holda asrab qolishdan iborat.

**Xulosa va takliflar.** Vodiya pichoqlari jozibadorligi, shaklining soddaligi, silliqligi va pishiq-puxtaligi bilan xorijiy sayyohlarning qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Pichoqchilik maktabi an'alarini saqlab qolish maqsadida yirik hunarmandchilik markazi sanalgan Chustda "Chust pichoqlari" muzeyini tashkil etish konsepsiyasi va loyihasi ishlab chiqildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-27-iyun kunlari Namangan viloyatiga qilgan tashriflari chog'ida "Chust pichoqlari" muzeyi konsepsiyasi taklif sifatida namoyish etildi. O'z navbatida, ushbu taklif davlatimiz rahbari tomonidan ma'qullandi va hozirda bu boradagi amaliy ishlar boshlab yuborildi. "Chust pichoqlari" muzeyini tashkil etilishining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, u Namangan viloyatining turizm salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, turizm tarixiy-madaniy jarayonlar umuminsoniy sivilizatsiyalarni shakllantirish, etnos va xalqlarning o'zaro aloqalarini o'rnatish, bir-birining madaniyatini o'rganishini ta'minlash omilidir. Shu o'rinda, hunarmandchilik turizmni rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirishda muhim omildir. Hunarmandchilik turizmni rivojlanishi tarmoqqa oid urf-odat, an'analar va mahsulot tayyorlash texnologiyalarini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Эргашев У. Наманган вилоятида туризм тарихи // НамДУ илмий ахборотномаси. – 2018. – №4. – Б. 65.

2. Ҳамитнуров Ф. Т. Фарғона водийсининг туризм салоҳияти / Сборник материалов международной конференции “перспективы интенсивного подхода к инновационному развитию”. – Наманган, 2018. – Б. 6.
3. Сафарова Т. Этномаданий туризмни ривожлантиришнинг ижтимоий-маданий омиллари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2022. – Б. 30.
4. Ҳайдаров Ғ. Ўзбекистонда миллий анъанавий санъатнинг совет ва мустақиллик даврида ривожланиши тарихи (Фарғона водийси хунармандчилиги мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2011. – Б. 24.
5. Сафаров Б. Туризмни инновацион ривожлантириш истикболлари // Туризм маърифий интеллектуал газетаси. – 2017. – №11.– Б. 4.
6. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust shahri dehqon bozori. 2021-yil.
7. Жумаев А. Туризм соҳасини ривожлантиришда миллий хунармандчилик ўрни // Экономика. Научно-аналитический электронный журнал. – 2022. – Вып. 2. – Б. 125.
8. Dala yozuvlari Andijon viloyati Shaxrixon shahri Temirto'pi mahallasi. 2021-yil.
9. Ортикова М. Хунармандлар шаҳри. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – Б. 32.
10. Кушбакова А. М., Индиаминов С. И. Узбекские национальные ножи (история, виды и конструктивные особенности в аспекте судебно - медицинской экспертизы) // Вестник врача. – 2021. – №2. – С. 71.
11. Нурматов М.Ш. Ўзбекистонда миллий хунармандчилик ва туризмни ривожлантиришнинг ижтимоий-географик хусусиятлари (Фарғона минтақаси мисолида). – Тошкент: Фан, 2013. – 111 б.
12. Мансуров М. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980-2018 й.й.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация – Тошкент, 2020.– Б.109.
13. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Qo'qon shahri. 2022-yil.



UDC: 327:341.1/8(575.1):930

*Jovhar MUSEYIBZADA,*  
*PhD Candidate, Fergana State University*  
*E-mail: jovharmuseyibzada@pf.fdu.uz*

*Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universiteti dotsenti, t.f.f.d, Xatamova taqrizi asosida*

## INTERNATIONAL ORGANIZATIONS AS INSTRUMENTS FOR BUILDING STATE IMAGE: THE CASE OF UZBEKISTAN

Annotation

To enhance its global image and reputation, active participation in international platforms has been chosen as a priority task in Uzbekistan's foreign policy. Therefore, Uzbekistan attaches great importance to international organizations which help Uzbekistan to strengthen its global position. This article explores the country's activities within Organization of Turkic States by analyzing the country's approach in undertaking initiatives to build its international standing.

**Key words:** Uzbekistan, international organizations, reputation, image-building, rising regional power (RRP), cooperation, multilateralism, Organization of Turkic States.

## XALQARO TASHKILOTLAR O‘ZBEKISTONNING IMIDJINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya

O‘zbekiston Respublikasi jahondagi mavqei yuqori o‘rinlarda bo‘lishi uchun o‘z tashqi siyosatida xalqaro platformalarda faol ishtirok etishni prioritet vazifa qilib belgilagan. Shu bois O‘zbekiston davlatchiligi o‘zining global mavqeini mustahkamlash yo‘lida xalqaro tashkilotlarga katta ahamiyat berib kelmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi faoliyati o‘rganilib, mamlakatimizning xalqaro maydonda o‘z nufuzini ko‘tarishdagi tanlab olgan strategiyasi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, xalqaro tashkilotlar, reputatsiya, imidj yaratish, rivojlanayotgan mintaqaviy kuch, hamkorlik, ko‘p tomonlama diplomatiya, Turkiy davlatlar tashkiloti.

## МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ КАК ИНСТРУМЕНТЫ ПОСТРОЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО ИМИДЖА НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Для повышения своего глобального имиджа и репутации активное участие в международных площадках выбрано в качестве приоритетной задачи внешней политики Узбекистана. Поэтому Узбекистан придает большое значение международным организациям, которые помогают Узбекистану укреплять свои глобальные позиции. В данной статье исследуется деятельность страны в рамках Организации тюркских государств путем анализа подхода страны к реализации инициатив по укреплению своего международного имиджа.

**Ключевые слова:** Узбекистан, международные организации, репутация, создание имиджа, восходящая региональная держава, сотрудничество, многосторонность, Организация тюркских государств.

**Introduction.** State activities within IOs can be interpreted as directly or indirectly involving efforts that serve to improve its international image and reputation. New wave of scholarship acknowledge that states prioritize their reputation, identity, and sense of community as part of international society [1]. Careful and systematic construction of ‘state image and reputation’ across IOs, using broad repertoire of strategies, may result in positive perception of a state and its acceptance as ‘expert, mediator, impartial, reliable’ etc.

In this article, we will see how a rising regional power (RRP) wields its membership within IOs, and construct its identity and project a persona by initiating, leading and/or contributing to global policies despite its relatively limited capacity (i.e. material resources).

**Literature Review.** Rising regional powers highly regard the potential of international organizations as multiple-actor fora where they may act as norm entrepreneurs shaping global politics; engage in discourse; frame global issues; and construct new identities in their relationships [2]. Multilateralism is considered indispensable for RRP as a means to gain influence by using strategies like coalition-building and image-building [4]. In addition, within international bodies, RRP focus on policy areas of great importance or on direct benefits that are likely to compensate for their lack of overall structural power [4].

Former UN Secretary-General Kofi Annan reaffirmed that RRP ‘give well out of proportion to their size’ and ‘play a central and innovative role’ in all issue areas of the United Nations [5]. It is argued that when traditional power resources are less critical – typically relevant in conventional security matters –

and factors like diplomatic competence and discursive power are more significant, RRP can take on the role of a great power [6].

Therefore, RRP’s engagement in multilateral relations within IOs is driven by desire to emerge as international player with distinct character, which may lead to heightened activity within IOs as far as setting global agendas. RRP’s belief in ‘systemic role’ played by them equally defines rising powers’ attitude toward IOs [7]. Alan Chonga and Matthias Maass, professors of international studies, even exalt the power of ‘small powers’ which helps to stabilize international order by initiating efforts to address humanitarian and moral issues often overlooked by larger states, thus subtly influencing global affairs [8].

**Research Methodology.** This research paper investigates the following research question: “How does Uzbekistan build its image and reputation through participation in international organization?” To answer this question, the author consulted legal documents, literature on rising regional powers or ‘small powers’ as the literature refers, other official institutional documents, speeches, and relevant articles.

To support the core argument of this research paper, the article will illustrate various initiatives announced by Uzbekistan through an international organization in fields such as strengthening ecological restoration, promoting sustainable development, building stronger societal foundations, and investing in tourism, transportation, and logistics.

Analysis: Uzbekistan’s Strategic Initiatives in International Organizations. Since joining the Organization of Turkic States (OTS) in 2019, Uzbekistan has invigorated the organization’s unity and cooperative spirit. At the 7th Summit,

President Shavkat Mirziyoyev stressed Uzbekistan's historical and cultural contributions as a natural fit for the organization. It is noted that the country has been home to illustrious figures who have profoundly impacted science, culture, and religion, and whose works have united the Turkic world [9]. This approach earned legitimacy for the country's central role within the organization. Mirziyoyev's speech underscored that the legacy of these scholars and thinkers is a source of pride not only for Uzbekistan but for all Turkic states, reinforcing Uzbekistan's influential role within the organization.

Uzbekistan drives numerous initiatives, serving the enhancement of the organization's cohesion and development. Uzbekistan chaired the OTS in 2023. Under Uzbekistan's chairmanship, cooperative efforts expanded across 30 areas, being accompanied by over 100 events [10]. New structures, such as the Organization of Trade Unions of the Turkic States, the Academy of Space Research, and the Drought Prevention Institute were established.

By the proposal of Uzbekistan, 2022 was designated as the "Year of Support for Youth Initiatives". On the other hand, at the Samarkand Summit in the same year, President Shavkat Mirziyoyev proposed declaring 2023 as the "Year of the Rise of Turkic Civilization". During this summit, Uzbekistan put forward Samarkand's bid to be the "Capital of Turkic Civilization". Moreover, Bukhara was named the youth capital of the Turkic world, while the city of Kokand received the status of the 1st "Turkic World Tourism Capital" for 2022, and Khiva was designated as the "Cultural Capital of the Turkic World" in 2020.

Uzbekistan engages with the OTS via organizing new events, benefiting both organizational and country reputation. Uzbekistan hosted the 4th Meeting of Ministers in charge of ICT of the OTS in Samarkand, in October 2022, welcomed the 7th Meeting of the Ministers in charge of Education of the OTS, and the 3rd meeting of the Ministers of Health and the Turkic Medical World Congress both in Samarkand, in 2023. By leading these meetings Uzbekistan proves its active role in promoting cooperation and development in the fields of ICT, healthcare and education within the OTS.

In line with the "Year of Support for Youth Initiatives", Uzbekistan also suggested the creation of a Deputy Secretary-General for Youth Affairs within the organization [11]. The 7th Summit saw the President Mirziyoyev advocating for the establishment of a Forum of Young Entrepreneurs, which would reflect the significant youth demographic in Turkic states. OTS supported Uzbekistan's initiative to establish the 'Turkic Creative Youth Encouragement Center' and instructed the Secretariat to take the necessary actions for the realization of the project [12].

Uzbekistan paid attention to create cooperative synergy between OTS and other international organizations. To this end, formal relations between the OTS and the FAO were initiated by Uzbekistan to enhance agricultural cooperation. Additionally, the "Blessed Pilgrimage" (Tabarruk ziyorat) tourism concept of Uzbekistan aimed to leverage Uzbekistan's and other OTS members' rich pilgrimage heritage to strengthen ties within the Turkic world and between civilizations [13]. Linked to increasing tourism potential and common cultural legacy of Turkic states, the country also supported conferences dedicated to the works of Mahmud al-Kashgari, Yusuf Khass Hajib, and Al-Khwarizmi.

As will be mentioned in the following section, Uzbekistan extends its activity within the OTS to improving connectivity, modernization, and digitalization across transport and trade networks. Uzbekistan has gained widespread support for crucial infrastructure projects, including the construction of railway lines linking Uzbekistan with Kyrgyzstan, China, and Afghanistan with the purpose of becoming a transport hub [14]. Within the OTS framework, Uzbekistan has championed efforts to streamline transport and transit procedures through digitalization, exemplified by successful pilot projects such as the "e-Permit" initiative and the digital TIR project.

Uzbekistan advocates for the establishment of a Council of Railway Authorities based in the country [10]. Furthermore, Uzbekistan, alongside Azerbaijan and Turkey, spearheaded a pivotal meeting in Tashkent, in August 2022, emphasizing the strategic importance of the Trans-Caspian International East-West-Middle Corridor in connecting regions and facilitating trade.

**Conclusion and Discussion.** Uzbekistan's proposals to enhance the movement of funds, goods, and services within the ECO and revitalize the ECO Trade and Development Bank open up new sphere of influence for the country. By focusing on financial forums and trade centers, Uzbekistan positions itself as international economic player.

Moreover, Uzbekistan has prioritized becoming transport hub by developing critical transport corridors. The country distinguished itself with a focus on environmental protection, water resource management, and sustainable and green development. For instance, Uzbekistan undertakes initiatives like the 'High-level Dialogue Platform for Ecology.' There seems a chance for the country to emerge as expert in sharing best practices, and tackling climate change and environmental sustainability issues.

Uzbekistan's emphasis on youth initiatives and cultural heritage within the OTS highlights its commitment to fostering a sense of identity and pride among the Turkic states. Uzbekistan can expand the thematic scope of initiatives by organizing conferences that integrate issues like sustainable development into the cultural narrative. Uzbekistan's establishment of new organizational structures and hosting of various ministerial meetings showcase its proactive approach to institutional development. These efforts have expanded cooperative efforts across multiple sectors.

Uzbekistan's focus within the CIS is of broad nature too, encompassing institutional and economic revitalization as well as cultural and sporting initiatives. Uzbekistan is one of the few countries within the CIS with zealous emphasis on economic and institutional modernization.

In conclusion, Uzbekistan's initiatives within international organizations like the ECO, OTS, and CIS demonstrate its comprehensive approach to enhancing its global image and reputation. By advocating for economic integration, developing transport corridors, focusing on environmental sustainability, and promoting cultural heritage and youth initiatives, Uzbekistan positions itself as a proactive and influential player on the international stage. These efforts not only foster regional cooperation but also solidify Uzbekistan's identity as a forward-looking and dynamic nation, capable of contributing meaningfully to global discourses and developments.

## REFERENCES

1. Ingebriksen, Christine. "Norm Entrepreneurs: Scandinavia's Role in World Politics." *Cooperation and Conflict* 37, no. 1 (2002): 11–23.
2. Neumann, Iver B., and Sieglind Gstöhl. "Lilliputians in Gulliver's World?" In *Small States in International Relations*, 3–36. New Directions in Scandinavian Studies. United States of America: University of Washington Press, 2006.
3. Long, Tom. "It's Not the Size, It's the Relationship: From 'Small States' to Asymmetry." *International Politics* 54, no. 2 (February 14, 2017): 144–60. <https://doi.org/10.1057/s41311-017-0028-x>.
4. Thorhallsson, Baldur, and Sverrir Steinsson. "Small State Foreign Policy." In *Oxford Research Encyclopedia of Politics*, 1–25. Oxford University Press, 2017. <https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190228637.013.484>.
5. United Nations. "Secretary-general lauds role of small countries in work of united nations, noting crucial contributions," July 15, 1998. <https://press.un.org/en/1998/19980715.sgsm6639.html>.
6. Thorhallsson, Baldur, and Anders Wivel. "Small States in the European Union: What Do We Know and What Would We Like to Know?" *Cambridge Review of International Affairs* 19, no. 4 (December 1, 2006): 651–68. <https://doi.org/10.1080/09557570601003502>.

7. Keohane, Robert O. "Lilliputians' Dilemmas: Small States in International Politics." In *Small States in International Relations*, 55–76, 1969.
8. Chong, Alan, and Matthias Maass. "Introduction: The Foreign Policy Power of Small States." *Cambridge Review of International Affairs* 23, no. 3 (September 2010): 381–82. <https://doi.org/10.1080/09557571.2010.505131>.
9. Ministry of Foreign Affairs Republic of Uzbekistan. "New milestone in centuries-old friendship and strengthening fraternal ties." State, October 16, 2019. <https://www.mfa.uz/en/en/press/news/2019/new-milestone-in-centuries-old-friendship-and-strengthening-fraternal-ties---22539>.
10. President of the Republic of Uzbekistan. "Address by the President of the Republic of Uzbekistan H.E. Shavkat Mirziyoyev at the Tenth Summit of the Heads of State of the Organization of Turkic States." Official, March 11, 2023. <https://president.uz/en/lists/view/6831>.
11. President of the Republic of Uzbekistan. "Address by President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the Meeting of the Council of Heads of State of the Organization of Turkic States." State, November 11, 2022. <https://president.uz/en/lists/view/5687>.
12. "Declaration of the Tenth Summit of the Organization of Turkic States." Organization of Turkic States, November 2023. <https://www.turkicstates.org/en/temel-belgeler>.
13. Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida, PQ-338 § (2022). <https://lex.uz/uz/docs/-6137065>.
14. "Samarkand Declaration of the Ninth Summit of the Organization of Turkic States," November 2022. <https://www.turkicstates.org/en/temel-belgeler>.





UDK: 902.03(575.1)

*Yakubdjan MUXAMEDOV,*  
*Doktor of philosophy in history (PhD) senior teacher National university of Uzbekistan*  
*E-mail: mukhamedov-2017@mail.ru*

*Urganch davlat universiteti professori, t.f.d O'. Abdullayev taqrizi asosida*

## DIPLOMACY RELATIONS OF THE WESTERN TURKIC KHAGANATE WITH BYZANTIUM

Annotation

The article scientifically highlights and analyzes the social, economic and political relations of the Western Turkic Khaganate with the Byzantine Empire, i.e. diplomatic correspondence based on written and archaeological sources as well as a number of studies by foreign and Uzbek scientists on this issue.

**Key words:** West Turkic Kaganate, Byzantium, Eftalites, Sughd, Maniax Ashina, golden mountain, Zemarx, Talas, diplomacy, Kagan, Yabgu, Great Silk Road.

## ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ ЗАПАДНОГО ТЮРКСКОГО КАГАННАТА С ВИЗАНТИЕЙ

Аннотация

В статье на научной основе освещены и проанализированы социальные, экономические и политические отношения Западно-Тюркского каганата с Византийской империей, т.е. дипломатические переписки на основе письменных и археологических источников, а также ряд исследований, зарубежных и узбекских ученых по данному вопросу.

**Ключевые слова:** Западнотюркский каганат, Византия, эфталиты, Сугд, Маниах, Ашина, золотая гора, Земарх, Талас, дипломатия, ябгу, каган, Великий шелковый путь.

## G'ARBIY TURK XOQONLIGI VA VIZANTIYA O'RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

Annotatsiya

Maqolada G'arbiy Turk xoqonligining Vizantiya imperiyasi bilan olib borgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlari, elchilik aloqalari yozma va arxeologik manbalar asosida yoritilgan bo'lib, mazkur masalani tadqiq qilishda asosan xorijlik va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy qarashlari bo'yicha keltirilgan ma'lumotlari ilmiy asosda tahlil qilinib yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** G'arbiy Turk xoqonligi, Vizantiya, Eftaliylar, Sug'd, Maniax, Ashina, Oltin tog', Zemarx, Talas, Yabgu, xoqon, elchi, Buyuk ipak yo'li.

**Kirish.** Jahon siyosiy sahnasiga kirib kelgan G'arbiy Turk xoqonligi Markaziy Osiyoda va unga tutash bo'lgan yerlarda deyarli ikki asr davr oralig'ida (568-740) yirik davlat sifatida tashkil topgan. U Markaziy Osiyo Sharqiy Turkiston hududlari mintaqasida o'z boshqaruviga ega davlat xisoblanadi. Shu boisdan G'arbiy xoqonlikning Vizantiya imperiyasi bilan olib borgan diplomatik munosabatlarini tadqiq qilish nafaqat Jahonda balki O'zbekiston davlatchiligi tarixida ham tobora qiziqish ortib borayotgan mavzulardan biri xisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur masalani tadqiq qilishda tadqiqotchi olimlardan: Viven de Sen-Marten Lebo, E. Chavannes, I. Markvart, M. Artamonov, S.P Tolstov, E. Shavan, P. Shyuven, va G'. Boboyorov va Yapon turkologlari N. Midori va T. Osavagalar hamda vizantiyalik tarixchi Feofilakt Simokatta kabilarning asarlari mavzuning ilmiy manbasi xisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu mavzuni yoritishda, tarix fanida tan olingan tizimli qiyosiy tahlil, tarixiylik, muammoviy va fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** G'arbiy Turk xoqonligi tashqi siyosiy munosabatlarda Xitoy, Vizantiya, Eron kabi qo'shni davlatlar bilan olib borgan aloqalarini o'rganish dolzarb mavzulardan biridir.

XX asrning ikkinchi yarimiga kelib, G'arbiy xoqonlik va Vizantiya o'rtasidagi diplomatik aloqalarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bordi. Jumladan, I. Markvart va M.I. Artamonov, E. Chavanneslar bu masalani tadqiq qilishda, G'arb va Sharq manbalarini o'zaro qiyosiy solishtirish asosida Turk xoqonligi bilan Vizantiya o'rtasidagi elchilik munosabatlariga ko'proq e'tibor qaratishgan. Biroq, G'arbiy xoqonlik va Vizantiya o'rtasida yuzaga kelgan siyosiy masalalar o'rganilmay qolib ketadi. Keyinchalik bu borada S.P. Tolstov izlanishlari davomida Turk xoqonligi davri tarixini tadqiq qilish maqsadida Vizantiya manbalarini fors tarixchilari Narshaxiy, At-Tabariy va Feofilakt

Simokatta asarlarida keltirilgan birlamchi manbalarga murojat qilish asosida masalaga oydinlik kiritishga muvaffaq bo'lgan.

Milodiy V asrning oxiri VII asr boshlarida Yaqin va O'rta Sharq hududlarida ipak savdosiga bo'lgan talab ortib bordi[1]. Bu Vizantiya tashqi siyosatini belgilashda muhim omil bo'lgan. Ipak maxsulotini yetkazib berish va sotishda nafaqat Vizantiya balki, uning raqiblari Forslar, Efiyopiyaliklar, shuningdek G'arbiy Osiyodagi arablar, sug'dliklar va turklar manfaatdor bo'lganlar[2]. Turklar va Vizantiya o'rtasida savdo aloqalar keng doirada olib borilmagan. Chunki har ikki hududni bog'lashga hizmat qiluvchi yo'llardagi qiyinchiliklar (saxro cho'llar va tog'lar) deyarli bunga imkon bermagan[3]. Tog'-kon metallurgiya sohasidagi yutuqlar natijasida qo'lga kiritilgan yangiliklar xususan, ot ulov vositalari aravalarni takomillashuvi savdo karvonlarini bepayon cho'l va saxrolar, tog'lardan o'tishdagi qiyinchiliklarga barxam bergan.

G'arbiy Turk xoqonligi tashqi siyosiy munosabatlarda Vizantiya bilan olib borgan aloqalari alohida axamiyat kasb etgan. Xususan, Kanstantinopol G'arb va Sharqni bog'lovchi oltin ko'priq vazifasini bajargan bo'lib, Hindistonga yo'l ochilgunga qadar aynan shu yer savdo markazi vazifasini bajarib kelgan. Xitoydan keltirilgan Ipak xomashyosi va turli gazlama mahsulotlar shu yerda to'planib so'ng G'arbga olib ketilgan[4].

Vizantiya davlatining Turk xoqonligi bilan yaqinlashuviga yana bir muhim ular ipak maxsulotini sotib olishdagi omil forslar ipak savdosiga egalik qilishib uning narxini oshirib yuborishar edi[5]. Bu xolat esa Vizantiya savdogarlariga juda qimmatlik qilar bu esa ularga bo'ysunishi zaruriyatini yuzaga keltirganligida edi. Vizantiyaga ko'p miqdorda ipak yetkazib berilishi har ikki xalq uchun ham katta foyda keltirgan. Vizantiyada ipakning qiymati qimmatbaxo toshlar bilan teng miqdorda baholangan [6]. Lekin bu ishni amalga oshirishda bir to'siq bor edi, ya'ni Vizantiyaga olib boruvchi savdo yo'li Sharqiy Eron orqali o'tgan va Sosoniy hukmdorlari bu yo'lda savdo aloqalarini doimiy nazoratda ushlab turganlar[7]. Vizantiyada ipak mahsulotlariga talabning ortishi Eron Sosoniylarini ipakning

narxini oshirishiga sabab bo'lgan. Buni natijasida, ular ipakdan keladigan daromadni xarbiy qo'shinni kuchaytirishga yo'naltirishadi. Bundan shu narsa ayonki, Eron sosoniylarini xarbiy qudratini bir necha bor ortishiga aynan savdo yo'lidan keladigan daromad bo'lgan. Vizantiya bunday qiyin holatdan chiqib ketishda Turkklarga suyana boshlagan. Bu vaqtda turklar Xitoydan katta miqdordagi ipak mahsulotlarini to'lov sifatida olar edilar. G'arbiy Turk xoqonligining Vizantiya bilan aloqa o'rnatishda o'zaro manfati borligini ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, Buyuk Ipak yo'lida xaridorgir bo'lgan mahsulotlarni qiymatini belgilash, ularni transport vositalar yordamida yetkazib berish, yoki karvon savdosida birinchi qo'ldan sotib olish qobiliyatiga ega bo'lganlar. Bu imtiyoz har ikki imperiya uchun juda zarur bo'lgan. Vizantiya imperiyasida yuksak mavqega ega bo'lgan hunarmandchilik va savdo nafaqat O'rta yer dengizida, balki Kichik Osiyoda katta o'rinda turgan.

Nima uchun endi aynan ipak maxsuloti? Bizga tarixdan ma'lumki, davlatlarning o'zaro iqtisodiy raqobati, biror bir shu davr uchun muhim bo'lgan tovarning savdosi uchun kurash antik davrda ham ma'lum bo'lgan. Chorvadorlardan olingan jun mahsulotlaridan tayyorlangan mahsulotlar, ayniqsa ipak bu davr uchun xalqaro savdoda eng xaridorgir hisoblangan. Ipak Xitoyda yaratilgan bo'lib, uzoq yillar davomida uni tayyorlash texnologiyasi oshkor qilinmasdan kelingan[8]. Jahon bozorida ipak maxsuloti oltinga teng baholangan[9]. Chunki, ushbu mahsulotdan tayyorlangan liboslarni saroy ayonlari, shahzodalar turli bayramlar va to'y marosimlarda kiyganligi ma'lum. Xatto ibodatxonalarni bezashda ham aynan ipakdan unumli foydalanishgan[10].

G'arbiy Turk xoqonligi va Vizantiya imperiyasi o'rtasidagi ilk elchilik munosabatlari 563-yilda o'rnatilgan Turkklarning Nu-shi-pi qabilasining boshlig'i Akselni yuboradi[11]. Nima uchun xoqonlar elchilik munosabatlarni olib borishda sug'dliklardan ko'proq foydalanishgan. Sug'dliklarni aynan elchi sifatida tashrif buyurishlariga asosiy sababi; birinchidan sug'd yozuvi va tili xalqaro maqomdagi til hisoblangan; ikkinchidan sug'dliklar xalqaro savdoda va turli xalqlarni tilini madaniyatini bilishi, uchinchidan esa O'rta Osiyodagi savdo yo'llari o'tgan shaharlar atrofida istiqomat qilishi; to'rtinchidan xalqaro savdoda yetakchi o'rinda turishi bilan asoslab o'tish mumkin. Bu holat esa, ularning savdo sotiqdagi va siyosiy hayotdagi mavqeini oshishiga xizmat qilgan.

568-yilda sug'dlik Maniakh boshchiligidagi elchilar Sosoniylar davlatiga ipak maxsuloti bo'yicha kelishuv bitimini tuzish uchun tashrif buyurganlar biroq, elchilarga nisbatan qilingan suiqasd aloqalarning uzilishiga sabab bo'lgan bo'lsa, buning natijasida Turk xoqonligi va Vizantiya davlati o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamlanishiga olib kelgan. Shu munosabat bilan 568 – yilda Istami xoqon navbatdagi elchilar guruhini Kanstantinopol shahriga yuboradi unga sug'dlik Maniakh boshchilik qiladi. Xoqon elchilari Vizantiya imperatori Yustinian II (565-578) qabulida bo'ldilar. Tarixchi Menandr ma'lumotiga ko'ra, elchilar imperatorga Istami yabg'uning "skif" xatini o'qib berishganligini ta'kidlab o'tadi[12]. Muzokaralardan so'ng imperator elchilar tarkibidagi savdogarlarga Kanstantinopolda erkin savdo qilish imtiyozlarini bergan. Savdogarlar ipak mato va boshqa buyumlarini sotib, Rum mollarni xarid qilganlar [13]. An'anaga ko'ra, shartnoma imzolanganach, unga sodiqlikka ont ichilgan. Shartnomada Eron hududidan savdo yo'lini ochish ham ko'zda tutilgan edi. Elchi Maniaxning Vizantiyada amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalaridan yana biri o'zaro savdo munosabatlarni tartibga solish, qo'shni fors va avarlarga qarshi birgalikda kurashish, Buyuk ipak yo'lida savdo qilish imtiyozlariga ega bo'lish kabi masalalar ham o'rin olgan. Sharq va G'arbn bog'lovchi savdo karvon yo'lini o'z nazoratiga olishi turklarning iqtisodiy ustunligini ortishiga olib kelgan[14]. Har ikki tomon iqtisodiy, diplomatik va harbiy ittifoq xarakterdagi shartnomalarni imzolashgan. Vizantiya manbalaridagi ma'lumotlarga ko'ra, xoqonlik elchilari Eftalitlarni batamom mag'lub etib uning tarkibida bo'lgan yerlar endi turklar qo'l ostiga o'tganligi haqidagi xabarni keltirib o'tishadi[15].

568 – yil avgustda Vizantiya hukmdori Yustinian II javob tariqasida Zemarx boshchiligidagi elchilar guruhini yuboradi. Mazkur elchilik aloqalari xaqida Menandr o'zining Tarix asarida

Turklarni Oltoy hududlarida yashashi, harbiy mahorati ularning nasl nasabi, turmush tarzi va ana'naviy qadriyatlarini, unvon va mansablari hususida hamda Istemi yabg'uning asosiy qarorgohi joylashgan markazi (tog') haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan[16].

G'arbiy Turk xoqonligining Vizantiya bilan yaqinlashuvi Eronni o'z elchilarini xoqon huzuriga yuborishga majbur qildi. Istami yabg'u vizantiyaliklar ko'z oldida Eron elchilariga nisbatan Xusrav I qilgan xatti xarakatiga munosabat bildirgan. Xususan Istami shoh elchilarni qabul qilib, Zemarx oldida ularga tanbeh berib, o'lpon to'lashdan bosh tortganlikda ayblagan[17].

Zemarx Istemi huzuriga kelganida uni "Oltin tog'" degan joyda qabul qilganligi xaqida ham qaydlar o'rin olgan. Tarixchi Feofilakt Simokatta o'z asarida Turk xoqonining qarorgohi joylashgan «Oltin-tog'» xaqida quyidagi misralarni bayon qilib o'tgan: «Turklarda shunday qonun borki, unga ko'ra, eng qudratli xoqon oltin tog' ustida joy oladi. Bu tog' o'zining unumdorligi, meva va podaga boyligi bilan ajralib turadi. Sog'lik uchun foydali va bu yerda zilzila juda kam sodir bo'ladi»[18]. Xoqon Tardu esa 598 yilda Vizantiya imperatori Mavrikiyga yuborgan maktubida o'zini «dunyodagi yetti iqlimning egasi va yetti irqning xoqoni» [19] deya ta'riflagan. Mazkur tog' hususida olimlardan E. Shavan, P. Shyuven, va G'. Boboyorovlar ham o'z ilmiy mulohazalarini bildirib o'tganlar. Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ma'lumki, xoqon Istami Vizantiyadan kelgan elchilarni Oltin tog' degan manzilda (yettisuvdagi) qabul qilgan bo'lishi mumkin. Vizantiya tarixchisi Menandr Istemi yabg'u elchi Zemarxni hashamdor holatda bezatilgan o'z chodirida qarshi olishi, chodir ichidan o'rin olgan oltin taxtda zalvorli holda o'tirgani uning atrofida oltin va kumush idishlaru turli anjomlar ortilgan aravalar joy olganligini ham bayon qilgan[20].

G'arbiy Turk xoqonligi va Vizantiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar keyinchalik ham davom etgan, 560 – 570 yillar oralig'ida ham bir necha bor tashrif buyurganliklari xaqida atroficha ma'lumotlar keltirilgan[20]. Bunday elchilik munosabatlari xoqonlik tarkibida bo'lgan hududlar uchun ham ruxsat berilgan bo'lib, bu faqat (Xvalis) Xorazimliklarga berganligini ko'rish mumkin [21]. Bu davrda xorazmliklar dasht yerlarida savdo qilish bo'yicha tajriba mahorati yuqori bo'lgan.

Istemi Yabg'u Vizantiyaga Tag'ma Tarxon va Xorazmshoh Afrig'iyning elchilarini birgalikda qo'shib Kanstantinopolga yuboradi[22]. Bundan xabar topgan Sosoniylar ular yo'lga pistirma qo'yadilar. Biroq, ko'chmanchilar elchilarni Vizantiyaga bexatar yetib olishlariga imkoniyat yaratib berganlar[30]. Har ikki davlat o'rtasidagi elchilar almashuvi 576-yilga qadar davom etgan.

Tarixchi Menandr o'zining "Agafiyev tarixining davomi" asarida keltirishicha elchi sifatida Valentin Mechenosets (Qilichbardor) Vizantiyadan yettisuvga tashrif buyurganligi haqida ma'lumot beradi [23]. Asarda keltirilishicha ushbu elchilik munosabatlardan ko'zlangan asosiy maqsad:

Xalqaro savdoda ipak mahsulotlari narxini kelishib olish;

Savdo – sotiq ishlarini olib borishda, bozorlarda erkin savdo qilish;

Savdo yo'llarida yuzaga kelayotgan qaroqchilik xujumlarini birgalikda bartaraf etish;

Shartnomada keltirilgan masalalar xususida o'zaro kelishuv amalga oshirilib ikki davlat uchun ham katta manfaat keltirgan.

Istami yabg'uning o'g'li Turksanf (Turk-shad) (576-586) 576-yilda Ural daryosi yaqinida Vizantiya elchisi Valentin bilan uchrashadi[24]. Ushbu uchrashuvda elchi Vizantiyaliklar ikki tomonlama siyosat olib borayotganligini bu holat yaxshilik alomati emasligi xaqida o'z noroziligini bildirib o'tadi. O'zaro ziddiyatni yuzaga keltirgan omil sifatida Yustinian II ning avarlar bilan munosabat o'rnatganligi ko'rsatib o'tilgan. Bu vaziyat natijasida Turklarning biroz vaqtdan so'ng Qrimga qarshi xarbiy xarakat boshlab Bosfor Kavkazdagi Abxaziya, Benjer va Belenjerlarni[25] egallab olishiga sabab bo'ladi, Bosfor amalda Vizantiyaning mustamlakasi bo'lgan. Shuningdek, xarbiy xarakatlar davrida Qrimga yaqin hududlarda yashovchi Alanlar va Qutrig'ur qabilalari xoqonlik tarkibida bo'lgan [26]. Turklarning bu hududlarni egallab olishlari Vizantiya bilan siyosiy ziddiyatlarni yuzaga kelishiga olib kelgan. 582-yilda boshlangan

xarbiy kurashlar 593-yilda turklar foydasi bilan nihoyasiga yetgan[27]. Xarbiy xarakatlarning tugatilishiga yuzaga kelgan ichki tartibsizlik va nizolar sabab bo'lgan.

Xoqonlik va Vizantiya o'rtasida elchilik munosabatlarni 588-589 yillarda Sharqiy Turk xoqoni Tarduxon yana qayta tiklaydi[28]. Xususan, 588-yilda turklar hokimi Qoracho'rin hazorlar va Vizantiyaliklarning ko'magi bilan Eron sosoniylariga qarshi harbiy xarakat boshlaydi. Sosoniylar sarkardasi Bahrom Cho'bin turk qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratadi[29]. Natijada ushbu jang turklarni tannazulga yuz tutishiga sabab bo'lgan. Ichki ziddiyatlarning avj olishi esa o'zaro ittifoqchilik munosabatlarda xech qanday o'zgarishlar ro'y bermaganligini anglatadi.

Mazkur ziddiyatlar 598-yilga kelib tugatilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Bu haqida xoqon tomonidan Kanstantinopol shahriga yuborilgan elchining imperator Mavrikiyga bergan xisobotida xoqonlikdagi barcha ichki ziddiyatlarga barxam berilganligi u yerda hozir osoyishtalik va tinchlik hukm surayotganligi haqidagi ma'lumotidan anglash mumkin[30]. Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, ichki ziddiyatlar biroz to'xtaganligini anglatadi, biroq bu kurashlar xokimiyatni avvalgi nufuzini tiklab olish imkonini bermagan.

Tun yabg'u xoqon davriga kelib, elchilik munosabatlari yana qayta tiklanadi. 622 yilda Vizantiya imperatori Irakliy Andrey boshchiligidagi o'z elchilarini ittifoq tuzish uchun yuboradi[31]. Ushbu tuziladigan ittifoqdan ko'zlangan asosiy maqsad; Sosoniylarga qarshi birgalikda kurashish edi. Tun yabg'u xoqon elchini talab va taklifini qabul qiladi hamda elchiga qo'shib

1000 ga yaqin qo'shin bilan kuzatib yuboradi. Elchilar Darbandan o'tib kura daryosi orqali imperator huzuriga boradilar [32]. G'arbiy Turk xoqonligi tomonidan yuborilgan 1000 kishidan iborat jangchilar deya ma'lumot berilgan bo'lsada, aslida ularning hammasi ham jangchilar bo'lmasdan ma'lum bir qismi savdogar tujjorlarni tashkil qilgan. Sababi ko'plab elchilar bilan birga savdogarlar ham qo'shib yuborilgan edi ular savdo bahonasida ko'plab ma'lumotlar to'plash vazifasi ham yuklangan edi.

Umuman olganda Vizantiya – O'rta Osiyo munosabatlari to XIII asr – Vizantiya imperiyasi tugagunga qadar davom etgan [33].

**Xulosa va takliflar.** G'arbiy Turk xoqonligi va Vizantiya o'rtasida olib borilgan diplomatik munosabatlar xar ikki davlat uchun xam manfaat keltirdi. Ushbu mavzuni yoritish borasida ko'pgina masalalarni xal qilish imkonini berdi. Jumladan,

1. G'arbiy Turk xoqonligi Buyuk ipak yo'li ustidan nazorat qilish xuquqini qo'lga kiritdilar.
2. G'arbiy Turk xoqonligi va Vizantiya bilan birgalikda avarlar va forsarlarga qarshi birgalikda kurashda ittifoqchi bo'lib ularni mamlakat hududlaridan siqib chiqardilar.
3. Vizantiya bilan erkin savdo munosabatlarini olib borishda turklar katta imtiyozlarga ega bo'ldilar.
4. G'arbiy xoqonlik savdogarlari Vizantiya hududida erkin savdo qilish huquqini qo'lga kiritdilar.
5. Xoqonlik o'z savdo provensiyalarini Vizantiya bozorlarida tashkil qilish xuquqini qo'lga kiritdilar.

#### ADABIYOTLAR

1. Пигулевская Н.В. Византийская дипломатия и Торговля Шелком в V-VII ВВ. Византийский Временник. \ М. Академик Изд. - 1947.С.184-185
2. Гумилёв Л. Қадимги турклар. Т. “Фан” 2007. Б.49-50
3. Golden P. V. Hazar Çalışmaları. Çev. E. Ç. Mızrak. – İstanbul: Selenge, 2006. – S. 49-50
4. Бобоёров Ф. Фарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми. Тошкент. Янги Нашр 2018.- 6.69
5. 11.Пигулевская Н.В. Византийская дипломатия и Торговля Шелком в V-VII ВВ. Византийский Временник. \ М. Академик Изд. - 1947.С.184-185
6. 12.Менандр Продолжение истории Агафьевой // Византийские историки. Пер. с греч. С. Дестуниса. СПб. 1861.- С. 375.
7. Пигулевская Н.В. Византийская дипломатия и Торговля Шелком в V-VII ВВ. Византийский Временник. \ М. Академик Изд. - 1947.С.185
8. Пигулевская Н.В. Византия по пути в Индию. М. Академик Изд – С. 203;
9. Феофилакт Симокатта. История // Великая степь в античных и византийских источниках. Сборник материалов. Сост. и ред. А. Н. Гаркава. – Алматы: Баур, 2005.
10. Жданович О.П. Посольство земарха в ставку Тюркского кагана (перевод и комментарии фрагментов Труды менандра протектора) // Золотоордынское обозрение. № 2(4). 2014. С.8
11. Зинатуллаев З.И Турк хоқонлиги бошқаруви даврида марказий осиедаги ижтимоий-сиёсий вазият/ "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) II/2020. Б. 225
12. Turan O. Türk Cihan Hâkimiyeti Mefkûresi // TÜRKLER, 2. Cilt. Yeni Türkiye Yayınları, Ankara, 2002. – S. 850.
13. Golden P. V. Hazar Çalışmaları. Çev. E. Ç. Mızrak. – İstanbul: Selenge, 2006. – S. 49-50
14. Osawa T. The cult-religious relation between Old Turkic kingship and their sacred mountains in the early periods of the Western Old Turkic Kaghhanate // Культурное наследие. – Астана, 2009. – № 1. – P. 47–56.
15. Отахужаев А. Илк урта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Тошкент. - Art FLEX. Б.48.
16. Бобоёров Ф. Турк хоқонлиги даврида Суғд // Шарқшунослик. – Тошкент, 2002. – № 11. – Б. 123–124.
17. Зуев Ю.А. Ранние тюрки. Очерки истории и идеологии Алматы. “Дайк Пресс” 2002 – С. 189–190.
18. Феофилакт Симокатта. История... – С. 285; АртамоновМ. И. История Хазар. – Л.: Изд-во Государственного Эрмитажа, 1962. – С. 138; Гумилев Л. Н. Древние тюрки. – М.: Наука, 1967. – С. 107–108, 116–117.
19. Golden P. V. Hazar Çalışmaları. Çev. E. Ç. Mızrak. – İstanbul: Selenge, 2006. – S.50
20. Артамонов М. И. История Хазар. – Л.: Изд-во Государственного Эрмитажа, 1962. – С. 154-156
21. 28,29,30. Пигулевская Н.В. Византийская дипломатия и Торговля Шелком в V-VII ВВ. Византийский Временник. \ М. Академик Изд. - 1947.С.184-185
22. Шювен П. О Византийских посольствах к первым тюркским правителям Согда (Проблемы ономастики и топонимики) // Общественные науки Узбекистана. – Ташкент, 1995. – № 1–3 С.33 - 38.
23. Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. – İstanbul: Selenge, 2007. – S. 301. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар... – Б. 48; Harmatta J., Litvinsky V.A. Toharistan and Gandhara under... – P. 367.
24. Массон М.Е. К вопросу о взаимоотношениях Византии и Средней Азии по данным нумизматики. – С. 91–104.



UDK:94(575.1.003.3)

Jamshid PIRIMQULOV,

O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi filiali Toshkent muzeyi bo‘lim mudiri, katta ilmiy xodimi, PhD

E-mail: jamper180888@gmail.com

O‘zFA Tarix instituti bo‘lim boshlig‘i, PhD M.Darmonova taqrizi asosida

### SCIENTIFIC ACTIVITY OF TASHKENT JADIDS

Annotation

The article examines the scientific and spiritual activities of Tashkent enlighteners in the late 19th - early 20th centuries, and their reforms in educating generations in the spirit of their traditions. In addition, the article includes scientific discussions about the first Uzbek alphabet put forward by the Jadids. The advanced ideas they put forward, aimed at improving social development and spiritual appearance, are of great importance today.

**Key words:** Jadid, charity society, tutorial book, brochure, periodical, dramaturgy, theater, etc.

### TOSHKENTLIK JADID NAMOYONDALARINING ILMIY FAOLIYATI

Аннотация

Maqolada XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Toshkent shahrida yashab ijod qilgan ma‘rifatparvarlarning ilmiy-ma‘naviy faoliyati, avlodlarni ajdodlarimizning ezgu an‘analari ruhida tarbiyalash borasidagi islohotlari tadqiq qilingan. Bundan tashqari, milliy taraqqiyatparvarlar tomonidan ilgari surilgan dastlabki o‘zbek alifbosi haqidagi ilmiy baxs va munozalar ham maqoladan o‘rin olgan. Ular tomonidan ilgari surilgan, jamiyat taraqqiyoti va ma‘naviy qiyofasini yuksaltirishga qaratilgan ilg‘or g‘oyalari bugungi kun uchun ham katta ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Jadid, jamiyati xayriya, darslik, risola, matbuot, dramaturgiya, teatr va b.

### НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАШКЕНТСКИХ ДЖАДИДОВ

Аннотация

В статье рассматривается научная и духовная деятельность просветителей Ташкента в конце XIX - начале XX века, и их реформы в воспитании поколений в духе своих традиций. Кроме того, в статью включены научные дискуссии о первом узбекском алфавите, выдвинутые джадидами. Эти передовые идеи, направленные на улучшение общественного развития и духовного облика, имеют большое значение и сегодня.

**Ключевые слова:** Джадид, общество благотворение, учебник, брошюра, периодическая печать, драматургия, театр и т.д.

**Kirish.** Turkistonning XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan mutafakkirlar faoliyatini o‘rganish orqali o‘lkada kechgan ijtimoiy jarayonlarni taxlil qilish imkoni paydo bo‘ladi. Ushbu vazifadan kelib chiqib mazkur davrning yetuk mahalliy ziyolilarini aniqlash, ularning ilmiy merosini o‘rganish orqali O‘zbekiston tarixini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda ayniqsa, o‘lka markazi vazifasini bajargan Toshkent hududidagi mahalliy ziyolilar faoliyati ayniqsa qiziq.

**Metodlar va o‘rganilganlik darajasi.** Tadqiqotda qiyosiy, dinamik hamda germenetik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Har bir tarixiy davrning o‘ziga xos tasnifi bo‘lib, u bevosita xalq harakatlari, buyuk allomalar, davlat va siyosat arboblari faoliyati bilan bog‘liq. O‘rganilayotgan tarixiy bosqichda ham Turkiston mintaqasida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ilm-ma‘rifatli ziyolilarning munosabati, ularning mustamlakachilik zulmiga qarshi kurash usullari taxliliga bag‘ilangan ko‘plab izlanishlar mavjud.

Bu izlanishlarni shartli ravishda sovet va mustaqillik davri tadqiqotlariga ajratish mumkin. Sovet davri tadqiqotlariga H. G‘oziev, B. Qosimov kabi olimlar ilmiy ishlanmalarini qayd etsak, mustaqillik davri uchun H. Ziyoev, D. Alimova, U. Dolimov singari yirik mutaxassislarni e‘tirof etish mumkin. Bundan tashqari, har bir jadid namoyondasi faoliyati bilan bog‘liq tadqiqotlar ham amalga oshirilib kelinmoqda.

**Tadqiqot natijalari.** XIX asr oxiriga kelib, Rossiya imperiyasi tarkibidan o‘rin olgan Turkiston general gubernatorligi rasmiy hukumati o‘lkada olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashda milliy taraqqiyatparvarlar eng to‘g‘ri yo‘l sifatida ilm-ma‘rifatni qurol qilib oldilar. Taraqqiyatparvarlar nazdida o‘lkadagi mahalliy aholi o‘z xaq-huquqlarini himoya qilishlari uchun eng avvalo xat-savodga ega bo‘lishlari, bunda albatta birinchilardan bo‘lib ta‘lim dargohlariga e‘tibor qaratilishi zarur ekanligini, eski tuzumni tanqidiy taxlil qilgan holda undagi

kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini izlash, yangicha ta‘lim shakliga o‘tish, mahalliy aholini qilish kabi masalalarni o‘z oldilariga maqsa qilib oldilar. Ular dasturil amal sifatida eng avvalo, Qirmda shaklangan Ismoil Gaspirali tomonidan chop etib borilgan “Tarjumon” gazetasidagi maqolalar asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur taraqqiyatparvarlar jamiyatni tubdan isloh qilish maqsadida o‘z yo‘nalishlarini jadid – (“yangi usul”) deb atadilar. Bu jarayonda Turkiston general gubernatorligi markazi bo‘lish Toshkent hududi jadidchilikning o‘choqlaridan biriga aylandi. Bevosita, Toshkent shahrida mahalliy taraqqiyatparvarlar o‘z jamiyatlarini tuza boshladilar. Ushbu jamiyatlar ma‘rifat orqali jaholatdan qutulish g‘oyalari ostida milliy ziyolilar qatlamini vujudga keltirdilar. Birinchi navbatda jadidlar Turkistonda eski ta‘lim tizimini isloh qilib, tez va unumli tarzda o‘quvchilarni savodli qilishga e‘tibor qaratdilar. Buning asosida Turkistonda ilk jadid maktablari yuzaga keldi. Mazkur maktablar uchun yangi dastur asosida o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqildi. Ushbu g‘oyalarni amalga oshirishda bevosita jadid namoyondalarining faoliyati diqqatga sazovor.

Xususan, Turkistonda jadidchilik ta‘limoti taraqqiyotiga katta xissa qo‘shgan ma‘rifatparvarlar qatorida toshkentlik Munavvarqori Abdurashidxonov ilmiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etgan [5]. Uning ilmiy faoliyati dastavval 1901 yilda Toshkent shahrida yosh taraqqiyatparvarlar tomonidan tashkil etilgan “Jadidlar to‘dasi” guruhi a‘zolidan boshlangan. 1909 yilda o‘lkadagi aholini ma‘rifatga yo‘naltirish maqsadida M. Abdurashidxonov tashabbusi bilan “Jamiyati hayriya” tashkil etgan. Ushbu hayriya mablag‘lari turkistonlik yoshlarning xorijda taxsil olishiga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, M. Abdurashidxonov tomonidan yangi usul maktabi o‘quvchilari uchun yozilgan darsliklari e‘tirofga molik. Ayniqsa, muallifning boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilari uchun 1907 yilda ishlab chiqqan “Adabi avval” [4], “Adabi soniy”[4] kabi alifbo-xrestomatiya kitoblari diqqatga sazovor.

Mazkur kitoblari yozishda muallif eng avvalo, imkon qadar tez fursatda o'quvchi xat savodlik bo'lishiga o'z e'tiborini qaratgan.

Bundan tashqari, yangi usul maktablarida diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarga ham katta e'tibor qaratilgan bo'lib, hususan, bu borada M. Abdurashidxonovning tabiiy va aniq fanlar yo'nalishidagi darsliklari muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, muallifning 1911 yilda nashr etilgan matematikaga oid "Usuli hisob" [1], 1912 yilda yozilgan yuzdan yuqori son ustida amallar bajarishni o'rgatuvchi "Havoyiji diniya" [9] darsliklari, 1917 yilda nashr qilingan "Er yuzi" darsligi geografiya ilmi asoslarini o'rgatishga xizmat qilgan.

Shuningdek, muallif asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan tarbiyaviy ahamiyatga ega odob-axloq normalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi darsliklar yozishga ham e'tibor qaratgan bo'lib, jumladan uning qalamiga mansub 1912 yilda nashr qilingan "Dahr un-najot" [4], 1914 yilda nashr qilingan "Sabzazor" [10] singari darsliklar orqali o'quvchilarni keng mushoxada qilish bilan bir qatorda an'anaviy adob axloq me'yorlarini singdirish uchun ham xizmat qilgan. Muallif tomonidan tarix va til masalasiga oid darsliklar ham chop etilgan bo'lib, jumladan, tarix yo'nalishida u turkiy xalqlar tarixi bo'yicha 1911 yilda "Tarixi qavmi turk" [4:190], islom tarixi bo'yicha esa, 1912 yilda "Tarixi anbiyo" hamda "Tarixi islomiya" [4] darsliklarini nashrdan chiqarishga musharraf bo'lgan.

M. Abdurashidxonov shu bilan bir qatorda madrasalardagi diniy ta'lim bilan bog'liq darsliklar ustida ham tadqiqot olib borgan. Hususan, u 1911 yilda "Tajvid al-Qur'on" nomli Qur'on kitobini o'qish bo'yicha qo'llanma tayyorlagan [8].

Turkistonda milliy matbuotning shakllanishida ham M. Abdurashidxonovning xizmatlari katta.

Jumladan, M. Abdurashidxonov say'-harakatlari natijasida 1906 yilda Turkistonda "Taraqqiyy" gazetasi chop etilishida jonbozlik ko'rsatdi. Shuningdek, aynan shu yildan ma'rifatparvar olim "Xurshid" nomli gazeta nashri bilan shug'ullandi. Bundan tashqari, u 1914 yilda Turkistonda "Sadoi Turkiston" gazetasi faoliyatini yo'lga qo'ydi. 1917 yilda esa, "Najot" gazetasiga shaxsan o'zi muxarrirlik qildi.

Jadid ma'rifatparvarlari qatorida shuningdek, Abdulla Avloniy ham ilmiy foydali olib borgan bo'lib, hususan 1909 yilda boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun u tomonidan yozilgan "Birinchii muallim" darsligi bu borada katta qadam bo'lganligini e'tirof etish joiz. Ushbu kitob orqali muallif yangi usul maktablari ta'limida tub burilish qilishga muvaffaq bo'lgan. Mazkur darslikning ahamiyatli jihati shundaki, unda A. Avloniy dastavval 32 harfni yolg'iz yoziladigan shakllarini bir sahifada alifbo tartibida bergan. Shu sahifada harfning so'z boshida, o'rtasida va oxirida yozilishini ko'rsatgan, so'ng xarfni barcha "bosh harflar"ga qo'shib, bo'g'inlar hosil qilish usulini ko'rsatib bergan. Uning 1912 yilda chop etilgan "Ikkinchi muallim" darsligi esa, o'quvchini axloq-odobga, halollik va poklikka chorlovchi turli she'rlar, hikoya, masal va ertaklardan iborat bo'lib, muallif rangbarang allegorik qiyofalardan ustalik bilan foydalangan.

Bulardan tashqari, A. Avloniy o'zi tashkil qilgan maktab o'quvchilari uchun tarix, adabiyot, geografiya kabi fanlardan ham darsliklar nashr qildirgan bo'lib, ushbu darsliklar jadid maktablari ta'lim sifatining o'sishiga katta xizmat qilgan. Xususan, A. Avloniy 1910 yilda chop etilgan "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom" darsligi jadid maktablarda ana'anaviy madrasalardagi islom dini bilan bog'liq payg'ambarlar tarixi, islomda ibodat, aqid kabi fanlarni umumlashtirgan edi. A. Avloniyga qadar turli davrlarda o'quvchilar uchun islom tarixiga oid shu kabi darsliklar yaratilgan bo'lib, xususan, Rabg'uziyning "Qissasi anbiyo", A. Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo", Mahmud binni Alining «Nahju-l-farodis» («Jannatning ochiq yo'llari») kabi asarlar bilan bir qatorda, bevosita muallifga zamondoshlardan M. Bexbudiy tomonidan 1913 yilda Samarqandda "Muxtasar islom tarixi" nomi bilan turkiy tilda, Fitrat tomonidan 1915 yilda fors tilida chop etilgan "Muxtasari ta'rixii islom" nomli asarlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, turli manbalarda M. Abdurashidxonov va Sh. Sulaymon tomonidan ham islom tarixiga oid darsliklar yozilganligi qayd qilingan.

Muallif o'quvchilar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega risolalar ham yozgan bo'lib, jumladan uning 1913 yilda chop

etilgan "Turkiy guliston yoxud axloq", 1917 yilda nashr qilingan "Maktab gulistoni" asarlari [7] Markaziy Osiyoda shakllangan an'anaviy tarbiya usuliga oid Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", N. Xuraviyning "Saodatnoma", Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", A. Jomiyning "Bahoriston", A. Navoiyning "Mahbub ul-qulub", A. Donishning "Farzandlarga vasiyat" kabi durdona asarlar qatoridan o'rin oldi.

A. Avloniy 1909-1916 yillar davomida «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» deb nomlangan 6 qismdan iborat adabiyot darsligi ustida tadqiqot olib bordi. Ushbu darslikning ahamiyatli jixati boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun sodda va ravon tilda yozilganligida edi. Bulardan tashqari zamondoshlarining qayd etishicha, taraqqiyparvar tomonidan "Uchinchi muallim", "Maktab jug'rofiyasi", "Hisob masalasi" kabi darsliklar ham yozilgan bo'lib, afsuski ularni muallif nashr qilishga ulgurmag'an. Ushbu darsliklardan asosan aniq va tabiiy fanlar o'rin olgan edi.

A. Avloniy dramaturgiya sohasida ham ijod qilgan bo'lib, uning tashabbusi bilan Turkistonda "Turon" nomli ilk teatr truppsi tashkil qilgan. Ushbu truppa tomonidan A. Avloniy qalamiga mansub "Advakatlik osonmi?", "Pinak", "Biz va siz" kabi p'esalari namoyish etilgan.

Yana bir boshqa tadqiqotda A. Avloniy, M. Abdurashidxonov, M. Podshoxo'jaev, Tavallo, R. Yusufbekov, N. Xo'jaev, Sh. Rahimiy kabi taraqqiyparvarlar bilan birlashib "Maktab", "Nashriyot" kabi shirkatlar tuzish bilan bir qatorda "Taraqqiyy", "Shuhrat", "Osiyo", "Turon" kabi gazetalar faoliyatini yo'lga qo'yganliklari haqida to'xtalib o'tilgan.

Imperiya hukumati vakillari Turkistonda mustamlaka siyosati barobarida mahalliy aholiga tezroq rus tilini o'rgatish bo'yicha amaliy tadbirlar ham ishlab chiqdi. Bu borada yangi tashkil etilgan rus tuzem maktablari faoliyati muhim bosqich bo'ldi. Mahalliy aholini mazkur maktablarga jalb etish maqsadida keyinchalik rus ma'murlari tomonidan belgilangan fanlardan tashqari an'anaviy darslar ham joriy etish zaruriyati sezildi. Bunda ayniqsa, ushbu maktablarda mahalliy tillarni o'rgatish muhim bosqich bo'ldi. Rus tuzem maktablari ilk bosqichda an'anaviy fanlardan turkiy, fors va arab tillarini o'zlashtirishga ruhsat berildi. Bu jarayonda mahalliy ziyolilar ko'magidan unumli foydalanilgan. Hususan, rus tuzem maktabi bitiruvchilaridan biri toshkentlik Saidrasul Saidazizov mahalliy aholi orasida birinchilardan bo'lib, ushbu maktabda mahalliy tillardan muallimlik qilgan edi.

S. Saidazizov dastlabki ta'limni ibtidoiy maktabda olgan bo'lib, 1880 yildan Toshkentdagi Mahmud dasturxonchi madrasasida tahsilni davom ettirgan. U talabalik yillarida ona tili bilan bir qatorda fors va arab tillarini ham o'rgangan. Shuningdek, she'rlar bitib o'sha davrning yagona vaqfli nashri "Turkiston viloyatining gazetasi"da e'lon qilib borgan. Rus tilini dastlab mustaqil ravishda o'rgangan [3]. Madrasa ta'limi bilan bir vaqtda S. Saidazizov 1-rus tuzem maktabida ham taxsil olib, 1896 yilda qo'shaloq diplomga ega bo'ladi. Rus tili bilan bir qatorda mahalliy tillarni mukammal bilgan S. Saidazizov shu tariqa rus ma'murlari e'tiboriga tushib, 1900 yildan rus tuzem maktablari mahalliy tillar bilan bir qatorda islom dini bilan bog'liq fanlardan o'qituvchilik qila boshlagan.

U rus pedagoglari ta'sirida tovush metodini chuqur o'zlashtirgach, mahalliy til me'yorlarini ham shunga mos ravishda o'zgartirishga qaror qildi. Shu asnoda, S. Saidazizov mahalliy muallimlar orasida birinchilardan bo'lib yangi usuldagi alifboni yaratishga musharraf bo'ldi. U tomonidan yaratilgan alifbo 1902 yilda "Ustodi avval" nomi bilan ilk bor 3000 nusxada chop etildi [2]. Ushbu alifboda asosiy e'tibor "usuli savtiya" – tovush uslubiga qaratilgan bo'lib, avvalgi alifbolardan soddaligi bilan ajralib turgan. Adabiyotlarda qayd etilishicha, bu kabi alifbolar turk dunyosida Ahmad Midhat hamda Ismoil Gaspirali taraflaridan avvalroq tuzilgan bo'lib, muallif mazkur alifbolardan habardor ekanligi yaqqol sezilib turgan. Shuningdek, XX asr boshlariga oid manbalarda S. Saidazizov tomonidan ishlab chiqilgan alifbo keyinchalik jadid maktablardagi alifbolarga tamal toshi vazifasini bajarganligi haqidagi ma'lumotlar aks etgan [5].

Toshqin taxallusi bilan ijod qilgan toshkentlik Mo'minjon Muhammadjonov ham jadid maktablari faoliyatida yorqin iz qoldirgan shaxslar qatoridan o'rin olgan bo'lib, u dastlab

Sharofboy, Beklarbegi singari madrasalarda taxsil olib, keyinroq Ufadagi Madrasai Oliyada o'qib kelgan. U o'z faoliyati davomida Turkistonning turli hududlarida yangi usul maktablarini ochishga musharraf bo'lgan. Bundan tashqari, M. Muhammadjonov yangi usul maktablari boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun 1908 yilda "Nasoyihul atfol" nomli o'qish darsligini yozgan [6]. Shuningdek, M. Muhammadjonov 1915 yilda faoliyati to'xtatilgan "Sadoi Turkiston" gazetasi Andijonda "Intibohi Turkiston" (Turkiston uyg'onishi) nomi ostida qayta tashkil qilish maqsadida general Skobelevga xat yozgan. Ushbu xat Ubaydulla Xo'jaev tomonidan rus tilida bitilgan bo'lib, uni o'zbek tiliga keyinchalik Abdulxamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon tarjima qilgan.

Ma'rifatparvarlardan yana biri Muhammadrasul Rasuliy bo'lib, u 1884 yilda Toshkentda tug'ilgan. Toshkentdagi Beklarbegi madrasasida o'qigan. 1907 yildan rus-tuzem maktablarida dars bergan. 1917 yildan keyin maktablarda o'qituvchilik qilgan, savodsizlikni tugatishda faol ishtirok etgan. Rus-tuzem va yangi usuldagi maktablar uchun darsliklar yozgan. Hususan, uning qalamiga mansub «Rahbari forsiy» darsligi 1911, 1914, 1917 yillarda nashr etilgan bo'lib, forsiy tili qoidalari o'zbek tilida bayon qilingan. «Qiroati forsiy yoxud muntaxabi guliston» xrestomatiya kitobi esa, 1916 yilda chop etilgan bo'lib, qisqa-qisqa forsiy matnlari 56 darsga bo'lib berilgan, ba'zi forsiy so'zlarga o'zbekcha izoh yozilgan. Bundan tashqari, M. Rasuliy tomonidan «Bolalar bog'chasi» nomli alifbe kitobi ham yozilgan

bo'lib, u tovush usulida tuzilgan. Uning 2-nashri 1917 yilda chop etilgan. Ushbu darslikda K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, S.M.Grameniskiy kabi rus tadqiqotchilarining o'quv qo'llanmalaridan tarjimalar keltirilgan.

Shuningdek, adabiyot namoyondalaridan Abdulla Qodiriy shaxsi ham e'tibor markazida bo'lanligini e'tirof etish lozim. Uning "Sadoi Turkiston", "Samarqand", "Oyna" kabi gazeta va jurnallarda chop etgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan maqolalari diqqatga sazovor. Hususan, muallifning 1914-1915 yillarda nashr qilingan "To'y", "Fikr aylagil", "Ahvolimiz", "Millatimga" kabi she'rlarida, "Baxtsiz kuyov", "Xech kim bilmasin" kabi sahna asarlarida, "Juvonboz", "Uloqda" singari hikoyalarda xalqning savodi, bilimi va ma'rifati kabi masalalar keskin tanqid qilingan.

**Xulosa.** Milliy taraqqiyatparvarlar garchand Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lishiga qaramay, mahalliy aholini mustamlakachilikka qarshi kurashga da'vat etgan. Bunda ular qurol sifatida ilm-ma'rifatni tanlaganlar. Shu asosda Turkistonda yangi usul maktablarini joriy qilish orqali, tez fursatda va samarali yo'l bilan aholining savodini oshirish birlamchi maqsad qilib belgilangan. Bunda asosan, jadid namoyondalari tomonidan tashkil qilingan jamiyatlar, yangi usul maktablari, gazeta va jurnallar faoliyati muhim ahamiyat kasb etgan.

#### ADABIYOTLAR

1. O'z MA, I-1-jamg'arma, 31-ro'yaxat, 934-yig'majild, 28-varaq. (National Archive of Uzbekistan (henceforth: NAUZ) f. I-7, op. 31, d. 943, l. the other side of 28.)
2. O'z MA. 47-jamg'arma, 1-ro'yaxat, 561-yig'majild, 28-varaq. (NAUZ f. I-47, op. 1, d. 561, l. 28)
3. Turkiston viloyatining gazetasi. 72-son. 1910. (The newspaper "Turkiston viloyatining gazetasi" No72, 1910.)
4. Qosimov B. Abdulla Avloniy (Adabiy-pedagogik portret). Toshkent; O'qituvchi, 1979. 10-bet. (Qosimov B. Abdulla Avloniy (Literary-pedagogical portrait). Tashkent: Oqituvchi (publisher). 1979. P.10.)
5. Jumaboyev M. Abdulla Avloniy. URL-adress: <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/abdulla-avloniy/?imlo=k>
6. Abdulla Avloniy (1878-1934). URL-adress: <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-avloniy/>
7. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) [Mas'ul muharrir: M.M. Hayrullayev]. – To'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. 365-bet. (Spiritual stars (famous figures, scholars, writers from Central Asia) [Responsible editor: M.M. Hayrullayev]. – Completed reprint. - Tashkent: A. Qodiriy publishing house of the people's heritage, 1999. P. 365)
8. Alimova D. Jadidchilik mustaqillik davri tarixchisi talqinida. // O'zbekiston tarixi: yangi nigoh (Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar) davra suhbat materiallari. Toshkent, 1998. 5-bet. (Alimova D. Jadidism in the interpretation of a historian of the period of independence. // The history of Uzbekistan: new view (From the jadidism to national independence) the materials of discussion. Tashkent, 1998. P.5.)
9. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – Toshkent: "Sharq", 2005. (Khoji Ismatulloh Abdulloh. Islamic civilization in Central Asia. Tashkent: "Sharq", 2005.)
10. Ulug'bek Dolimov. Millat muallimi // "Jahon adabiyoti", 12-son. 2016. (Ulug'bek Dolimov. The teacher of the nation. // Journal "Jahon adabiyoti" (World literature). No.12, 2016.)



UDK: 94(57):34“18”

**Faxriddin RO‘ZIBOYEV,**  
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: faxriddinroziboyev62@gmail.com

NamMQI tarix bo‘yicha falsafa doktori, PhD, B Isxakov taqrizi asosida

## DISCIPLINE CONTROL IN THE MARKETS OF TURKESTAN AT THE END OF THE 19TH CENTURY

Annotation

In this article, the general situation in the markets located in the cities of Turkestan at the end of the 19th century, the order and discipline in them, the relationship between sellers and buyers, the activities and tasks of the special officials assigned to the markets are studied from a scientific, practical, and theoretical point of view. The article examines the historically developed market relations developed by Central Asian khanates with the help of historical sources and literature. The primary source of the article is the works of local and Russian researchers, as well as historical sources and archival data of that time.

**Key words:** Market, order, chairman, elder, trade police, scales, price list, units of measurement.

## КОНТРОЛЬ ДИСЦИПЛИНЫ НА БАЗАРАХ ТУРКЕСТАН В КОНЦЕ XIX ВЕКА

Аннотация

В данной статье рассматривается общее положение на рынках, расположенных в городах Туркестана в конце XIX века, порядок и дисциплина на них, взаимоотношения между продавцами и покупателями, деятельность и задачи специальных чиновников, закрепленных за рынками. Изучаются с научной, практической и теоретической точки зрения. В статье с помощью исторических источников и литературы рассматриваются исторически сложившиеся рыночные отношения, сложившиеся в среднеазиатских ханствах. Первоисточником статьи являются труды отечественных и российских исследователей, а также исторические источники и архивные данные того времени.

**Ключевые слова:** Рынок, приказ, председатель, старейшина, торговая полиция, весы, преискурант, единицы измерения.

## XIX ASR OXIRIDA TURKISTON BOZORLARIDA TARTIB-INTIZOM NAZORATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asrning oxirlarida Turkiston shaharlarida joylashgan bozorlardagi umumiy ahvol, ulardagi tartib intizom, sotuvchi va xaridorlar o‘rtasidagi munosabatlar, bozorlarga tayinlangan maxsus mansab egalarning faoliyatlari va vazifalari ilmiy va amaliy, ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan. Maqolada O‘rta Osiyo xonliklari tomonidan ishlab chiqilib, tarixan rivojlangan bozor munosabatlari tarixiy manbalar va adabiyotlar yordamida o‘rganilgan. Maqolani shakllantirishda mahalliy va rus tadqiqotchilarining asarlari va o‘sha davrga oid tarixiy manbalar va arxiv ma‘lumotlari birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Bozor, tartibot, rais, oqsoqol, savdo politsiyasi, tarozi, narx navo, o‘lchov birliklari.

**Kirish.** Hozirda jamiyat turli jabhalarida taraqqiyot jarayonlari kuzatilyapti. Bunda har bir sohaning ibtido nuqtasi ya‘ni tarixin chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, Vatanimiz tarixini qaytadan kashf qilishga imkoniyat yaratildi. Bunda albatta yurtboshimizning ushbu fanga bo‘lgan e‘tiborlari, uni rivojlantirishga yaratib berayotgan sharoitlari muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, prezidentimiz quyidagi fikrlari orqali haqqoniy tarixni yozishni tarixchilarga vazifa qilib qo‘ymoqdalar... Biz shu vaqtgacha tarixning o‘zimizga yoqqan joylarini olib, yoqmagan tomonini yashirib o‘tdik. Birovga yoqadimi-yoqmaydimi, g‘ururimizmi-armonimizmi, muvaffaqiyatmi yo xiyonatmi hammasini haqqoniy yozish kerak[1]. Shuningdek, 2017-yil 30-iyunda prezidentimiz tomonidan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish” to‘g‘risidagi PQ-3105 sonli qaror imzolandi[2]. Respublikamizning ko‘zga ko‘ringan yirik tarixchilaridan 32 kishidan iborat Kengash tashkil etildi. Bularning barchasi tariximizning barcha davrlarini chuqur o‘rganib, xolisona yoritishni taqazo etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzu bo‘yicha adabiyotlarni 3 guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh adabiyotlariga aynan mavzuga taalluqli ya‘ni mavzu bo‘yicha ma‘lumotlar izchil ketma-ketlikda berilgan adabiyotlatni aytish mumkin. Masalan, Z. Madarrahimov “Qo‘qon xonligida savdo munosabatlari” monografiyasi orqali Qo‘qon xonligidagi savdo-sotiq jarayonlari, bozorlar ko‘rinishi, ulardagi tartib intizom haqidagi ma‘lumotlar yordamida o‘sha davrdagi butun Turkiston bozorlari qiyofasini tasavvur qilish mumkin. M. J. Karimova esa, “XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonning savdo aloqalari”

nomli ilmiy tadqiqot ishida tashqi savdo aloqalari bilan birgalikda ichki savdo jarayonlarini ham yoritgan.

Ikkinchi guruh adabiyotlarga Turkistonning XIX asrdagi umumiy iqtisodiy ahvoli haqida ma‘lumotlar berilgan: A. M. Aminov, R. N. Nabiyev, P. G. Galuzo asarlarini kiritish mumkin. Uchunchi guruh adabiyotlariga o‘sha davrda nashr qilingan jurnal va O‘zbekiston Milliy arxivi hujjatlari misol bo‘la oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi** XIX asr oxirida Turkiston bozorlarida tartib intizom nazoratini tadqiq etishda davr nuqtayi nazaridan ilmiy tadqiqot olib borishning tarixiy qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Chunki, aynan shu davrda Turkiston ruslar tomonidan istilo qilinib, o‘lkada rus boshqaruv tizimi o‘rnatilgan edi. Ayni damda ruslar kelgunga qadar bozor tartibinin an‘anviy ko‘rinishlari ham mavjud edi.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bu iqtisodiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liq hisoblanadi. Har qaysi davlatda iqtisodiy o‘shishni ichki va tashqi bozor munosabatlarini qay darajada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgani bilan izohlash mumkin. Bozor munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun esa, avvalo bozorlarda tartib-intizomni yaxshilashni talab qiladi. Bunda asosiy e‘tibor bozor ishtirokchilarining: sotuvchi va xaridorning o‘zaro aloqasiga, yagona narx, yagona o‘lchovga qaratiladi. Shuningdek, bozorda sotuvchi va xaridor uchun tovar va pullarni xavsizligini kafolatlangan bo‘lishi zarur. Qadimdan Turkiston hududida mavjud bo‘lgan davlatlarda bunday jarayonlarga alohida e‘tibor berib kelingan. Xususan, bozorlarda tartib-intizom, tosh va tarozi, narx-navolarning belgilangan normadan o‘zgarماسligiga javobgar bo‘lan maxsus tayinlangan amaldorlar bo‘lgan. Masalan, rais – mansabidagi shaxs bozorlaragi oldi-sotdi jarayoni, tartib-intizom ishlariga, tozalikka hamda o‘lchov asboblarning to‘g‘riligiga

musulmon odatlarini fuqarolar tomonidan bajarilishiga mas'ul hisoblangan[3]. Toshkent shahrida bozor kunlari rais 10 kishi bilan bozorni aylanib, bozordagi tatibni ta'minlashi o'lchov va vazn bo'yicha shikoyatlarini ko'rib chiqishi zarur edi[4].

Bu lavozimga xulq-atvori yaxshi, shariat ilmining chuqur bilimdoni hamda aholi o'rtasida katta hurmatga ega bo'lgan kishilar tayinlangan. Bu vazifaga ba'zan qozilar ham tayinlangan bo'lib, shuning uchun ham qozi rais deb atalgan. Xonlikning yirik shaharlarida bittadan, kichik shahar va qishloqlarning bir nechtasida bitta rais bo'lgan. Xususan, Toshkent va Qo'qonda ham Rossiya istilosiga qadar bittadan rais bo'lgan. Rais diniy marosimlarni nazorat qilish bilan birga, do'kon, savdo rastalari va bozorlarda savdo-sotiq jara'eni nazorat qilgan. U bozor kunlari o'zining xalfa deb ataladigan 10 dan ortiq yordamchisi bilan bozor aylangan. Rais tartibbuzarlikni oldini olgan, tarozilarni to'g'ri ishlatganini va hatto hunarmandlar tomonidan tayyorlangan buyumlar sifatini ham tekshirgan. Shuningdek, spirtli ichimliklar savdosiga qarshi kurashgan. Rais ko'cha, ariq va bozor maydonlarining tozaligiga ham javobgar bo'lgan. Bozordagi narx-navodan, savdogarlardan va tarozidan norozi xaridorlar arzlarni eshitgan hamda aybdorlarni jazolagan. Jazo ikki usulda amalga oshirilgan bo'lib, birinchisida, aybdorga 3 tadan 39 tagacha qamchi bilan urilgan bo'lsa, ikkinchisida bozor va shahar ko'chalarida sazoyi qilingan. Raisning hukmi xonlikdagi oddiy fuqarolardan tortib, amaldor va xorijliklar uchun ham qat'iy edi[5].

Ba'zi hollarda volost oqsoqollari ham bozorlardagi narxlarni belgilagan. Masalan, Toshkent volost boshliqlaridan biri paxta narxini o'zi belgilagan[6].

Bu davrda O'rta Osiyo bozorlarida mahalliy savdogarlar tomonidan tartibbuzarlik va bir-birini aldash hollari judayam kam uchragan. Chunki, mahalliy aholi vakillari savdo-sotiq ishlarida ham shariat ahkomlariga to'liq amal qilishgan. Ya'ni ularda o'zganing moliga xiyonat qilish gunoh degan aqida mustahkam o'rnatilgan. Bu haqda ruslar ham bir necha marta ta'kidlashgan. Aynan buxorolik savdogarlar shariat bo'yicha savdo qilib xaridorni aldamasliklarini e'tirof etishgan.

Bozorlar umumiy va rastalarga bo'linib ham nazorat qilingan. Umumiy nazorat raislar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, rastalar bo'yicha nazorat esa maxsus birlashtirilgan oqsoqollar tomonidan nazorat qilingan. Masalan, Qo'qon xonligi bozorlarida rastalar bo'yicha nazorat qilingan. Har bir rastaga oqsoqol birlashtirilgan bo'lib, oqsoqol bir nafar yordamchisi bilan rastani nazorat qilgan. Rastaning tinchligi tozaligi uning zimmasida bo'lgan. Oqsoqol rastani nafaqat kunduzi, balki kechasi ham qo'riqlagan. Shuning uchun ko'p hollarda savdogarlar tovarlarini bozorda qoldirib ketaverishgan. Bu xizmati uchun oqsoqol har bir do'kon egalari bilan oyiga 10 kop. dan xizmat haqi olgan[7]. Bozorlarda qaysi turdagi mahsulotni sotish yoki sotmaslikni esa xon va beklar belgilagan[8].

Rais mansabi Xiva xonligida ham mavjud edi. Aynan raislar Xivada bozorlarni boshqargan. Bozorlarda sotuvchilar xaridorlarni aldamasligi, tarozilarning to'g'riligini tekshirish raislarning zimmasida edi.

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgunicha bozorlarda tartib-intizom eski ya'ni an'anaviy ko'rinishda olib borilgan. Ya'ni tartib, sotuvchi va hairdo o'rtasidagi munosabatlar nazorati, sotuvchilar foydalanadigan tarozi va ularning toshlari, gazlamalarni o'lchaydigan maxsus uzunlik o'lchov asboblari raislar tomonidan nazorat qilib borilgan. Agarda sotuvchilar tomonidan o'lchov uskunalarini atayin buzganlik ya'ni haridorning haqqiga xiyonat qilinganli aniqlansa, aybdor darhol qozilar hukmiga topshirilgan. Ular shuningdek, bozorlarda o'g'irliklarni ham oldini olgan. O'g'irlik qilganlar bozorning o'zidayoq omma oldida sazoyi qilingan.

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Bu mintaqada boshqaruv tizimining isloh qilish bosqichiga o'tilganligini anglatar edi. Islohotlar barcha sohalarni qamrab oldi. Jumaldan, huquq-tartib tizimi ham chetda qolmadi. Ushbu o'zgarishlar natijasida bozorlardagi tartibot ishi ham tubdan yangilandi. Boshqaruv sohasida qanday yangilik qilinsa, avvalo Toshkent shahrida amaliyotda qo'llanardi. Savdo tartibotidagi joriy qilingan yangiliklar ham dastlab Toshkent shahrida tashkil etildi.

Chunonchi, 1885-yilning 5-iyunida Sirdaryo viloyatining harbiy gubernatori Toshkent shahrida savdo politsiyasini tashkil qilish to'g'risida Nizomni imzolaydi. Nizom 12 moddadan iborat bo'lib, unda savdo politsiyasining asosiy vazifalari belgilab qo'yilgan. Masalan 1-moddaga muvofiq Toshkent shahrida savdo-sotiq ishlarida tartibot va haqqoniylikni ta'minlash maqsadida Toshkent shahri hokimining huzurida savdo-sotiq politsiyasi tashkil etiladi. Savdo politsiyasining umumiy tarkibi 13 kishidan iborat bo'lgan. Ulardan 7 nafari savdo-sotiq vakili, ikki nafari savdo noziri ular mahalliy aholi etnik tarkibidan kelib chiqib ajratilgan. Ya'ni biri rus aholisi uchun, ikkinchisi esa, mahalliy aholi uchun edi. Shuningdek, hukumat tomonidan tayinlanuvchi 3 nafar bozor oqsoqollaridan iborat bo'lgan. Hamda har bir savdo yoki sanoat qatorida yoki kichik bozorlarda savdogarlarning o'zlari tomonidan saylangan oddiy oqsoqoldan tarkib topgan. ularning ichida 7 nafar savdo-sotiq vakili shahar dumasini tomonidan saylangan. Ushbu vakillar shahar dumasini tomonidan tasdiqlangan maxsus ko'rsatmalar asosida harakat qilgan[9].

Savdo nazoratchilari shahar dumasini tomonidan to'rt yilga saylangan. Saylovlar oldidan savdo vakillarining ish haqi belgilab qo'yilgan. Toshkent shahri aholisi yashaydigan qismida faoliyat yurituvchi savdo noziri shahar hokimi tomonidan yakshanba kuni bozor va yarmarka bozorlari, shuningdek, butun shahar hududida joylashgan zavod va fabrikalar hamda kichik bozorlar va sanoat korxonlari uchun tayinlangan. Shaharning mahalliy aholisi yashaydigan qismi uchun tayinlangan savdo nazoratchisi esa, Toshkentning eski shahar qismida joylashgan katta va kichik bozorlarni, umumiy savdo va sanoat korxonalarini hamda zavod va fabrikalarni nazorat qilgan.

Shahardagi savdo-sotiq nazoratiga rahbarlik qilish bilan birgalikda ular quyidagi vazifalarni ham bajarishgan:

- 1) bozorlar, maydonlar, ko'chalar va uy-joylarda savdoning to'g'riligini nazorat qilish;
- 2) og'irlik va uzunlik o'lchov asboblari tekshiruvdan o'tkazish;
- 3) savdogarlarning shahar dumasining majburiy qarorlariga rioya qilishlarini nazorat qilish;
- 4) shaharda oziq-ovqat mahsulotlarining belgilangan narxdan oshib ketishini oldini olish bo'yicha qoidalarning bajarilishini nazorat qilish. Oziq-ovqat mahsulotlari va qurilish materiallari uchun ma'lumot narxlarini yig'ish va ularning har oйда ma'muriyatga yetkazish;
- 5) shaharning savdo va sanoat statistikasi bo'yicha ma'lumotlarni to'plash;
- 6) barcha savdo ob'ektlariga, shuningdek, savdo joylari bilan aloqasi bo'lgan binolarga bepul kirish huquqiga ega bo'lgan holda, tegishli savdo hujjatlarini o'z vaqtida tanlagan holda vijdonan amalga oshirishini kuzatish va noqonuniy tusdagi savdo to'g'risida xabar bergan har bir kishi uni hokimiyat organlariga yetkazish va favqulodda holatlarda bu haqida bevosita politsiyaga xabar berish;
- 7) bozorlar, maydonlar va ko'chalardagi joylar yuzasidan savdogarlar o'rtasidagi kichik tushunmovchiliklarni tartibga solishdan iborat bo'lgan[8].

Savdo politsiyachilari bozorlarda yurishganda o'zlari bilan yonlarida ochiq qog'ozlar va shahar hokimiyati tomonidan berilgan maxsus nishonlarini olib yurishlari kerak bo'lgan. Toshkent shahar ichki ishlar organlari xodimlari ham savdo nozirlariga tegishli yordam ko'rsatishi belgilab qo'yilgan. Savdo nazirlari o'z navbatida shahar hokimiyati tomonidan ham nazorat qilingan. Agarda hisobotlarni bajarishda suiiste'molliklarga yo'l qo'yilgani aniqlansa, ular darhol lavozimlaridan chetlatilib, bu haqida dumaga xabar berilgan.

Bozor oqsoqollarining moddiy ta'minoti ham hisobga olingan albatta. Masalan, oqsoqollar shahardagi yakshanba va O'rda bozoriga, shaharning ikkinchi qismidagi yarmarka bozorlariga hamda shaharning Osiyo qismidagi katta bozorga yiliga 300 rubl ish haqi uchun tayinlangan. Ularning ham zimmalarida faqat tartib nazorati emas undan tashqari quyidagi vazifalarni ham bajargan:

- 1) bozor maydonlari va do'konlar oldidagi ozodalik va tartib, hamda bozor maydonlarining suv ta'minotini nazorat qilish;
- 2) savdogarlarga duma yoki savdo nozirlarining buyruqlarini yetkazish;



3) oziq-ovqat mahsulotlarining bozordagi narxlarini kuzatish;

4) do'kon egalariining ro'yxatini yuritish va barcha yangi ochilgan do'konlar to'g'risida savdo noziriga ma'lumot berish va do'konni ochilish sanasi va oyini qayd etish;

5) do'kon egalariidan va rasta egalariidan joy haqi uchun ijara yig'ishdan iborat bo'lgan.

Oqsoqollar savdogarlarning o'zlari tomonidan saylangan. Ularning soni esa, savdo nazoratchisining ixtiyoriga bog'liq edi. Uchta bozorning oddiy oqsoqollarining vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan: har biri o'z rastalar qatorida kengash yoki savdo nozirining buyrug'ini e'lon qilish, savdo statistikasi bo'yicha ma'lumotlarni savdo nazoratchisiga yetkazish kabilar[9].

1894-yilda siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, shaharda o'rnatilgan vaqtinchalik kuchaytirilgan qo'riqlov tizimiga binoan, tungi qorovullar tashkil qilinadi. Ularga bozorlarda tunda nazoratni kuchaytirish, savdogarlarning mol mulkini himoya qilish vazifalari yuklatiladi[10].

Xullas Turkistonda bozor tartiboti shunday yani harbiylashgan tarzda saqlanadi. Bu albatta savdogarlarning va xaridorlarning manfaatlarini himoya qilgan.

**Xulosa va takliflar.** Mustaqillik tufayli tariximizning ochilmagan sahifalari ochilishga imkoniyat yaratildi. Bunda albatta xolisona yondashish muhim vazifa etib belgilandi. Turkistonda XIX asrning oxirilarida bozorlar davlat ahamiyatidagi joylar sifatida ko'rilib ularning tinchligiga, savdogarlarning o'z mahsulotlarini erkin sotishiga, xaridorlarning esa o'z ehtiyojidagi tovarni erkin narxda sotib olishiga yetarlicha sharoit yaratilganligini ko'rish mumkin. Ya'ni O'rta Osiyo xonliklari davrida mavjud bo'lgan bozor nazoratchilari ruslar davrida ham faoliyat olib bordi faqat ularning nomi va funksiyalari biroz o'zgardi. Lekin bozordagi tartib va osoyishtalikni saqlash, o'lchov birliklarini to'g'ri qo'llash, tarozidan urib qolishni oldini olish kabi vazifalari doimo asosiy vazifa bo'lib qolaverdi. Ularning vazifalari qatoriga bozor tozaligini ham nazorat qilish yuklatildi. Buning sababi esa, aynan asr oxiriga kelib mintaqada turlik xil epidemic kasalliklar tarqalganligi edi. Chunki bozorlar odamlar eng ko'p to'planadigan maskan edi.

#### ADBIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH. M. 2021-yil 31-avgustdagi Shahidlar xotirasi xiyobonidagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyiga tashrifi nutqidan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi PQ-3105 son Qarori// <https://lex.uz/docs/-3251707>
3. Абашин С. Н. Туркестан в имперской политике России: Монография в документах / С. Н. Абашин — Издательство «Кучково поле», 2016. — 667 с.
4. Гейнс А.К. Управление Ташкентом при кокандском владычестве // А.К. Гейнс. Собрание литературных трудов. Т. II. СПб, 1898. — 536 с.
5. Мадрахимов З. Кўкон хонлигида савдо муносабатлари. — Тошкент. 2014. — 141 б.
6. Галузо П. Г. Туркестан - колония (Очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 года). —Москва., 1929. — 162 с.
7. Каримова М.Ж. XIX аср охири — XX аср бошларида Туркистоннинг савдо алокалари (Фарғона водийси мисолида). Тарих фанлари номзоди ... дисс. — Тошкент, 2008. — 141 б.
8. Набиев Р. Н. Из история Кокадскаго ханства. — Ташкент; "Фан", 1973. — 476 с.
9. Туркестанския ведомости. 25-го июня 1885. №25.
10. O'zbekiston Milliy arxivi I-1 fond, 31-ro'xat, 34-ish, 25-varaq.



**Mashxura RO'ZIYEVA,**  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi  
E-mail: mashxura.ruziyeva@mail.ru

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi dotsenti, t.f.n J.Mirzayev taqrizi asosida

### SURXON VOHASI LO'LILARINING HUDUDIY JOYLASHUVI

Annotatsiya

Bugungi kunga qadar lo'lilarning kelib chiqishi va urf-odatlari ilmiy jamoatchilik orasida qiziqishlarga sabab bo'lmoqda. Ushbu maqolada Surxon vohasida yashovchi lo'lilarning hududiy joylashuvi va urug'lari borasida batafsil fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, lo'lilarning kundalik turmush tarzi, xo'jalik hayoti va mashg'ulotlari arxiv ma'lumotlari, shuningdek boshqa tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Surxondaryo viloyati, lo'lilar, etnogeneza, urf-odat, marosimlar, mashg'ulotlar, urug'lar.

### ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ РАСПОЛОЖЕНИЕ ЦЫГАН СУРХАНСКОГО ОАЗИСА

Аннотация

До сегодняшнего дня происхождение и обычаи цыган вызывают интерес научной общественности. В данной статье приводятся подробные мнения о территориальном расположении и родах цыган, проживающих в Сурханском оазисе. Также на основе архивных данных и других исторических источников освещены повседневный образ жизни, экономическая жизнь и деятельность цыган.

**Ключевые слова:** Сурхандарьинская область, цыгане, этногенез, традиция, обряды, обучение, роды.

### TERRITORIAL LOCATION OF THE GYPSIES OF THE SURKHAN OASIS

Annotation

To this day, the origin and customs of the Gypsies are of interest to the scientific community. This article provides detailed opinions on the territorial location and clans of the Gypsies living in the Surkhan oasis. Also, based on archival data and other historical sources, the daily life, economic life and activities of the Gypsies are covered.

**Keywords:** Surkhandarya region, Gypsies, ethnogenesis, tradition, rituals, education, clans.

**Kirish.** Tarixiy-etnografik adabiyotlarni o'rganish natijasida, shuni aytish mumkinki, lo'lilarning O'zbekiston hududiga kirib kelishi Hindiston-Afg'oniston-O'zbekiston yoki Hindiston – Eron – Afg'oniston – O'zbekiston yo'nalishlarida amalga oshgan [7]. Lo'lilar Hindiston – Afg'oniston – Tojikiston – O'zbekiston yo'nalishi orqali ham kirib kelganlar. O'zbekistonning Tojikiston bilan chegaradosh viloyatlari hisoblangan Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax kabilarda ko'p sonli lo'li jamoalari mavjudligi, ular Tojikistonning Hisor vodiysi, Qo'rg'ontepa, Panjikent, Xo'jand kabi hududlaridan o'tib kelganlaridan dalolat beradi [4].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Lo'lilar to'g'risida Mirzo Boburning "Boburnoma" asarida berilgan ma'lumotlar, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Unda ta'kidlanishicha, Hindiston lo'lilari ham Movarounnahr lo'lilari kabi turli ko'ngilochar tomoshalar ko'rsatadilar. Ammo, Hindiston lo'lilari ko'rsatgan o'yinlar Movarounnahr lo'lilarinikidan birmuncha murakkabligi bilan ajralib turadi [8]. Mazkur satrlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlik yillarini Movarounnahrda o'tkazgan Mirzo Bobur bu yerda yashagan lo'lilarni ko'rgan hamda ular ko'rsatgan ko'ngilochar o'yinlarning bevosita guvohi bo'lgan. Xuddi ana shu narsa unga Hindiston lo'lilarini Movarounnahr lo'lilari bilan taqqoslashga imkon bergan.

Bugungi O'zbekiston hududida yashovchi lo'lilarga bag'ishlab yozilgan asarlarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh adabiyotlarida lo'lilarning ko'chishi, jumladan, ularning kelib chiqishi, tarixiy vatani, ko'chish sabablari tadqiq etilgan. Lo'lilarning kelib chiqish tarixi to'g'risida olimlar tomonidan turlicha qarashlar bildirilgan.

A.Doniyorov, A.Ashirov va O.Bo'riyevlar hammuallifligida nashr qilingan darslikda lo'lilarning etnik tarixi haqida ham ayrim diqqatga sazovor ma'lumotlar berilgan [3]. Shuningdek, mazkur nashrda lo'lilarning kelib chiqishi, ko'chishi, tarixiy kechmishi, ijtimoiy hayoti manbalar asosida bayon qilingan bo'lib, ularning dastlabki qismi Amir Temurning Hindistonga qilgan yurishi vaqtida qo'lga olingan aholi bilan

birga kelib qolgan, degan taxmin ilgari surilgan. Xuddi shu davrda Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Qo'qon, Qarshi kabi shaharlar qatorida Buxoroda ham lo'lilarning mahallalari tashkil topganligi qayd qilingan.

O.Bo'riyev va A.Hasanovlar qalamiga tegishli yana bir ilmiy maqolada lo'lilar tarixiga tegishli ma'lumotlar aks ettirilgan [7]. Maqolada O'zbekiston hududida yashovchi lo'lilarning etnik tarixi, joylashishi va etnomadaniyati yoritilgan. Mahalliy lo'lilarning turmush sharoitini yaxshilash hamda ularni jamoatchilik ishlariga jalb etish bo'yicha ba'zi fikrlar ham berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Surxon vohasi lo'lilarning hududiy joylashuvi masalasiga bag'ishlangan usbu maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, analiz, sintez, kabi usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Surxon vohasi aholisining etnik tarixi va tarkibini tadqiq qilish asosida shunday xulosaga keldikki, XIX asr oxiri –XX asrning birinchi yarmida ushbu hudud turli etnik va etnografik guruhlar, turli madaniyatlar va xo'jalik madaniy tiplari o'zaro tutashgan hudud bo'lgan.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Janubiy Surxon vohasida lo'lilar, asosan, Sherobod bekligida, Sherobod daryosining Darband qishlog'iga yaqin joylarda, Denov, Sho'rchi, Sherobod, Jarqo'rg'on atrofidagi to'rtta qishloqda o'zbeklar bilan yonma-yon yashagan. Ularning soni 300 kishidan oshmagan. Etnografik kuzatuvlarimiz jarayonida hozirgi Sherobod tumani hamda Jarqo'rg'on tumanining Oqtepa qishloqlari lo'lilari bilan uchrashib, ularning turmush hayot tarzi bilan yaqindan tanishib, Janubiy Surxon vohasida lo'lilar, asosan, yuqorida aytib o'tilgan mahalliy yerli lo'lilarga, ya'ni birinchi guruhga mansub ekanligini dala tadqiqotlarimiz jarayonida aniqladik [5].

1924-yilgi aholi ro'yxati materiallarida yozilishicha, O'zbekiston hududining Surxondaryo qirg'oqlarida 1420 kishidan iborat Qoratog' lo'lilari yashaganlar. Qoratog' lo'lilari Sariosiyo rayonida 290 nafarni, Yurchi shahrida 1130 nafarni tashkil qiladi. Sariosiyo rayonida ularni jo'gi deb atashadi. Oqsoqollardan

olingan ma'lumotlarga ko'ra ular o'zlarining yurtlari bo'lgan Qoratog'dan ko'chib kelganlariga ko'p bo'lmagan [6].

Qoratog' Hisor tog' tizmasida joylashgan. Surxondaryoning yirik chap irmog'i shu tog'dan boshlanadi. Irmog'ning nomi Qoratog' daryosi deb ataladi. Ma'lumki lo'lilar doim daryo bo'ylarida manzil-makon topishgan. Sariosiyo va Yurchida yashagan lo'lilar avlodi taxminimcha shu daryo bo'yidan kelishgan. Ushbu ma'lumot lo'lilarning ko'p yillar oldin hududimizda yashab boshlaganidan darak beradi.

Surxon vohasida yashab kelayotgan lo'lilarning etnik tarixi tarixshunoslik nuqtai nazardan hali to'liq o'rganilmagan. Mamlakatimizda lo'lilar o'zlarini alohida xalq deb bilishsa-da, tadqiqotchilar tomonidan ular yagona etnik guruh sifatida tavsif etilgan. O'rganilayotgan hududda lo'lilar bir nechta etnoijtimoiy guruhlardan tashkil topgan bo'lib, bu masalada xorijlik tadqiqotchilar Y.Marushiakova, V.Popovlar o'z ilmiy ishlarida lo'lilarni "guruh chegaralari" ko'rinishida bo'lib, o'rganishni taklif etishgan. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Lo'li guruhlar – lo'li, jo'gi, mo'ltoni, g'urbat. O'zlarini mug'at deb nomlashadi;
2. Oraliq guruhlar – mazang, tovoqtarosh (sog'utarosh, kosatarosh), og'a, qashg'ar lo'li.
3. Lo'lisifat guruhlar – kavol, chistoni, parya va balujlar [4].

O'rganilayotgan hududda lo'lilarning turmush tarzi, tashqi ko'rinishi, tili, kirib kelish vaqtiga qarab, lo'lilarni Surxon vohasida ko'pincha "jo'gi", "mo'ltoni" deb ham atashadi.

Olib borilgan dala materiallariga asoslanib, Surxon vohasi lo'lilarini uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi, mahalliy lo'lilar (ularning ota-bobolari qadim-qadimdan ikki daryo oralig'iga ko'chib kelishib, bu yerlarni makon qilishgani uchun o'zlarini mahalliy deb hisoblashgan).

Ular o'zlarini mug'at deb atashgan. Shuningdek, o'zbeklar va tojiklar ularni lo'li, jo'gi, mo'ltoni deb ham atashadi.

Ikkinchisi, afg'oni lo'li yoki afg'oni jo'gi, ular o'zlarini afg'oni mug'at yoki kovuli deyishadi. Ularning atrofida yashovchi mahalliy yerli xalqlar afg'oni lo'li yoki qora lo'li deb ham atashadi [5].

Uchinchisi, tovoqtarosh (sog'utarosh, kosatarosh). Ularning atrofida yashovchi mahalliy yerli xalq ularni soqataroshlar deb atashadi [2].

XX asrning o'rtalariga qadar lo'lilar vohada ko'chib yurishgan yoki yarim ko'chmanchilik hayot tarzini boshidan o'tkazishgan. Ular doimo bir hududdan ikkinchisiga ko'chib, ma'lum mavsumda vaqtinchalik qishloqlarda yashovchi mahalliy aholi uylariga joylashgan. Asosan, yig'im-terim davrida qishloq xo'jalik ishlarida yollanib ishlab, muayyan muddatdan so'ng boshqa hududga ko'chishgan. Yoshi ulug' lo'lilarning eslashlaricha, ular mavsumiy ma'lum bir hududda yashab, o'sha yerdagi aholining xo'jalik ishlariga yordamlashishgan va evaziga turar joy hamda pul yoki qishloq xo'jalik mahsulotlarini olgan [4].

XX asrning 50-yillarida hukumat tomonidan darbadar lo'lilarni uy-joy bilan ta'minlash va ularni turg'un hayot tarziga o'tkazish bo'yicha harakatlar boshlangach, Surxondaryo hududida yashab turgan lo'lilar o'zlari uchun ajratilgan yerlarda uy-joy qurib, joylasha boshlaganlar. Shu tarzda asta-sekinlik bilan ular o'z qishloqlarini tashkil etib, o'sha joyda yashay boshlaganlar. Shuningdek, lo'lilar o'zlariga yaqin bo'lgan qavmdoshlarini ham ko'chirib kelib, alohida qishloqlarda o'zlarining jamoalarini tashkil qilishgan. Ko'chishlar hozir ham davom etmoqda. Bunga mehnat bozorida talab va lo'lilar orasidagi o'zaro nikoh va qarindoshlik aloqalari asosiy sabab bo'lishi mumkin.

Asrlar davomida, lo'lilarning migratsiyasi sababli, ular turli mintaqalarga tarqalib, madaniyati, antropologik ko'rinishi, turmush tarzi, mashg'uloti kabi belgilari bilan ajralib turuvchi qavmlarni tashkil qilishgan. Bunday holat, ularning bir madaniyatga tegishli vakillar sifatida o'z identikligiga ega bo'lishga olib kelgan. Ular yuz tuzilishi va hayot tarziga ko'ra "jo'gi", "mazang" va "lo'li" kabi nomlar bilan atalgan va ularning aksariyati islom diniga e'tiqod qilishgan. Mazanglar boshqa guruhlardan farqli tarzda turg'un turmush tarzida yashab, asosan dehqonchilik, chorvachilik, zuluk qo'yish va folbinlik bilan shug'ullanishgan. Darbadar hayot kechirganlari esa, oq bo'zdan

tayyorlangan chodirlarda yashashgan va ular joylashgan hududlarda barcha ko'l va anhorlar yaqiniga chodir qurib, agar u yerlar o'zbeklar tomonidan band qilinmagan bo'lsa, erkin ko'chib yurishga ruxsat berilgan. Shuning uchun ham lo'lilarning katta qismi Zarafshon vohasi va qolgan qismi Qorako'l tumani atrofida joylashgan. XIX asrning 20-yillarida 2,5 millionlik Buxoro amirligi aholisi orasida 2000 nafardan ortiq lo'lilar bo'lgan [2].

Surxon vohasining shaharlari va uning atroflarida shunday to'xtash maskanlari, lo'lilar yashaydigan turar joylar hamda qishloqlar shakllana boshlagan. Lo'li qishloqlarning paydo bo'lishiga bir nechta misollar keltiramiz:

Sherobod tumanidagi Lo'li qishlog'i aholisi bundan 40 yillar oldin qo'shni Turkmanistondan ko'chib kelib, shu yerda qo'nim topgan. Jarqo'rg'on tumanidagi Oqtepa va Ismoiltepa qishloqlari aholisi ham bundan 40 yillar oldin viloyatning Sho'rchi tumanidagi Kultepa, Kommuna, Oynako'l qishloqlaridan ko'chib kelishgan. Jarqo'rg'on tumanidagi Qo'shtepa qishlog'i lo'lilari, Sherobod tumani Zang qishlog'idagi lo'lilar ham Sho'rchi, Denov tumanlaridan ko'chib kelishgan. Jarqo'rg'on tumani Qorayantoq qishlog'idagi lo'lilarning bosh bobolari Turkmanistondan ko'chib kelishgan [2].

Denov tumanining Qoraxon mahallasida lo'lilarning Bobo Abdurahmon dahasi vakillari yashashadi. Denov tumanining "Quyoshli yurt" mahallasida esa asosan Dilmurod va Balxi dahalari yashab kelishmoqda.

Denov tumanida yashaydigan lo'lilar 7 ta dahaga bo'linadi. Bular quyidagilardan iborat: Bobo Abdurahmon, Dilmurod, Qoralik, Kuttalig, Balhi, Sagboz, Qo'qoni [3].

Mazkur qishloqlarda choynak-piyola yamaydigan ustalar, yog'ochsoz ustalar (xontaxta, yog'och qoshiq, tovoq-sozlar, yog'ochdan shift yasaydigan ustalar) yashashadi [2].

Sariosiyo tumani "Niloba" qishlog'ida 93 ta uyda 117 oiladan iborat bo'lgan 570 nafar lo'lilar yashaydilar. Mazkur qishloqqa 1957- yili kolxoz raisi Hamzayev boshchiligidagi "Voroshilov" nomli kolxozdan uch xo'jalik ko'chirilgan. Ular 2 aka-uka va amakidan iborat bo'lgan. Abdushukur Maxmashukurov (1-xotinidan 9 farzand, 2-xotinidan 5 farzand), Xudoysukur Maxmashukurov (7 farzand), Mashukurov Hikmatillo (7 farzand). Jami 35 kishi ko'chirib kelingan. Ko'chirilgan kolxozda ishlashgan. Qishloq aholisining asosiy qismi shu ikki aka-uka va amakining avlodlari hisoblanadi [1].

Sariosiyo tumanida yashaydigan lo'lilar 7 ta dahaga bo'linadilar. Bular quyidagilardan iborat: Sagboz, Bobo Abdurahmon, Bo'rigi, Qo'qoni, Kuttalig, Qoralig, Dilmurod.

Uzun tumanida yashaydigan lo'lilar 7 ta dahaga bo'linadilar. Bular quyidagilardan iborat: Sagboz, Qo'qoni Bo'rigi Bobo Abduraim, Kuttalig, Qoralig, Dilmurod.

Sherobod tumanida yashaydigan lo'lilar 6 dahaga bo'linadi. Bular quyidagilardan iborat: Prim berdi, Eshon berdi, Hazratqul berdi, Razzoq berdi (qorovul), Ulug' berdi, Balxi.

Lo'lilarning Surxon vohasiga kirib kelishiga, avvalo, iqtisodiy omillar ham sabab bo'lgan. Masalan, Sherobod tumanining Sherobod mahallasida lo'lilarning "tovoqtaroshlar" guruhi yashashgan. Bu joyda lo'lilar, asosan, toldan hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlashgan va shu orqali ular savdo markazlari sari intilganlar [2].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida aytish mumkinki, mintaqada kechgan etnoijtimoiy va etnomadaniy jarayonlarning ta'sirida lo'lilarning turmush tarzining yuksalishi, ularning an'anaviy mashg'uloti tilanchilikdan voz kechib, boshqa kasblar bilan shug'ullanish, moddiy hayotning ko'tarilishiga sabab bo'lgan. Albatta, bu jarayon yaqin o'tmishda emas, balki, uzoq tarixiy davr davomida yuzaga kelgan tarixiy- ijtimoiy hodisa mahsuli hisoblanadi. Bugungi kunda ular o'zlarini o'zbek sifatida bilib, antropologik jihatdan ham, xo'jalik turlari va moddiy-ma'naviy madaniyati jihatidan ham o'zlarini lo'li ekanliklarini tan olgan holda, madaniylashgan mahalliy aholi vakillari sifatida bilishadi. Surxon vohasida lo'lilar bir necha asrlar davom etgan etnomadaniy jarayonlar natijasida o'ziga xos mahalliy xususiyatlar asosida shakllandilar. Ular boshqa xalqlar bilan asrlar davomida qo'ni-qo'shni bo'lib yashashlari davomida o'zbek va tojik xalqlari bilan tig'iz etnomadaniy aloqalarni o'rnatishgan.

1. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumani, Niloba qishlog'i, 2022-yil, may.
2. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Sherobod mahallasi, 2020-yil, dekabr.
3. Doniyorov A., Bo'riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. – Toshkent: NIFMSH, 2021. – 166 b.
4. Marushiakova E., Popov V. Gypsies in Central Asia and the Caucasus. – Switzerland: Palgrave Macmillan, 2016. – P.13.
5. Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi. – Toshkent: Yangi nashr, 2005. – 143 b.
6. Гребенкин А.Д. Мелкие народности Заравшанского округа// Русский Туркистан. Сборник. Вып.II. – Москва: Университетская типография (Катков и К), 1872. – 117 с.
7. Назаров Х.Х. Современные этническое развитие Среднеазиатских цыган (люли) // Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1980. – 185 с.
8. Оранский И. Таджикоязычные этнографические группы Гиссарской долины (Средняя Азия). Этнолингвистическое исследование. – Москва: Ин-т востоковедения, 1983. – 124 с.
9. Снесарев Г.П. Среднеазиатские цыгане // КСИЭ. Вып.XXIX. – Москва: 1960. – 96 с.



UDK:902.34:(575/1)(19)

Saida SIDDIQOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti  
E-mail: saidasiddiqova@gmail.com

O'zFA haqiqiy a'zosi, t.f.d., akademik D.Yusupova taqrizi asosida

### G'YOSIDDIN XONDAMIR ASARLARI TARIXSHUNOSLIGI

Annotatsiya

Maqolada Temuriylar davri tarixchisi G'iyosiddin Xondamir asarlari tarixshunosligi. O'zbekistonda G'iyosiddin Xondamir hayoti va faoliyatini tadqiq etgan olimlar va ularning asarlari to'g'risida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** G'iyosiddin Xondamir, "Habib us-siyar", "Xulosat ul-axbor", "Makorum ul-axloq", "Noma-i nome", "Dastur ul-vuzaro" O'rta Osiyo, Tarixiy tadqiqotlar.

### ИСТОРИОГРАФИЯ ТВОРЧЕСТВА ГИЯСИДДИНА ХОНДАМИРА

Аннотация

В статье рассматривается историография произведений историка периода Темуридов Гиясиддина Хондамира. Описаны исторические труды исследовавшие жизнь и деятельность Гиясиддина Хондамира в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Гиясиддин Хондамир, "Хабиб ас-сияр", "Халасат ал-ахбар", "Макарим ал-ахлак", "Нама-и нами", "Дастур ал-вузара", Центральная Азия, исторические исследования.

### HISTORIOGRAPHY OF THE WORK OF GHIYASIDDIN KHONDAMIRA

Annotation

The article deals with the historiography of the works of the Timurid era historian Ghiyosiddin Khondamir. The scientists who researched the life and activities of Ghiyosiddin Khondamir in Uzbekistan and their works are described.

**Key words:** Ghiyosiddin Khondamir, "Khabib us siyar", "Kxulasat ul akxbar", "Makarim ul-akhlaq", "Nomei nome", "Dastur ul-vuzara", Central Asia, historical studies.

**Kirish.** Temuriylar davri tarixchisi G'iyosiddin Xondamir hayoti va faoliyati hamda uning asarlari O'rta Osiyo, Eron va Hindiston tarixini tadqiq etishda muhim manbalardan hisoblanadi. Uning boy va sermazmun ilmiy merosi xalqimizning uzoq o'tmishidagi tarixi va madaniyatini o'rganishda muhim manbalar sirasiga kiradi. Xondamirning bizgacha saqlanib qolgan asarlari nafaqat O'zbekistonda balki xorijiy mamlakatlarda ham o'rganilgan.

**Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili.** Mazkur maqolada Temuriylar davrining mashhur tarixchi-olimi, ushbu davr tarixiga doir o'ndan ortiq betekror asarlar yaratgan G'iyosiddin Xondamir asarlarining mahalliy miqyosda o'rganilishiga e'tibor qaratiladi. Bunda bir qator tarixchi va tarixnafis olimlarning mavzuga doir asarlarini tahlil etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklarni tarixiy-madaniy ahamiyatini ochib berishda tarixiy manbalar va tahlilga tortilgan tadqiqot ishlari xolislik, ilmiylik, tarixiylik, tizimlilik, tarixiy davrlashtirish, milliy qadriyatlarini ulug'lash tamoyillari asosida qiyosiy tahlil etilgan. Maqolada, shuningdek, fanlararo yondashuvlar, xususan, tarixiy yodgorliklarni kuzatish, systematic va statistic tahlildan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** G'iyosiddin Xondamir asarlarining o'rganilishi borasida dastlabki tadqiqotlar sovet davrida rus sharqshunos olimi V.V.Bartold tomonidan olib borilgan. Uning 1926-yilda e'lon qilingan "Работы по исторической географии" va "Работы по исторической географии из истории Ирана" nomli kitoblari Xondamirning "Habib us-siyar" va boshqa bir qator asarlari ham ilmiy tahlilga tortilgan. Muallif tomonidan XV asr oxiri - XVI asr boshlari Markaziy Osiyo va Eron davlatlari tarixiy geografiyasiga doir masalarni o'rganishda G'iyosiddin Xondamir asarlarining ahamiyatini ko'rsatib berishga alohida e'tibor qaratilgan [7-8].

O'zbekistonda G'iyosiddin Xondamir hayoti va ijodini chuqur o'rganish dastlab akademik Bo'riyov Ahmedov tomonidan boshlab berilgan. U 1965-yil "Xondamir" nomli risolasini chop ettirgan. Risolada G'iyosiddin Xondamirning hayoti va ijodi, asarlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Xususan, ushbu risolada muallifning "Makorum ul-axloq", "Xulosat ul-

axbor" va "Noma-i nome" asarlarida keltirilgan davlat lavozimlari, Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq bunyodkorlik (masjid, madarasalar, hovuzlar, ko'piriklar, xonaqohlar qurilishi) ishlari va o'z davrining bir qator tarixchi-olimlari, shoirlari, jumladan, o'zining homiyligida yetishib chiqqan olimlar haqida yozib qoldirilgan qimmatli ma'lumotlar o'zbek tiliga tarjima qilinib, ilmiy doiraga kiritilgan [1-3]. 1985-yilda mualliflar jamoasi tomonidan chop ettirilgan "Navoiy zamondoshlari xotirasida" maqolalar to'plamida hamnomli kitobda ham B.Ahmedovning "Habib us-siyar", "Makorum ul-axloq" "Xulosat ul-axbor" ning xotima qismini va "Dastur ul -vuzaro" ning beshinchi bobidan ayrim parchalari berilgan ilmiy maqolalari bilan qatnashgan. Unda G'iyosiddin Xondamirning asarlari XV-XVI asrlar davri tarixini o'rganishda muhim birlamchi manbalardan biri ekanligini ta'kidlangan[4-5].

G'iyosiddin Xondamir hayoti va ijodini chuqur tadqiq etgan va bu borada ko'plab ilmiy ishlari (ilmiy maqollar, tarix sohasi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi, monografiyalari) bilan tarixchi-olimlar ilmiy doirasida muhim o'rin tutgan olim Akademik Dilorom Yusupovadir. Mazkur mavzu olimaning doktorlik dissertatsiyasida va shu mavzuga tegishli ilmiy ishlarida har tomonlama yoritib berilgan. Muallif tomonidan nashr ettirilgan "Xondamir", "Вопросы градостроительства в трудах Хондамира", "Вопросы науки и культуры эпохи Темуридов в трудах Хондамира" nomli maqolalari, "Юсупова Д.Ю. Творческое наследие Хондамира – как источник по истории культуры Центральной Азии и Северной Индии XV-XVI вв." nomli doktorlik dissertatsiyasi, "Жизнь и труды Хондамира" nomli monografiyasi shular jumlasidandir [10-15]. Ularda G'iyosiddin Xondamir bosib o'tgan hayot va ijod yo'li, uning XVI asr madaniyat ravnaqiga qo'shgan hissasi birinchi marta to'liq ilmiy asoslab berilgan. Bundan tashqari, D.Yusupovning yuqorida nomi keltirilgan doktorlik dissertatsiyasida tarixchi-olimning bizgacha yetib kelgan asarlari mazmuni va ularning turli davlatlarda saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari, ushbu nodir qo'lyozma asarlarning bir-biridan farqli jihatlari, ularda keltirilgan tarixiy voqe'liklar, xususan, XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Markaziy Osiyo va Shimoliy Hindistondagi ilm-fan taraqqiyoti hamda mahalliy xalqlarning adabiyot va san'at sohaslarida

erishgan yutuqlari haqida bergan ma'lumotlari tahlil etilib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Shuningdek, olim tomonidan chop ettirilgan ilmiy ishlarda G'iyosiddin Xondamir hayoti va uning ilmiy merosini o'rgangan olimlarning ilmiy ishlari o'zaro qiyosiy tahlil etilgan [14. 5-67].

D.Yusupovaning mazkur mavzuga doir ilmiy ishlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu nafaqat G'iyosiddin Xondamirning hayoti va faoliyatini yoritibgina qolmay, uning asarlarida keltirilgan tarixiy shaxslar, xususan, temuriy shahzodalar, turli soha mutaxassislari bolgan olimlar haqidagi qiziqarli tarixiy faktlarni ochiq qilganidir. Misol uchun, XV asrning buyuk allomalari bo'lmish Alisher Navoiy hayoti va faoliyati bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlarning ochiq qilinishi shular jumlasidandir. Ya'ni uning Xurosonda vazir ul-vuzaro lavozimida faoliyat yuritgan davridagi siyosati, oddiy xalqqa e'tibori, hukumat tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga ko'rsatgan ijobiy ta'siri, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni, bunyodkorlik ishlaridagi rahnamolik ishlari, madaniyat va san'at, ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan harakatlari xususidagi (masjid, madrasa, kutubxonalar qurilishi, ularning faoliyati va turli soha mutaxassislar tayyorlashda madrasalarning o'rni masalasiga doir) tarixiy faktlar olimaning ilmiy ishlarida o'zbek va rus tillariga tarjima qilinib, nashr ettirilgan [15].

Bundan tashqari, akademik D.Yusupova G'iyosiddin Xondamir asarlarida keltirilgan tarixiy ma'lumotlar asosida xattotlik, minatura-rassomlik san'ati va musiqa sohasida ijod qilgan usha davr ijodkorlari, ushbu davrda bunyodkorlik (madrasa, masjid, xonaqo'xlar, shifoxonalar, xammomlar, hovuzlar, ariqlar, rabotlar, bog'lar, saroylar) ishlarini amalga oshirishda ishtirok etgan hunarmandlar, usta-me'morlar faoliyati hamda ular bunyod etgan me'moriy inshootlarning turlari, vazifalari, ahamiyati masalalarini atroflicha ilmiy asoslab bergan. Umuman olganda, olim G'iyosiddin Xondamir asarlarining manbaviy ahamiyati, ularning muhim tarixiy-ma'naviy yodgorlik ekanini isbotlagan [10; 12].

O'zbekistonda G'iyosiddin Xondamir asarlari chuqur tadqiq etilishida o'z hissasini qo'shgan yana bir tarixchi olim Muzaffar Amedovdir. Ushbu olimning ilmiy tadqiqotlari G'iyosiddin Xondamirning "Qonuni Humoyuniy" asari bilan bog'liq. Muallif tomonidan yozib, himoya qilingan "Хондамирнинг «Қонуни Хумоюнӣ» асари – тарихий манба сифатида" nomli tarix fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi va boshqa ilmiy ishlari fikrimizga dalil bo'ladi. Mazkur dissertatsiyada olimning "Qonuni Humoyuniy" asariga umumiy tavsif berilgan, G'iyosiddin Xondamir hayoti va faoliyatini yoritilgan, asar manbalarini (ya'ni asarni yozishda foydalanilgan zamondosh tarixchi-olim va shoirlarning asarlari, hattoki saroy hujjatlaridan ham foydalanilgan) aniqlangan, tahlil etilgan asarning bizgacha yetib kelgan qo'lyozma nusxalarini qiyosiy o'rganilgan va uni tadqiq etgan olimlar haqida ma'lumot berilgan [6]. Bundan tashqari, dissertatsiyada G'iyosiddin Xondamir tomonidan berilgan Humoyunshoh davri davlat boshqaruvi, uning hukmronligi davrida o'tkazilgan islohatlar, Hindistonning XVI asrdagi madaniy hayotiga oid ma'lumotlar mavzuga tegishli boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil etilgan.

G'iyosiddin Xondamir asarlarni o'rganishga doir navbatdagi ilmiy ishlar 2013-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti hodimlari I.Bekjonov

va J.Hazratqulovlar tomonidan e'lon qilingan. Ular tomonidan "Habib us-siyar fi axborni afrodi bashar" (Bashar xalqi siyratidan habar beruvchi do'st) asari fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan va "Bobur xalqaro jamoat fondi" tomonidan "O'zbekiston" nashriyotidan bosmadan chiqqan [2].

Tarix fanlari doktori, professor Abdumajid Madraimov o'zining izlanishlari orqali Xondamir Boburning hayoti va faoliyatini o'rganishga qo'shgan hissasiga oid tarixiy faktlarni asoslab bergan. Muallif tomonidan G'iyosiddin Xondamirning mazkur masalaga tegishli "Habib us-siyar", "Makorum ul-axloq", "Xulosat ul-axbor" asarlaridagi ma'lumotlar "Boburnoma" va Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, quyidagi xulosalarga kelingan,

Birinchidan, G'iyosiddin Xondamirning Zahiriddin Muhammad Boburning amakilari bo'lmish - temuriy hukmdorlar: Sulton Abu Said Mirzo va uning o'g'illari to'g'risidagi bergan ma'lumotlari "Boburnoma" va "Tarixi Rashidiy" asarida mavjud emas.

Ikkinchidan, Zahiriddin Muhammad Boburning tug'ilishi va yoshligi to'g'risidagi ma'lumotlar "Tarixi Rashidiy"ga nisbatan to'liq. "Boburnoma" asarida esa umuman yo'q. Demak, G'iyosiddin Xondamir asaridagi Boburning bolaligi to'g'risidagi ma'lumotlar boburshunoslikka qo'shilgan hissa deyish mumkin.

Uchinchidan, G'iyosiddin Xondamirning "Xulosat ul-axbor", "Makorum ul-axloq" asarlaridagi Alisher Navoiy va uning zamondoshlari to'g'risidagi ma'lumotlar "Boburnoma" va "Tarixi Rashidiy" asarlarida qisqaroq qilib bayon etilgan. Bunday ma'lumotlar Xondamir batafsil ammo "Boburnoma" asarida juda ixcham. "Tarixi Rashidiy" bayonida esa ayrim o'zgarishlar mavjud.

To'rtinchidan, G'iyosiddin Xondamir XV asr oxirida Hirotdagi o'z zamondoshlari va Alisher Navoiy to'g'risidagi keltirib, o'tgan ma'lumotlar juda mukamalligi bilan ajralib turadi. Bobur Mirzo tomonidan esa ular haqida ixcham lekin o'ziga xos tarzda eng muhim xususiyatlarini bayon etish bilan cheklanadi. "Tarixi Rashidiy"da Xuroson madaniy hayoti imkon darajasida yoritilgan. Muallifning fikriga ko'ra, bu uchala tarixchilarning asarlari XV asr oxirida Hirotdagi madaniy hayot va unda Alisher Navoiyning homiylik faoliyatini yoritishda bir-birini to'ldirib kelgan [9].

G'iyosiddin Xondamir asarlarining o'ganilishi borasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy ishlar orasida yosh sharqshunos olim Komiljon Rahimov tomonidan "Makorum ul-axloq" asarining ilmiy-izohli tarjimasi o'zining bir qator jihatlari bilan oldingi tarjimalaridan farq qiladi. K.Rahimov ushbu tarjima tadqiqot ishi bilan Alisher Navoiyning hayoti va ijodi hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatini o'rganish ishiga katta hissa qo'shgan [1].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, G'iyosiddin Xondamir asarlari nafaqat muarrixning bevosita guvohligida yuz bergan hodisalar balki tahlilga muhtoj bo'lgan undan ham qadimiyroq voqealar tarixini o'zida aks ettirgan. Shuning uchun ham, G'iyosiddin Xondamir asarlari boshqa manbalardan ko'ra orginalligi bilan ajralib turadi. Mazkur asarlar Markaziy Osiyo hududining XV-XVI asrlar tarixini tadqiq etishda muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli, bugungi kunda ham ularni tadqiq etish va bu boradagi ilmiy ishlarni e'lon qilish zarurati tarixchi olimlar oldida turgan dolzarb masalardan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Гиёсиддин Хондамир. Буюклик хислати /Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар китобининг Захириддин Муҳаммад ҳақидаги боблари. /Форс тилидан И.Бекжоновлар таржимаси. Масъул муҳаррир Д.Юсупова. – Тошкент:Sharq, 2011. – 304 б.
2. Гиёсиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар /Форс тилидан Ж.Ҳазраткулов ва И.Бекжоновлар таржимаси. Масъул муҳаррир В.Раҳмонов. – Тошкент: O'zbekiston, 2013. – 780 б.
3. G'iyosiddin Xondamir Makarim ul-axloq /Fors tilidan K.Rahimov tarjimasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2018. – 233 b.
4. Ахмедов Б.А. Хондамир. – Тошкент, 1965. – 54 б.
5. Ахмедов Б.А. Навоий замондошлари хотирасида. – Тошкент, 1985.
6. Ахмедов М.Б. Хондамирнинг "Қонуни Хумоюнӣ" асари – муҳим тарихий манба сифатида. Т.ф.н.д.дисс. автореферати. – Тошкент. 2002. - 25 б.
7. Бартольд В.В. Работы по исторической географии из истории Ирана. – Москва: "Восточная литература" РАН 2002. – 706 с.
8. Бартольд В.В. Работы по исторической географии из истории Ирана. – Москва: "Восточная литература" РАН 2003. – 658 с.

9. Madraimov A. Tarixchi Xondamirning boburshunoslikka qo'shgan hissasi". // O'zbekiston til va madaniyat. 2024, 3(3)-son. – Б. 16-26.
10. Юсупова Д.Ю. Новые документы, относящиеся к библиографии Алишера Навои //Общественные науки в Узбекистане – №12, 1981. – С.43.
11. Юсупова Д.Ю. Вопросы градостроительства в трудах Хондамира // Позднефеодальный город Средней Азии. – Ташкент: Фан,1990. – С.157-162.
12. Юсупова Д.Ю. Рукописные источники по музыкальному искусству в фондах Института востоковедения и Института рукописей //Музыкальное, театральное искусство и фольклор. – Ташкент: Фан, 1992. – С.152-163.
13. Юсупова Д.Ю. Вопросы науки и культуры эпохи Темуридов в трудах Хондамира //Материалы международной научной конференции «Расцвет науки, культуры и образования в эпоху Темуридов». – Ташкент-Париж, 1996. – С. 28-36 (рус ва француз тилларида).
14. Юсупова Д.Ю. Творческое наследие Хондамира – как источник по истории культуры Центральной Азии и Северной Индии XV-XVIvv.: Автореф. дисс... на соиск.уч.ст.д.и.н. – Ташкент, 2001. – 67 с.
15. Юсупова Д.Ю. Жизнь и труды Хондамира. – Ташкент: Фан, 2006. – 325 с.



UDK:1.159.9.316.

**Gavhar TURSUNOVA,**  
Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi, PhD  
E-mail: [tursunovagavhar@gmail.com](mailto:tursunovagavhar@gmail.com)

*JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti A.Samandarov taqrizi asosida*

## ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDAGI TIBBIYOT TIZIMIDAGI SIYOSATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatidagi tibbiyot tizimidagi siyosati haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, o'sha davrdagi tibbiy xizmatlardan foydalanishning mahalliy aholi orasida kengayishiga sabab, amaliyotda ma'lum bir kasalliklarning tuzalishi, ayollar va bolalarga tibbiy yordam ko'rsatilishi, vrachlardan maslahat olish va dori retsepti yozish, mahalliy aholi uchun ochilgan ambulatoriyalar tibbiy-sanitariya ahvoli, dori-darmon, koykalar bilan ta'minlanishi ahvoli kabi masalalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tibbiyot tizimi, kasallik tashxisi, tibbiy yordam, tibbiy holat, tibbiy punktlar.

## ПОЛИТИКА МЕДИЦИНСКОЙ СИСТЕМЫ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье описывается политика Российской империи в медицинской системе Сырдарьинской области. Также причиной расширения использования медицинских услуг среди местного населения в то время стало лечение некоторых заболеваний на практике, оказание медицинской помощи женщинам и детям, получение консультаций врачей и выписка рецептов, врачебная и медицинская помощь. санитарное состояние поликлиник, открытых для местного населения. Освещены такие вопросы, как состояние обеспеченности медикаментами и койками.

**Ключевые слова:** Медицинская система, диагностика заболеваний, медицинское обслуживание, состояние здоровья, медицинские точки.

## POLICY OF THE MEDICAL SYSTEM OF THE RUSSIAN EMPIRE IN SIRDARYA REGION

Annotation

This article describes the policy of the Russian Empire in the medical system of the Syrdarya region. Also, the reason for the expansion of the use of medical services among the local population at that time was the healing of certain diseases in practice, the provision of medical care to women and children, receiving advice from doctors and writing prescriptions, the medical and sanitary condition of outpatient clinics opened for the local population, Issues such as the condition of the supply of medicines and beds have been highlighted.

**Keywords:** Medical system, disease diagnosis, medical care, medical condition, medical points.

**Kirish.** Rossiya imperiyasi tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o'lkasida joylashtirilgan harbiy qismlar va yangi tashkil etilgan shaharlar, aholi markazlarida tibbiy holatni nazorat qilish, ko'chib kelgan va mahalliy aholi orasida turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish va oldini olish maqsadida zamonaviy tibbiyot muassasalari tashkil etila boshlandi. 1867 yildan e'tiboran Sirdaryo viloyatining yirik shaharlarida rusiyazabon va mahalliy aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun tibbiy punktlar, ambulatoriya va shifoxonalar, barpo etish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Turkistonda Rossiya imperiyasiga qadar mahalliy aholi an'anaviy tibbiyotga murojaat qilganlar. Rossiya imperiyasi Sirdaryo viloyatini tashkil etganidan so'ng, ko'chirilgan hamda mahalliy aholi sog'lig'ini saqlash, ushbu sohada zamonaviy tibbiyotni joriy qilish uchun imkon qadar choralarni ko'rdi. Chunki birinchidan, ko'chib kelgan aholini tibbiy himoyalash muhim bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy aholi tayyor kuchi kuchi sifatida ular sog'lig'ini himoyalash muhim ahamiyat kasb etar edi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sirdaryo viloyati markazi Toshkent shahrida 1868 yildan dastlabki tibbiy muassasalarga asos solindi. 1868 yilda ochilgan dastlabki tibbiy muassasa harbiy xizmatchilarga tibbiy yordam ko'rsatgan va harbiy lazareti deb nomlangan. 1870 yildan 415 o'ringa mo'ljallangan harbiy hospitalga aylantirilgan[1].

Bunda mahalliy aholi ham davolangan va xarajatlar Toshkent shahar dumasi tomonidan qoplangan.

1880 yillardan Turkistonda dastlabki shifoxonalar ochila boshlandi. O'sha davr sharoiti va aholi mentalitetidan kelib chiqib ayollar, bolalar, erkaklar shifoxonalari ochilgan. Toshkentda 1883 yilda dastlabki ayollar va bolalar shifoxonasi ochilgan. Ushbu shifoxonada 1883 yildan 1893 yilgacha 10 yil davomida 24747 nafar bemor murojaat qilganligi mahalliy aholining ham tibbiy

xizmatdan foydalanishi oshganligini ko'rsatadi. Lekin dastlabki davrlarda mahalliy aholi vakillari, ayniqsa, xotin-qizlarning rus tibbiyotidan foydalanish darajasi past darajada bo'lgan edi.

Sababi, ularni oila boshliqlari g'ayridin, ayniqsa erkak vrachlar qabuliga qo'ymasligi masalasi yuqori bo'lgan. Ayollar juda og'ir ahvolda, o'limga rozi bo'lsalarda, erkak vrachlarga murojaat qilmaganlar. Keyinchalik alohida ayollar kasalxonalarining ochilishi, ularda ayol vrachlarning faoliyat ko'rsatishi natijasida mahalliy aholi xotin-qizlari ham shifoxonalarga borishi ulushi oshib borgan. Bemor xotin-qizlarga, bolalarga bepul xizmat ko'rsatilgan [2].

Bundan tashqari Toshkentda 1880 yilda tashkil etilgan ayollar tug'ruqxonasi mahalliy aholi ayollariga beminat xizmat ko'rsatgan. Bu Turkistondagi yagona tug'ruqxona bo'lib, 7 ta o'ringa mo'ljallangan edi. 1906 yildan yangi tug'ruqxona qurilishi natijasida bu soha bir muncha rivojlangan [3].

1886 yil 12 iyunda tasdiqlangan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ga asosan 14 ta uezd uezd shifokori lavozimi ta'sis etilishi mintaqada tibbiyot tizimi shakllanishining asosiy bosqichlaridan biri bo'ldi.

Sirdaryo viloyati – Turkiston general-gubernatorligining 5 viloyatidan biri. 1867-yil tashkil etilgan. Markazi – Toshkent shahri. Tarkibida G'azali, Perovskiy, Chimkent, Avliyoota, Toshkent (1887-yilgacha Qurama nomida). Xo'jand (1887-yilgacha), Jizzax(1872-yilgacha) uyezdlari, Toshkent shahri va 1886-yildan Amudaryo bo'limi kirgan. 1910-yilgi ma'lumotga ko'ra, Sirdaryo viloyati maydoni 439428 kv chaqirim; aholisi 1911464 kishi bo'lgan (1867-yil 675 000, 1917-yil 2155 500).

1918-yil 30-aprelda viloyat Turkiston ASSRning bir qismiga aylanadi. 1920-yil oktyabrda Amudaryo bo'limi Amudaryo viloyatiga aylantiriladi. 1924-yil 27-oktyabrda milliy-hududiy chegaralanish natijasida Sirdaryo viloyati



hududining katta qismi Sirdaryo guberniyasi shaklida Qirg'iz ASSRga (1925-yildan Qozog'iston ASSR), kichik qismi (Toshkent uyezdi) O'zbekiston SSRga, Talas vodiysi Qoraqirg'iz muxtor viloyatiga (1925-yildan Qirg'iz avtonom viloyati) berildi. 1925-yil 29-yanvarda O'zSSR tarkibida Sirdaryo viloyatining bir qismida Toshkent viloyati tashkil qilindi. 1928-yil 17-yanvarda Qozog'iston ASSRda okruglarga bo'lish joriy etilishi bilan Sirdaryo viloyati butunlay tugatildi.

Viloyat Turkiston o'lkasining shimoli-g'arbiy qismini egallagan.

Shimolda To'rg'ay va Oqmo'la viloyatlari bilan, sharqda Yettisuv viloyati bilan, janubda Farg'ona va Samarqand viloyatlari va Buxoro bilan, janubi-g'arbda Xiva mulklari bilan, g'arbda – Orol dengizi bilan chegaradosh. Bu uzunlik bo'ylab cho'zilgan to'rtburchakka o'xshaydi.

Maydoni 504 700 km<sup>2</sup> (443 442 kv. versta). Viloyatning uzunlik bo'yicha eng katta qismi taxminan 1173 km (1100 versta), kengligi taxminan 747 km (700 versta).

Sirdaryo viloyati Turkiston o'lkasi hududining 70%ga yaqin qismini va Turkiston general-gubernatorligining 25%ga yaqin qismini egallagan.

Sirdaryo viloyati (Rossiya imperiyasi)dagi aholi o'troq, yarim o'troq, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchilarga bo'lingan. 20-asr boshlarida viloyat aholisining 1/3 qismi o'troq va 2/3 qismi ko'chmanchi bo'lgan. Sirdaryo viloyati (Rossiya imperiyasi)ning shimoli-g'arbiy qismi (Perovskiy, G'azali, Chimkent, Avliyoota va Amudaryo bo'limining katta qismi)da, asosan, ko'chmanchilar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, lo'lilar yashagan. O'troq aholi tarkibiga: o'zbek, sart, tojik, buxoro yahudiylari, tatarlar, Rossiyadan ko'chirib keltirilgan rus dehqonlari va boshqa kirgan. O'troq aholi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan, ko'chmanchilar esa, asosan, chorvachilik, yarim ko'chmanchilar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan.

1897-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda 1 478 398 kishi (ulardan 803 411 nafari erkak va 678 987 nafari ayol), xususan shaharlarda 205 596 kishi istiqomat qilgan. Viloyat aholisi tarkibida Toshkent shahri (155 673 kishi) nufusi qayd etilmagan, Sirdaryo viloyatining yirik shaharlari yo'q.

1897-yilda aholining so'zlashadigan tili bo'yicha taqsimlanishi[1] (tillarning ta'rifi XIX asr tilshunosligi bo'yicha berilgan):

Tahlil va natijalar. Shunga asosan 1886 yil 30 sentyabrda – “Sirdaryo viloyati shahar kasalxonalarini to'g'risidagi Nizom” qabul qilinib, viloyatning qator shaharlarida shifoxonalar tashkil etila boshlangan [4]. Bu shifoxonalarda o'tkir va surunkali kasalliklarga chalingan mahalliy va rusiyazon aholi qabul qilinib, ular tibbiy muolajalar qilingan.

1883-1892 yillarda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori, keyinchalik 1906-1908 yillarda Turkiston general-gubernatori, Rossiya imperiyasidan rusiyazon aholini ko'chirish siyosati tashabbuskori N.I.Grodekov tashabbusi bilan Sirdaryo viloyatining Toshkent, Avliyoota, Chimkent, Perovsk, Kazalinsk uездlarida uезд shifoxonalari hamda uезд vrachi lavozimlari ta'sis etildi. Nizomga asosan, uезд shifokoriga 1500 rubl, uning tarjimoniga 180 rubl va uезд feldsheriga 360 rubl yillik ish haqi belgilandi. Bundan tashqari, 1906 yilgacha uезд shifokoriga uning sud-tibbiyot ekspertizalarini o'tkazish uchun qilinadigan safar xarajatlari uchun yillik 300 rubl qo'shimcha ish haqi to'langan [5].

1900 yilga kelib Toshkentning Beshyog'och qismida mahalliy ayollar va bolalarga xizmat ko'rsatish maqsadida ikkinchi shifoxona ochilgan. Ba'zi bir sabablarga ko'ra, 1904 yilda ushbu shifoxona shaharning Shayxontohur qismiga ko'chirilgan.

1886 yilda Toshkentning Qatorterak mahallasida Muhammad Yusuf Mulla Ziyodov xonadonida ochiladi. Ushbu shifoxonaga 1886-1899 yillar oralig'ida, ya'ni 14 yil davomida 99887 nafar kishi 250372 marta murojaat qilishgan. Birgina 1907 yilda ushbu shifoxonadan 19980 nafar bemor tibbiy yordam olgan [6].

Ushbu tibbiy xizmatlardan foydalanishning mahalliy aholi orasida kengayishiga sabab, asta sekinlik bilan amaliyotda ma'lum bir kasalliklarning tuzalishi, ayollar va bolalarga bepul tibbiy yordam ko'rsatilishi, vrachlardan maslahat olish va dori retsepti yozishga bor yo'g'i 20 kop. olinishi edi. Lekin, mahalliy aholi uchun ochilgan ambulatoriyalar tibbiy-sanitariya ahvoli, dori-darmon, koykalar bilan ta'minlanishi qoniqsiz ahvolda bo'lgan edi. Tibbiy binolar loysuvoq, pastqam uylarda, budkalarda joylashgan.

Bu davrda 15000 mingdan ziyod aholisi bo'lgan Toshkentning eski shahar qismidagi uchta shifoxonada hammasi bo'lib davolanish uchun 30 ta o'rin mavjud bo'lgan [7].

Toshkent shahrida 1891 yilda difteriyani davolash uchun shahar shifoxonasi ochilgan. Bu 1892 yilda vabo tarqalgach, vabo bo'limi, keyinchalik yuqumli kasalliklar bo'limiga aylantirilgan. 1898 yilda Toshkentning yangi shahar qismi Jukovskiy ko'chasida kasalxona turidagi birinchi bino qurilgan. Unda 95 nafar kasallar bir vaqtda davolanish mumkin bo'lgan. Bunda terapevtik, jarrohlik, ayollar, bolalar va yuqumli kasalliklar bo'limi ishlab turgan. Kasalxona Toshkent shahar dumasi tomonidan moliyalangan.

**Xulosa.** Turkistonda mahalliy aholi orasida bezgak, vabo, buqoq, teri va boshqa yuqumli kasalliklar vaqti vaqti bilan tarqalib turgan. Bu juda katta ofatlarni keltirib chiqargan. Bu davlat tomonidan himoyalani, katta mayulag' ajratilib, ko'plab emlashlar o'tkazilib turilgan.

XIX asrning 90-yillari boshlarida Turkiston viloyatlaridagi tibbiy xodimlar soni tahlil qilinganda, Turkistonning markaziy uchta viloyatida hammasi bo'lib 25 nafar shifokor, 60 nafar feldsher borligi, shuningdek, Sirdaryo viloyatida 135500 kishiga, Samarqand viloyatida – 97100 kishiga, Farg'ona viloyatida – 100000 kishiga bir nafar shifokor to'g'ri kelgan [8].

Bunda Sirdaryo viloyatida tibbiy ahvol boshqa viloyatlarga qaraganda birmuncha og'irligi ko'zga tashlanadi. Sirdaryo viloyatida dori-darmon va tibbiy uskunalar uchun sarflangan xarajatlarga e'tibor bersak, masalan, 1891 yilda Sirdaryo viloyatida dori darmon uchun 7354.0 rub. 63 kop. miqdorida mablag' ajratilgan. Bundan Toshkent aholisiga bepul tarqatilgan 5045 rub. hisobga olinsa, uездlarda 33327 bemorni davolash uchun 2309 rub. 63 kop., ya'ni bir bemor uchun 6,9 kop. sarflangani ayon bo'ladi. Bu esa Rossiya imperiyasining Turkistondagi tibbiy sohadagi siyosati birmuncha zaifligini, buni boshqa davlatlar emas, balki Rossiya markazidagi boshqa guberniyalardan ham birmuncha pastligini ko'rsatadi.

Mahalliy aholini rus tibbiyotiga ishonchi orta borib yangi tashkil etilgan shifoxonalarga murojaat etgan bemorlar soni yillar kesimida oshib borgan. Lekin, mahalliy, an'anaviy tibbiyotga ishonish va unga murojaat qilish xollari ham saqlanib qolgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзаева Н.Д. Русский поселения Мирзачульского оазиса и их социально- экономическое положение в конце XIX-начале XX века. Автореф. дисс. ...на соиск. канд.ист.наук.- Тошкент, 2011.-30 с
2. .Потапова Н. Ю. История предпринимательства в Туркестане (вторая половины XIX-начало XX вв.) : Автореф. Дисс.канд. ист. наук.-Т.:2002.-27 с.
3. Равшанов Ш.Т. Туркестонга Россия империяси аҳолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи (XIX аср охири -1917 йил). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Тошкент.2023.-160 б
4. Равшанов Ш.П. Россия империясининг Фарғона вилоятига аҳолини кўчириш сиёсати ва унинг оқибатлари (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари).Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро.2023.-145 б.
5. Тайронов Ё. Р. Общественно- политическая деятельность Туркестанских предпринимателей в начале XX века.- Автореф. дисс. ... на соиск. канд. ист. наук.- Т.:2011.- 26 с.
6. Ташболотова С. А. Переселенческая политика царизма в Туркестане во второй половине XIX- начале XX вв. (на материалах Семиреченской и Ферганской области). Автореф. дисс. на соиск. канд.ист.наук. Бишкек.2012.-27 с.

7. Файзиева Ф. И. Бухоро амирлиги рус манзилгохларидаги ижтимоийиқтисодий ҳаёт. (1868-1920 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Бухоро., 2022.-128 б. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES International scientific-online conference 107
8. Шадманова С. Б. Вопросы социально- экономического и культурного положения Туркестана на страницах периодической печати (1870-1917 гг.) Автореф. дисс. на соик. докт.ист.наук.-Т.: 2011.-61 с.



UDK: 575.93/94

**G'ayratbek XAYDAROV,**  
Andijon davlat universiteti professori  
E-mail: [gayratbek.xaydarov@mail.ru](mailto:gayratbek.xaydarov@mail.ru)

T.f.d., professor O.Komilov taqrizi asosida

### FOREIGN INVESTMENTS – A DEVELOPMENT FACTOR

Annotation

The article highlights that in recent years, joint ventures with foreign investment participation have been established in the Fergana region, with their production capacities, export potential, and the number of jobs created continuing to increase. International business forums held in the cities of Fergana, Kokand, and Kuvasay between 2012 and 2015 played a significant role in this process. As a result of favorable conditions created for foreign investors, more than 20 joint ventures were established, which are analyzed from a historical and economic perspective.

**Key words:** Economic reforms, active investment, project, composite organization, product, produce, export.

### ИНОСТРАННЫЕ ИНВЕСТИЦИИ – ФАКТОР РАЗВИТИЯ

Аннотация

В статье в последние годы в Ферганской области создаются совместные предприятия с иностранными инвестициями, увеличиваются их производственные мощности, экспортный потенциал, создаваемые рабочие места. Важным в этом процессе в 2012-2015 годах стали международные бизнес-форумы, прошедшие в городах Фергана, Коканд и Куvasой. Исторически и экономически проанализировано, что в результате создания благоприятных условий для иностранных инвесторов было создано более 20 совместных предприятий.

**Ключевые слова:** Экономические реформы, активная инвестиция, проект, совместные предприятия, производство, производительность, экспорт.

### XORIJY INVESTITSIYA – RIVOJLANISH OMILI

Аннотация

Maqolada, so'nggi yillarda Farg'ona viloyatida ham xorijiy sarmoya ishtirokidagi qo'shma korxonalar tashkil qilinib, ularning ishlab chiqarish quvvatlari, eksport salohiyati va yaratilgan ish o'rinlari ortib bormoqda. 2012-2015 yillarda Farg'ona, Qo'qon va Quvasoy shaharlarida o'tkazilgan xalqaro biznes forumlar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etgan. Xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida 20 dan ortiq qo'shma korxonalar tashkil qilinganligi tarixiy-iqtisodiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy islohotlar, faol investitsiya, loyiha, qo'shma korxonalar, mahsulot, ishlab chiqarish, eksport.

**Kirish.** Respublikamizning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish borasida hukumatimiz tomonidan ulkan vazifalar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi va to'rtinchi yo'nalishlari aynan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy muhofaza siyosatiga bag'ishlangan. Shu jumladan, "...investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish"[1] qayd etildi. Iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun xorijiy, jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmining ham yildan-yilga o'sib borishi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsadlarini namoyon etuvchi Davlat investitsiya siyosatining olib borilishi natijasi bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilda amalga oshiriladigan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzalarida ta'kidlab o'tganidek, "Faol investitsiya siyosati mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora tadbirlarning eng muhim sharti va manbai bo'lmog'i kerak"[2]

**Metodlar va o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy o'sishi natijasida investitsiya siyosatining amalga oshirilishi natijasida so'nggi besh yil davomida mahalliy va xorijiy investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 9% dan ko'proqni tashkil etadi. Oxirgi o'n yilda esa mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilingan mahalliy investitsiyalarning hajmi 3,2 marta oshgan bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi 20 barobardan ziyodga o'sdi[2]. Mamlakatimiz iqtisodiyotini va uning yetakchi tarmoqlari, jumladan, yengil sanoatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash

maqsadida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining yillik o'sish sur'ati 2010 yilda 9,2 %ni, 2012 yilda esa 14%ga, 2015 yilda 19 %, 2017 yil 23 %ga yetdi. 2012 yilda respublikamizda investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 22,9 %ni tashkil etadi. Respublikamiz iqtisodiyotiga qariyb 2,5 mlrd AQSh dollari hajmida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, ularning 79%dan ko'prog'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Farg'ona viloyat hokimining hududlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarini tashkil etish dasturiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qaroridan kelib chiqib [3], 2012-2015 yillarda Farg'ona, Qo'qon va Quvasoy shaharlarida tashkil etilgan xalqaro biznes forumlar fikrimizning yorqin isbotidir. Xorijiy kompaniyalar hamda O'zbekistondagi chet el elchixonalar vakillari ushbu tadbirda katta qiziqish bilan ishtirok etishdi va manfaatli kelishuvlarga erishildi. 2012 yili Farg'ona shahrida viloyatning investitsion salohiyatiga bag'ishlangan xalqaro biznes forumda 20 ta davlatdan 100 dan ortiq kompaniya vakillari ishtirok etdi. Janubiy Koreya, AQSh, Fransiya, Gollandiya, Belgiya, Germaniya, Polsha, Singapur, Xitoy, Yaponiya, Ukraina, Rossiya, Indoneziya[4] va boshqa davlatlar vakillari viloyat tadbirkorlari bilan bevosita uchrashib, tadbirkorlarimiz uchun yaratilgan imtiyozlar samarasi bilan yaqindan tanishish imkoniyatlariga ega bo'lдилar.

Xorijiy investorlar va mahalliy tadbirkorlar o'rtasida ko'plab kelishuv va memorandumlar imzolaniib, ushbu uchrashuvlar natijasida Farg'ona viloyatida so'nggi yillarda 20 dan ortiq xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil qilinib, ular quyidagilardan iborat:

Farg'ona shahrida 7 ta: O'zbekiston-Xitoy "To produce and construction material" QK (qurilish materiallari ishlab chiqarish), O'zbekiston-Turkiya "Farg'ona shirinlik savdo" QK (oshxona xizmati), O'zbekiston-Xitoy "Fergana qicheng" QK (junni dastlabki qayta ishlash), O'zbekiston-Rossiya "Biorest

medical” QK (laboratoriya xizmati), O'zbekiston-Ozarbayjon “Zamon décor servis” QK (qurilish maxsulotlari ishlab chiqarish), O'zbekiston-Xitoy “Fergana guotai zhongyi” QK (junni qayta ishlash), O'zbekiston-Xitoy “Farg'ona Savdo plyus” (savdo vositachilik).

Qo'qon shahrida 6 ta: O'zbekiston-Xitoy “Fertilizer and Minerals” QK (fosforli o'g'itlar va boshqa noorganik mahsulotlar ishlab chiqarish), “Qo'qon Asaka Tekstil” Rossiya xorijiy korxonasi (trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish), O'zbekiston-Turkiya “BEST LUCK” QK (trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish), O'zbekiston-Xitoy “Jyulyan eksklyuziv materialis” (tayyor kiyimlar), O'zbekiston-Xitoy “AROUND BUSINESS PEOPLE” (vositachilik), O'zbekiston-Belorussiya “NOVOGAS-KOKAND” (xizmat).

Quvasoy shahrida O'zbekiston-Xitoy “SUN FA” QK.

Farg'ona tumanida 2 ta: O'zbekiston-Xitoy “Farg'ona Wangjige” QK (g'isht va sopol cherepitsa ishlab chiqarish), O'zbekiston-Koreya “Buloqzor-taomlari” QK (oshxona xizmati).

O'zbekiston tumani: O'zbekiston-Xitoy “Asia Excellent Plus” QK (qurilish maxsulotlari-elektrod ishlab chiqarish)

Dang'ara tumanida 2 ta: “Kiral shoes” Xitoy xorijiy korxonasi (poyafzal ishlab chiqarish), O'zbekiston-Xitoy “Asia-China Shoes” qo'shma korxonasi (poyabzal ishlab chiqarish).

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etish xisobiga 318 ta yangi ish o'rni yaratildi [5]. Bu mamlakatimizda xorijiy investorlarga va xorijiy investitsiyali korxonalar yaratib berilgan qulay shart-sharoitlar va qonunchilik asosida belgilangan imtiyozlar tufayli ularning ishonchi yildan-yilga ortib borayotganligining yorqin dalilidir.

Korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida har yili xorijiy investitsiyalar jalb qilinishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'z navbatida xorijiy kompaniyalar hududlar darajasida ishlab chiqilgan loyihalarga investitsiya kiritilishiga qiziqish bildirmoqdalar.

2014 yil uchun ishlab chiqilgan xorijiy investitsiyani jalb qilish dasturi doirasida yanvar-aprel oyida jalb qilingan investitsiya belgilangan istiqbolga nisbatan – 107,8 [6] foizni tashkil qildi. Jalb qilingan xorijiy investitsiyalar tekstil, qurilish materiallari ishlab chiqarish, mashinasozlik, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa sohalarga yo'naltirildi.

Dastur bo'yicha jalb qilingan investitsiyalar Koreya Respublikasi, Xitoy, Shveysariya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Buyuk Britaniya, Rossiya, Kipr va boshqa davlatlar hisobiga to'g'ri keldi.

Respublikada bosqichma-bosqich yaratilayotgan maqbul investitsion iqlim tufayli mustaqilligimizning ilk davrida viloyatda tashkil etilgan qo'shma korxonalar 2 ta bo'lgan bo'lsa, 2014 yilga kelib 24 ta yunalish bo'yicha 26 ta xorijiy davlat ishbiarmonlari ishtirokida 122 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar, ko'rsatilgan savdo va xizmatlar hajmi 332,3 mlrd. so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2013 yilning mos davriga nisbatan 127,5 foizga, 1991 yilga nisbatan 138 martaga o'sdi.

Viloyatdagi jami eksportning 38,4 foizi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar hisobiga to'g'ri kelmokda. Ular tomonidan 64,1 mln. dollarlik mahsulot eksporti amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlab o'tganidek, “Mamlakatimizda barcha hududlarni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor tufayli Farg'ona viloyati ham izchil taraqqiy etmoqda. O'tgan yili viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmi 8 % o'sdi. Farg'ona viloyatini 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi doirasida og'ir va yengil sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va servis yo'nalishlarida 3881 ta loyiha amalga oshirilib, 23 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi. Barcha manbalar hisobidan 584 milliard so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi. Ishbiarmonlik muhitni yanada yaxshilash va tadbirkorlikka keng erkinlik berish hisobiga joriy yilda 2 ming 260 yangi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ekti tashkil etilib, ularning soni 18775 taga yetdi”[7].

Tadqiqot natijalari. 2015 yil 1 oktabr holatiga Farg'ona viloyatida jami ro'yhatdan o'tgan xorijiy investitsiyali korxonalar

soni 149 tani tashkil etib, undan 142 tasi faoliyat ko'rsatib[4] kelmoqda. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining 2015 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarish, savdo va xizmatlar xajmi 887,6 mlrd. so'mni yoki 2014 yilning mos davriga nisbatan 115,2 % ni tashkil etmoqda. Viloyatning yalpi sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 20,5 % ga teng bo'lmoqda.

Korxonalar eksporti 144,8 mln AQSh dollariga yetib, o'sish 100,9 % ni, eksportidagi ulushi 37,2 % ni tashkil etmoqda.

2015 yil 10 oyida 20 ta yangi xorijiy investitsiyali qo'shma korxonalar tashkil etildi. Jumladan, Marg'ilon shahrida (2 ta) O'zbekiston-Xitoy “All metall invest” QK (qurilish materiallari ishlab chiqarish), O'zbekiston-Xitoy “Vodiy siymo invest” QK (ulgurji savdo);

Farg'ona shahrida (10 ta) O'zbekiston-Qirg'iziston “Far'g'ona izlanish-ixtiro texnologiyasi” QK (rezina buyumlar ishlab chiqarish), O'zbekiston-Janubiy Koreya “Husn Chiroyi” QK (tibbiy xizmat ko'rsatish), Xitoy “Fergana Premium Medical” xorijiy korxonasi (tibbiy xizmat ko'rsatish), Xitoy “Fergana Sintepon Servis” xorijiy korxonasi (plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish), Xitoy “Fergana ignaterapiya servis” xorijiy korxonasi (tibbiy xizmat ko'rsatish), O'zbekiston-Xitoy “Qo'qon evro qurilish materiallari” QK (kurilish materiallari ishlab chiqarish), O'zbekiston-Xitoy “Great wall ceramic industries” QK (qurilish materiallari ishlab chiqarish), O'zbekiston-Xitoy “Bin Li Xin” QK (tibbiy xizmat ko'rsatish), O'zbekiston-Qozog'iston “Taraz servis effect” QK (qurilish materiallari ishlab chiqarish), O'zbekiston-Xitoy “Modema Ceramic Industries Fergana” QK (qurilish materiallari ishlab chiqarish); Quvasoy shahrida (1 ta) O'zbekiston-Rossiya “MAGMA STROY INVEST” QK (qurilish materiallari ishlab chiqarish); Qo'qon shahrida (3 ta) O'zbekiston-Janubiy Koreya “Akmal new special product” QK (qog'oz ishlab chiqarish), O'zbekiston-Xitoy “Brush invest” QK (cho'tka ishlab chiqarish), O'zbekiston-Xitoy “Comfort velo parts” QK (velosiped va nogironlar aravachasi ishlab chiqarish); Bag'dod tumanida (1 ta) O'zbekiston-Xitoy “Farovon Bag'dod” QK (qurilish materiallari ishlab chiqarish); Buvayda tumanida (1 ta) O'zbekiston-Qozog'iston “Bahrom trade group” QK (chakana savdo xizmati); Uchko'prik tumanida (1ta) O'zbekiston-Xitoy “Mehrigiyo-Dilruz” QK (farmatsevtika mahsulotlari); Qo'shtepa tumanida (1ta) O'zbekiston-Qozog'iston “Legenda zolotoy dolini” QK (meva-sabzavotlarni qayta ishlash).

To'g'ridan-to'g'ri jalb etilgan xorijiy investitsiyalar xajmi 19 mln. dollarni tashkil etdi, 483 ta yangi ish o'rni yaratildi.

2012 yilda 22 ta qo'shma korxonalar 11,6 mlrd. so'mlik soliq va boshqa majburiy to'lovlardan imtiyozlar olgan bo'lsa, 2013 yilda 22,7 mlrd.so'mlik, 2014 yilda 27 mlrd. so'mdan ortiq imtiyozlar oldi. 2015 yilda olingan imtiyozlar 30 mlrd. so'mdan ortdi. Ushbu mablag'lar korxonalar faoliyatini kengaytirishga sarflanmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha 2015 yil xududiy investitsiya dasturiga umumiy qiymati 67,4 mln. dollarga teng bo'lgan, shundan 45,5 mln. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyani tashkil qilgan 30 ta investitsion loyihalar kiritilgan. 2015 yil 9 oyi davomida olib borilgan monitoring ma'lumotlariga ko'ra dasturga kiritilgan loyihalar bo'yicha (qo'shimcha loyihalar bilan birga) jami 57,5 mln. dollar (103,4%) investitsiyalar jalb qilindi va shundan 38,6 mln. dollar (104,8%) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga to'g'ri kelmokda.

Jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tekstil (7,5 mln. doll), qurilish (16,2 mln doll.), xizmat ko'rsatish sohasi (1,0 mln. doll.), charm-poyabzal (760 ming. doll.), mevasabzavot (470 ming. doll.), mashinasozlik (1,2 mln. doll.) va boshqa sohalarda (798,3 ming doll) ga yunaltirilgan.

O'zbekiston-Xitoy “Bolajon orzusi” Qo'shma korxonasida kuzgi, ishchilar va xarbiylar oyoq kiyimlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hisobiga ishlab chiqarish kengaytirilmokda. Korxonaga Xitoy davlatidan qiymati 1 mln. dollarlik uskunalar sotib olindi. Korxonada yiliga 150 ming juft oyoq kiyim ishlab chiqarilgan bo'lsa, kengaytirish hisobiga yillik quvvat 500 ming juft oyoq kiyimi ishlab chiqarishga yetkazildi.

“Beshariq To'qimachi” MChJ da ip-kalava ishlab chiqarishni qayta tashkil qilish bo'yicha Shveysariyaning Riter kompaniyasining umumiy qiymati 400 ming. dollarlik uskunalar (ventilyator, tasmali va extiyot qismlar) sotib olindi va 2015

yilning 2-choragidan boshlab sutkasiga 8 tonna ip kalava ishlab chiqarish quvvati bilan mahsulot ishlab chiqarish boshlandi.

O'zbekiston-Janubiy Koreya "Fergana Oseana" Qo'shma korxonasi ip kalava ishlab chiqarishni tashkil qilish bo'yicha Turkiyaning Tensang va Germaniyaning Trushler kompaniyalarining umumiy summasi 2,5 mln. dollarlik uskunalar sotib olinib, korxonada qurilish ishlari yakunlanib, 2015 yilning 3-choragi oxirida korxonada yillik 3 ming tonna ip kalava ishlab chiqarish quvvati bilan mahsulot ishlab chiqara boshladi.

O'zbekiston-Turkiya "Qo'sh tepa ipak gilamlari" qo'shma korxonasi ipak gilam ishlab chiqarishni kengaytirish doirasida xorijiy hamkor tomonidan korxonaga jami 235 ming dollar miqdorida qayta investitsiya kiritildi, shundan umumiy summasi 115 ming dollar miqdorida uskunalar keltirilib, korxonada o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

O'zbekiston-Iordaniya "Fergana Spinning" qo'shma korxonasi ip kalava ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish ishlari bo'yicha 2015 yil aprel-may oylarida umumiy summasi 1600,0 ming dollar qiymatda uskunalar sotib olinib, qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi. Korxonada ishlab chiqarish quvvati yillik 1,1 ming tonna ip kalava ishlab chiqarish bo'lib, modernizatsiya ishlari yakunlanib, korxonada yiliga 1,5 ming tonna ip kalava ishlab chiqarish quvvatiga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi "Ekologiya va atrof-muxitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish, sanitariya va gigiena qoidalariga rioya etilishini ta'minlash, chiqindilar bilan ishlash tizimini jahon andozalari darajasida takomillashtirish kabi ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Chiqindilarni saralash, qayta ishlash va ulardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish tizimini 2017-2020 yillar davomida takomillashtirish maqsadida "Farg'ona vodiysida chiqindilarni kompleks boshqarish klasteri tashkil etish" loyihasi ishlab chiqildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida yagona bo'lgan chiqindilarni kompleks boshqarish loyihasini amalga oshirish natijasida 7 ta shahar, 40 ta tuman, 315 ta MFY da 9 milliondan ortiq aholi 20 mingdan ziyod yuridik shaxslar mavjud bo'lgan va yiliga 2 million tonna chiqindi yig'iladigan Farg'ona vodiysi hududi to'liq qamrab olinadi. Bu loyiha asosida "Man Capita" kompaniyasi (Bahrayn) Farg'ona vodiysida yagona chiqindilarni qayta ishlab chiqaruvchi korxonada hisoblanib, u qiymati 96 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya kiritish hisobiga quriladi.

"Toza hudud" davlat unitar qo'shma korxonasi ulushiga ega bo'lib, korxonada ishga tushirilganda chiqindilarni yig'ish tizimi to'liq avtomatlashtiriladi. Chiqindilarni to'plash, yuklash, olib chiqish-tashish ishlari takomillashtirilmoqda. Natijada barcha aholi yashash hududlari avtomatlashtirilgan konteynerlar bilan ta'minlanadi. Presslash uskunalar va GPS monitoring tizimi hisobiga umumiy harajatlar 20 foizga qisqartiriladi. Axlal to'planadigan joylarda estetik ko'rinish vujudga keladi, yo'nalishlardagi transport harajatlari 80 foizgacha qisqaradi, yangi poligonlar tashkil etish zarurati yo'qoladi, zararli moddalar tashlamalari 50 foizga kamayadi. Eng asosiysi, mazkur loyiha hayotga tatbiq etilishi natijasida 2000 ga yaqin yangi ish o'rinlari tashkil etiladi.

Bu loyihani amalga oshirish uch bosqichga bo'lingan bo'lib, birinchi bosqichda (2017 yil) 15 mln. dollar investitsiya kiritish, ikkinchi bosqich (2018 yil) 40,8 mln. dollar investitsiya kiritish, uchinchi bosqichda (2019-2020 yillar) 40 mln. dollar investitsiya kiritish rejalashtirilgan. Chiqindilarni saralash, qayta ishlash, ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish tizimi loyihasi 2020 yilda Farg'ona vodiysini to'liq qamrab olish imkonini beradi. Qo'shma korxonada loyihasi to'liq hayotga tatbiq etilganidan so'ng xalq xo'jaligi va aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan 15 turdan ziyod mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Bular sirasiga shisha, qog'oz, plastmassa va sintetik tola, qurilish materiallari, organik o'g'it, qattiq yoqilg'i (briket), biogaz mahsulotlari, elektr energiyasi ishlab chiqarish kabilar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, investitsiya loyihalari ijrosining borishi bilan yaqindan tanishish maqsadida 2017 yil 22-23 iyun kunlari Farg'ona viloyatiga tashrif buyurib, yuqoridagi qo'shma korxonani barpo etish va mutasaddi tashkilotlar tomonidan o'rganib chiqish bo'yicha takliflar berdi, shuningdek, ularni yanada takomillashtirish, amalga oshirish jarayonlarini tezlashtirish, ish o'rinlarini yaratishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi[8].

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xorijiy investitsiya ishtirokidagi qo'shma korxonalarga berilayotgan imtiyoz va kafolatlar, ya'ni 15 yil muddatga soliq yuklarisiz ozod etish, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini ikki yil mobaynida tekshirmaslik hech shubhasiz, yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ulkan ta'sir ko'rsatib, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining yanada ko'payishiga, buning natijasida mamlakatimizga kirib kelayotgan investitsiya va ishlab chiqarish hajmining o'sishiga, aholi bandligining ortishiga, aholi daromadlarini oshishi, aholi ehtiyojlari qondirilishi xalqimiz turmush farovonligining o'sishiga davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asos bo'ladi.

## REFERENCES

1. Xalq so'zi, 2017 yil 8 fevral.
2. Каримов И.А. Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. Т.:Ўзбекистон, 2013, -Б.27
3. Экономика Узбекистана: информационно-аналитический бюллетень за 2012 год. –Тошкент, ЦЭИ.2013.-С.15.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Farg'ona viloyat bo'limi 2048-jamg'arma, 14-ro'yaxat, 24-yig'ma jild, 5-11 varaq.
5. Farg'ona viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasining 19 noyabr 2015 yil 1904/6 sonli xati.
6. Farg'ona viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasining 10 sentabr 2014 yil 1134/6 sonli xati.
7. Farg'ona viloyati statistika boshqarmasining 2014 yilgi yillik hisobotlari.
8. Xalq so'zi. 2016 yil 1 noyabr.
9. Xalq so'zi. 2017 yil 22 iyun.